

G'azallar

Ey yuzung gul bargiga oshuftau hayron sabo,
 Telbalardek gulshani ko'yungda sargardon sabo.
 Qo'pmog'i mumkin emastur, balki tebranmakligi,
 Topmasa jonbaxsh la'ling nuktasidan jon sabo.
 Sunbuli zulfin agar oshufta qilmaydur, nedur,
 Kim, shabistong'a esar har dam abirafshon sabo.
 Pora-pora jism aro ohim netib qolg'ay nihon.
 Bo'lmoq imkon yo'q xasu xoshok aro pinhon sabo.
 Yordin keldi sabo kech kelmakin aylarga fosh,
 Ko'nglum ichra tez qildi shu'lai hijron sabo.
 Notavonlar ohi ul gul ko'yida har subhidam,
 O'yladurkim, gulsiton ichra esar har yon sabo.
 Subh chun esti sabo, ichkil qadahkim, bo'lmos'ung
 Senu ko'p esturgusi bu bog' aro davron sabo.
 Lolaruxlar ahning mahkamligi mumkin emas,
 Sobit o'lmoq lahzai bir yerda ne imkon sabo.
 Tong emas, solsa Navoiy ohi ko'yungda girev,
 Chun guliston sayrida zohir qilur afg'on sabo,
 * * *

La'ling ul o'tki, ko'ngul mijmar ango,
 Yo ko'ngul durju labing gavhar ango.
 G'amidin oyru emonkim, tutmis
 Uns bu xotiri g'amparvar ango.
 Zordur telba ko'ngulkim, ko'runur
 Har dam ul huri pari paykar ango.
 Qon ko'nguldin ne ajab turmasakim,
 Kirpiking har dam urar nishtar ango,
 Hajr o'tidin tanim ul nav' kuyar,
 Kim erur ostida kul bistar ango.
 Hajridin holim erur andoqkim,
 Bo'lmos'oy ko'rma gucha bovar ango.
 Dahr xush gulshan erur, paylaykim,
 Yo'q vafo gullardin zevar ango.
 Jon olurda gami hajr, ey soqi,
 Choradur boda bila sog'ar ango.
 Yuzi vasfiga Navoiy tushmish,
 Bargi guldin yasangiz daftara ango.
 * * *

Ul parivashkim, bo'lubmen zoru sargardon ango,
 Ishqidin olam menga hayronu men hayron ango.
 O'qlaringdin dam-badam taskin topar ko'nglum o'ti,
 Bordurur bir qatra suv go'yoki har paykon ango.
 Bir dilovardur ko'ngulkim g'am sipohi qalbida,
 Ohi novak toza dog'idur qizil qalqon ango.
 Novakining parru paykonida rangin tuz erur,
 Yoki ko'nglumdin chu parron o'tti yuqmish qon ango.
 Nomai shavqum ne nav' ul oyga stgay chunki, men
 El otin o'qur hasaddin yozmadim unvon ango.
 Xizr xattingning ajab yo'q sabzu xurram bo'lmos'ung,
 Lab-balab chunkim berur suv chashmai hayvon ango.
 Ey xusho, mug' ko'yikim rif'at bila ziynatda bor,
 Mehr anga bir shamsau ko'k toqidur anvon ango.
 Istamish buloul vafo guldin magarkim joladin,
 Bag'ri qotmish gunchaning baskim erur xandon ango".
 Qilmamish jonin fido jononga yetmas der emish,
 Ey Navoiy, ushbu so'z birla fido yuz jon ango.
 * * *

Menmudurmenkim sening vasling tuyassardur mango.
 Baxti gumrahdin qachon bu qissa bovardur mango.
 Haq tonuqturkim, tiriklikdin manga sensan murod,
 Yo'qsa olamning yo'qi-bori barobardur mango.
 Ey ko'ngul, g'avvosi bahri vasl o'lubmei, ne ajab,
 Gar nasib emdi o'shul pokiza gavhardur mango.

Ne uchun bazmi visol ichinda ichmay bodakim,
 Ko'ziyu og'zi bukun bodomu shakkardur mango.
 Oyu xurshidingni yig', ey charxi gardun kim bu dam,
 Hamdam ul oy chehrilik xurshid paykardur mango.
 Sarvni o'rtab, sumanni yelga ber, ey bog'bon,
 Kim bukun hamsuhbat ul sarvi sumanbardur mango.
 Qo'rqaram hirmon sahobin yopmag'ay fahm etsa charx
 Kim shabiston mehr sham'idin munavvardur mango.
 Ey Navoiy, hech bilmonkim, topibmen vaslini,
 Yo magarkim jumlai olam musaxxardur mango.

* * *

Bordi rahm aylamay ul kofiri xudroy mango,
 Gar tarahhum qilibon qaytmasa, voy mango.
 Nechuk o'lmayki, borur vaqtida ul umri aziz,
 Borchha bila ko'rushib qilmadi parvoy mango.
 Tiyradurmenki, parishon bo'lubon vasl kunin,
 Shomi hajr ayladi ul zulfi sumansoy mango,
 Mastu ovora ko'ngul ittiyu rahm etmadi ul,
 Bodapaymoy demay, bodiya paymoy mango,
 Yo'q so'zim charx ila, vah, qildi chu shabgir baland,
 Ro'zg'or etti qaro hajridin ul oy mango,
 Soqyo, sofi tarab ahli visol ichsunlar,
 Hajr zindonida tutsgang' bas erur loy mango,
 Hur zohidqa, Navoiy, ikki dunyodau ul
 Buti xudroyi demay, sho'xi xudoroy mango.

* * *

Lablaringdin garchi qon yutmoq damo-damdur mango,
 Gar dame jomi visoling yiqsa, ne gamdur mango.
 Pand eshitmay, ko'rub oii, yuz baloga uchradim,
 Ko'zlarim chiqsunki, yuz muncha sazo kamdur mango.
 Qofi shavqum sharhini tahrir qildim, vah, ne sud,
 Kim anga irsol uchui semurg' mahramdur mango.
 Yorkim mundoq nihondur ko'adpiu men telbamen,
 Kim degaykim, pashsha bo'lg'op nasli odamdur mango.
 Qora chirmab, yosh to'kub, afg'on qilurmen xomadek,
 Etkali nolon ko'ngul bu nav'i motamdur mango.
 O'zga yuzga boqma deb, bir-bir ko'zung'a boosti muhr,
 Iynak-iynak har qaro bir naqpg'a xotamdur mango.
 Dahr aro tushkon havodis o'tidin mone' emas,
 Ko'z yoshimdin garchi ko'z tushkuncha bir namdur mango.
 Soqyo, jomi jahonbin tutki, andin kashf etay,
 Kim ko'p psh bu korgah vaz'ida mubhamdur mango.
 Dilbari ollida Majnun naqdi jon sarf etmadi,
 Ei Navoiy, ishq atvori musallamdur mango.

* * *

Har gadokim bo'ryoyi faqr erur kisvat anga,
 Saltanat zarbaftidin hojat emas xil'at anga.
 Kim fano tufrog'ig'a yotib qo'yar tosh uzra bosh,
 Taxt uza ermas muzahhab muttako hojat anga.
 Shah yurub olam ochar, darvesh olamdin qochar,
 Ham o'zung insof bergilkim, bu ne nisbat anga.
 Har ne shah maqsudidur - darveshning mardudidur,
 Ko'r, nedur himmat munga, ne nav' erur holat anga.
 Faqr ko'yi tufrog'in shah mulkiga bermas faqir,
 Mulk, ko'rkim, teng emas tufrog' ila qiymat anga,
 Shah sipah cheksa, faqir ahvolig'a yetmas futur,
 Bu vale chekkach nafas, barbod o'lur hashmat anga,
 Shoh emastur bir nafas osuda do'zax vahmidin,
 Ey xusho darveshkim, mardud erur jannat anga.
 Shahg'a sidq ahli damidin mash'ali davlat yorur,
 Mehrdekkim subh anfosi ochar tal'at anga.
 Shohg'a shahlig' musallamdur, agar bo'lg'ay mudom,
 Shohlig' tarkin qilib, darvesh o'lur niyat anga.
 Mumkin ermas shahlar ichra bo'yla niyatlig', magar
 Shohi G'oziyikim, tuyassar bo'ldi bu davlat anga.

Shohlar darveshsho darveshlar shohikp, bor
 Shohlig' surat anga, darveshlik siyrat anga,
 To shahu darvesh bo'lg'ay aylagil, yo rab, ayop,
 Shohdin xizmat anga, darveshdin himmat anga.
 Gar Navoiy so'z uzatti faqrarin ermas demang,
 Bo'limg'uncha hukm shahdin qayda bu jur'at anga?
 * * *

To seningdek qotili xunxoraye bordur manga,
 Billah, ar o'makdin o'zga choraye bordur manga!
 No'shi jon har bodakim ahbob ila no'sh aylading,
 Garchi hargiz demading ovoraye bordur manga.
 Vasling iqboliyu men, hayhot, basdur bu sharaf,
 Kim yiroqdin davlati nazzoraye bordur manga.
 Deb emish har kimda bor zaxme, otay marham bir o'q,
 Shukr erurkim, har sari mo' yoraye bordur manga.
 Bordi ul xurshidu ashkim oqti, vah, tole' ko'rung,
 Kim ne yanglig' axtari sayyoraye bordur manga.
 Sabr soldim ko'nglima vasling tilab, vah, bot kelib
 Turfa ko'rkim, shisha ichra xoraye bordur manga.
 Dema ko'p, ey nafskim, dunyo arusin aqd qil,
 Uyda ba'zidek sog'in makkoraye bordur manga.
 Dev urub ishqij majoziy ichra majnun aylagan,
 Yova der, bukim pariruxsoraye bordur manga.
 En Navoiy, kuymagimni qilmag'aysan man', agar
 Jon aro bilsang ne otashporaye bordur manga.
 * * *

Necha ko'nglum pora bo'lsa, rahm qilmas yor anga,
 Necha bag'rim to'lsa qon, boqmas dame dildor anga,
 Bir yuguruk tifl erur kirpiqlarim ichinda yosh,
 Kim yiqilib, sanchilibtur har tarafdin xor anga,
 Nomam eltur qush agar mazmunin aytib qilsa sharh,
 Sochqay o't qaqnus kibi ming chok o'lub minqor anga.
 La'ling ollida chekar el jonini olg'ach ko'zung,
 Bah, ne sharbatdур labingkim, jon berur bomor ango.
 Aql evi sori inonin boshlamoq, nosih ne sud,
 Telbakim, dasht uzra markabdur buzuq devor anga.
 Tortasen isyon yukin, xam qil qadning toatg'akim,
 Yuk og'ir bo'lsa, ruku' ul dam bo'lur nochor anga.
 Umr g'aflat uyzqisi birla tilarsen kechsa, oh, -
 Ko'z yumub-ochquncha kimning e'timodi bor anga?
 Men xud o'lдум, ey sabo, ko'nglumni ko'rmanq ko'yida,
 Chiqma andin, deb nasihat qilg'asen zinhor anga.
 Zor jismim tushgali hajr o'tidin g'am changgiga,
 Ey Navoiy, o'xshashur ham ud anga, ham tor anga.
 * * *

Gulo' gulzor sening bog'i jamolingga fido,
 Saryo' shamshod dog'i toza niholingga fido.
 Butubon mehrigiyah donasi ham sochilsa,
 Orazint go'lgnani ichra xatu xolingga fido.
 Yo'q mening, balki Xizr birla Masiho joni,
 Chashmai no'sh aro jonbaxsh zulolingga fido.
 Yangi oy, balki to'lun oy demayin, balki quyosh,
 To'lin oyu quyoshing uzra hilolingga fido.
 Ey ko'ngul, vasli xayolini qilursen doim,
 Ki mening jonu jahonim bu xayolingga fido.
 Tutqung, ey rindi xarobot, manga sog'arkim,
 Ruh boding'au eski safolingga fido.
 Ey Navoiy, labidin nukta so'rarsen, yuz jon
 Bo'yla shirin so'zu jonbaxsh maqolingga fido.
 * * *

Ne navo soz aylagay bulbul gulistonin judo,
 Aylamas to'ti takallum shakkaristonin judo.
 Ul quyosh hajrinda, qo'rqrarmen, falakni o'rtagay
 Har sharorekim bo'lur bu o'tlug' afg'ondin judo.

Dema, hijronimda chekmaysen fig'onu nola ko'p,
 Jism aylarmu fig'on, bo'lgon nafas jondin judo?
 Bo'lsa yuz ming jonim ol, ey hajr, lekin qilmag'il
 Yorni mendin judo yoxud meni ondin judo.
 Hajr o'limdin talx emish, mundin so'ng, ey gardun, meni
 Aylagil jondin judo, qilg'uncha jonondin judo.
 Vasl aro parvona o'rtandi, hamono bildikim,
 Qilg'udekdur subh ani sham'i shabistondin judo.
 Bir iyosiz it bo'lub erdi Navoiy yorsiz,
 Bo'lmasun, yo rabki, hargiz banda sultondin judo.
 * * *

Behi rangidek o'lmish dardi hajringdin manga siymo,
 Dimog'im ichra har bir tuxmi yanglig' donai savdo.
 Mazallat tufrog'i sorig' yuzumda bordur andoqkim,
 Behida gard o'Iturgon masalli tuk bo'lur paydo.
 Oqartib ishq boshimni, nihon bo'ldi sarir chehram,
 Momug' ichra behini chirmog'on yanglig' kishi ando,
 Yuzumda tiyg'i hajring zaxmi har sori erur bevajh,
 Behini tiyg' ilan chun qat' qilmoq rasm emas qat'o.
 Yuzum tufroqdadur har dam qurug'on jism ranjidin,
 Behiga sarnigunlik shoxi za'fidin bo'lur go'yo.
 Bu gulshan ichra behbud istagan doim behi yanglig',
 Kiyib pashmina, toatqa qadin xam asramoq avlo.
 Navoiy gar quyosh noranjidin behrak ko'rар, tong yo'q,
 Bohikim lutf qilmish mahdi ul'yo ismatud dunyo.
 * * *

Zor jismimg'a xadanging zaxmidin ortar navo,
 Sozdekkim, teshsalar oni fuzun aylar sado.
 Qaddi hajrinda g'amim sham'ini har devorga
 Kim tayabmen sarv andomi bila bo'lmish qaro.
 G'unchang afrosi nasimi zavraqi jon qasdig'a
 Yetkurur hardam adam daryosidin mavji fano.
 Orzuyi vaslidin ranjur erur munslug' ko'ngul,
 Qut uchun tazvir ila bemor bo'lgondek gado.
 Nega yig'lab anbarin zulfin kesar hijron tuni,
 O'Imagimni anglabon gar sham' tutmaydur azo.
 Hajr dardin ko'nglima kam qildi xoling oqibat,
 Dog' emish dardi shaloyin xastag'a oxir davo.
 Ruhparvardur Navoiy ohi ul yuz shavqidin,
 Ul sifatkim lolau gul yuzidin kelgay sabo.
 * * *

Ey, sanga qomati diljo' ra'no,
 Tavru tarzing dog'i asru ra'no.
 Paykaru qaddinga volihmenkim,
 Ul biri nozuk erur, bu ra'no.
 Ul pari uchqusi ra'noliqdin,
 Odami muncha bo'lurmdu ra'no.
 Qomating nozuku to'bi nozuk,
 Sarv ra'nou torong'u ra'no.
 Ey musulmonlar, o'larmenkim, erur
 Asru ul sarvi sumanbo' ra'no.
 Bevafodur bu chaman, ko'p bo'lmanq,
 Ey sapidor ila noju, ra'no.
 Bil, Navoiyki, g'izolingcha emas
 Chin gulistonida ohu ra'no.
 * * *

Telba ko'nglum yorasi hadsiz tani uryon aro,
 O'yladurkim yer tutar devonaye vayron aro.
 Buki la'ling nuktasi har dam o'lukni turguzur,
 Kirdi Ruhulloh, magar, ul chashmai hayvon aro.
 La'l yozilg'on kibidur la'l aro qilsang nazar,
 Ko'zki hayratdin tikibmen ul labi xandon aro.
 Qatra suv ichra, degaykim, bargi gulning aksidur,
 Qatra qonim rangini kim ko'rsa ul paykon aro.

Qomating yodida ko'nglum ichra har keskon alif,
 Rost bo'l mish ul alifdekki, yozilg'ay jon aro.
 Jon fidong o'lsun habibimkim, hamono bor edi
 Qasdi maxluqot aro insonu sen inson aro.
 Ey Navoiy, istasangkim o'lmagay el darddin,
 Dardi holingni dema nazm aylabon afg'on aro.
 * * *

Xil'atin aylabmudur ul sho'xi siyminbar qaro
 Tun savodi birla kiygandek mahn anvar qaro.
 Ul pari hindusi men, med telbakim, uryon tanim,
 Tifllar toshidin, iynak, bo'ldi sartosar qaro.
 Ashkdek oqtqi qaro suv ko'zdarimdin hajrida,
 Tong yo'q idborim chu bo'l mishdur manga axtar qaro.
 Qosh o'yub yoqsang qaro bo'lg'on ko'zumning mardumin
 Xoli maygunungni qilg'uncha qo'yub anbar qaro.
 Ishq raf o'lg'och ko'ngulga yo'qturur juz tiyralik,
 Ul sifatkim shu'lasi o'chkach bo'lur axgar qaro.
 G'ayrdin qilg'il zamiring safhasin pok, ey faqih,
 Tobakay qilmoq firibu makr ila daftar qaro.
 Dudi ohidin qaro ermas Navoiy kulbasi,
 Kim qilibtur xonumoim bir pari paykar qaro.
 * * *

Qilur ishq yuz ming balo oshkoro,
 Vale borin aylar sango oshkoro"
 Balo, ko'rki, ag'yorga ko'rguzur yor
 Nihon mehru, bizga jafo oshkoro.
 Dedim ishqni oshkor etmay, ammo
 Yoshurdum men, etti qazo oshkoro.
 Netib men nihon asrayin, aytin oxir,
 Tilar bo'lsa dardim xudo oshkoro.
 Jununum bu bo'lsa, g'amim bo'lg'usidur
 Nechakim yoshursam, yono oshkoro.
 Qilur yuz jafo oshkorou bir ham
 Vafo qilmas ul bevafo oshkoro.
 Yedim tiyrboroni hajringda ming zaxm
 Ki, bo'ldi ne o'qu ne yo oshkoro.
 Necha boda maxfiy, chu fosh o'ldi ishqim,
 Tut emdi qadah, soqiqo, oshkoro.
 Ki to mast o'lub ishq ramzida, tortay,
 Navoiy kibi bir navo oshkoro.
 * * *

Sorig' og'riq bo'ldum, ey soqiy, xazoni hajr aro,
 Qoni asfar mayki, bor har qatrasи bir kahrabo.
 Yuzu jismimdur sorig' barge qurug'on shox uza,
 Shoxu bargkim qurub sarg'arsa, kim ko'rmish davo?
 Ne marazdur buki, bir gulruk sharori ishqidin
 Bo'ldi sorig' lola ko'zum oqiyu dog'i qaro.
 Sud emish ko'z tushsa asfar jinsi sori, vah, qani
 Sarvinozimkim, sorig' gulbargidin kiymish qabo.
 Sorg'orib qoldim havodis kojig'a hijron kuni,
 Bir sorig' qushdekki, kunduz qolg'ay ol qushlar aro.
 Shom ila subh ar sorig' og'rig' emaslar, bas nedur,
 Tun sochin yoyib, quyosh yirtib yuzin, tutmoq azo?
 Dard tufroqqa nihon qildi Navoiy jismini,
 Tolibon bir shusha oltun, dafn qilg'ondek gado.
 * * *

Vahki, rasvomen yana dovonavu oqil aro,
 Bulajab holim erur afsona har mahfil aro.
 Muztar erdim hajridin, yor etgay ermish tarki mehr
 Mushkuledur ishqdin har dam manga mushkil aro.
 Aqlu sabru hush itib, ko'nglumda qoldi dog'lar,
 Korvon ko'chsa qolur o'tlar yeri maizil aro.
 O'qlaring mujgon kibi giryon ko'zum atrofida,
 Rost bordur ul qamishliqkim bo'lur sohil aro.

Kiriping tushkap ko'ngul ichra xayoling, ey pari,
Go'yo Yusuf nuzul etmish chahi Bobil aro.
Kullug'ung dogidin o'lsm, istamon ozodlik,
Kim bu tamg'odur nishone mudbiru muqbil aro.
Ko'yung-o'q istar Navoiy, nasya jannat - ahli zuhd,
Muncha-o'q bo'lg'ay tafovut olimu johil aro.

Bas ajabdur gar manga ul dirlrabo qilg'oy vafo,
Kimga umr etti vafokim, ul manga qilg'oy vafo.
Chun vafosizdur qaro ko'zlar sanga ham, ey ko'ngul,
Mumkin ermasturki ul ko'zi qaro qilg'oy vafo.
Men jafo tortarg'a xo'y ettimki, yo'q imkonikim,
Ul jafojo' to qila olg'ay jafo, qilg'oy vafo.
Chun mening dardim parivashlar jafosidin durur,
Ushbu dardimg'a magarkim ham davo qilg'oy vafo.
Qil vafo ushshoqingga, ey sho'xkim, nogoh agar
Bir pari ishqig'a zor o'lsang, sango qilg'oy vafo.
Davning iflosidin may ichki, joh ahliga ham
Aylamon bovarki, bu dayri davo qilg'oy vafo.
Aytsa bo'lg'ay zamon nodoni, jono, onikim,
Jon berib ahli zamondin muddao qilg'oy vafo.
O'zga oylardin vafo naql etsalar man' aylamon,
Lek inonmoq onikim, ul bevafo qilg'oy vafo.
Ey Navoiy, ko'p vafodin dema so'zkiem, aybi bor,
Faxr ishq ichra agar bir benavo qilg'oy vafo.

Ne xush bo'lg'ay ikovlon mast bo'lsoq vasl bog'inda,
Qo'lum bo'lsa aning bo'ynidau og'zim qulog'inda.
Dami vasl ichra volihlig' bila ruxsorim egnida,
Yana bir dam niyozu ajz ila boshim ayog'inda.
Tutub gohi zanaxdonin mukarrar aylasam bot-bot,
Ko'rub gullar ochilg'on bodadin ruxsori bog'inda.
Shimib yutsam gahi hayvon suyidek zavqdin ko'rgach,
Tarashshux bodadin gul yafrog'i yanglig' dudog'inda.
Gahi ko'z surtarimda, yo'qsa haryon shodlig' ashkim,
Gul uzra qatra shabnamlar kibi siymin saqog'inda.
G'ahi bexudlug'umdin seskanib tutsam adab rasmi,
Belida chirmashurda shavqning ifroti chog'inda.
Ne kelsa tongla kelsun, bir tun usruk yotsa ham xushtur,
Kishi gul chog'i bir gul xirmanin tortib quchog'inda.
Qachon davron manga bir bo'yla ishratni ravo ko'rgay,
Ki o'rganmish meni o'rtarga hijron dardu dog'inda.
Navoiy, sen kimu, ishrat mayi, bilmasmusen kim, it
Agar qon ichsa ham boshi keraktur o'z yalog'inda.

Gul kerakmastur menga, majlisda sahbo bo'lmasa,
Naylayin sahboni bir gul majlisoro bo'lmasa.
Bazm aro xushtur qadah kavkab, vale ermas tamom,
Mutribi xush lajhaj xurshid siymo bo'lmasa.
Mehru, mohu, Mushtariyu, Zuhra chun qildi tulu',
Hech nafs axtar tulu'i anda qat'o bo'lmasa.
Muncha bo'lsa ham tuyassar jam' emas xotir hanuz,
Toki mug' ko'yida bir mahfuz ma'vo bo'lmasa.
Chun bu yerda ichkaridin rust bog'landi eshik,
Odam ermas ul kishikim, bodapaymo bo'lmasa.
Xushturur bu nav' amniyat, vale aqshomg'acha
Gar falakdin bir xiyonat oshkorbo bo'lmasa.
Har kishiga umrida bu nav' bir kun bersa dast,
To abad g'am yo'q agar bo'lsa yana yo bo'lmasa.
Umr bazmida nishot asbobi dilkashdur base,
Gar havodis shahnasidin anda yag'mo bo'lmasa.
Ey Navoiy, gar nasibingdur abad umri, kerak
Xotiringda yordin o'zga tamanno bo'lmasa.

Kosidekim yordin bir so'z rivoyat aylasa,
 Istaram so'rgon soyi boshtin hikoyat aylasa.
 Telbalar yanglig' gah o'z holimdadurmen, goh yo'q,
 Ul nardin har kishi bir so'z rivoyat aylasa.
 Ey ko'ngul, ohingni dersenkim suv aylar toishi"
 Chin erur, gar ko'ngliga oning siroyat aylasa.
 Jong'a basdur har nafas bir dog', nevchun bo'lmasun,
 Qoni' ulkim, bir diram har dam kifoyat aylasa.
 Topti Majnun shuhratu qoldi mening qissam nihon,
 Kim o'lar har kim, fasonamni bidoyat aylasa.
 G'am sipah qasdimg'a tortibtur, ne bo'ldi piri dayr,
 Bir qadah birla bu mahzunni himoyat aylasa.
 Ey Navoiy, faqrin bebahradur, yuz g'am yetib,
 Solikekim shukr borinda shikoyat aylasa.

* * *

Ko'nglum o'rtansun agar g'ayringg'a parvo aylasa,
 Har ko'ngul hamkim, sening shavqungni paydo aylasa.
 Har kishi vaslin tamanno aylasam navmid o'lay,
 Har kishi hamkim, seiing vasling tamanno aylasa.
 O'zgalar husnin tamosho aylasam chiqsun ko'zum,
 O'zga bir ko'z hamki, husnungni tamosho aylasa.
 G'ayr zikrin oshkoro qilsa, lol o'lsun tilim,
 Qaysi bir til hamki, zikring oshkoro aylasa.
 Rashkdin jonimg'a har nargis ko'zi bir shu'ladur,
 Bog' aro nogah xirom ul sarvi ra'no aylasa.
 Yo'q, og'izdin nukta ayтур mahzashimdek bo'lmag'ay,
 Gar Quyosh har zarrasidin bir Masiho aylasa.
 Ofiyat joning'a yetti, ey xusho, mug'kim msni
 Gar qadah birla xarobot ichra rasvo aylasa.
 Kelturung daf'i jununumga parixon, yo'q tabib,
 Kim ul ansabdur pari har kimni shaydo aylasa.
 Subhdek bir damda gardui qo'yimag'ay osorini,
 Nogah ahli sidq ko'ngli mehrin ifsho aylasa.
 Dahr sho'xpg'a, Navoiy, sayd bo'lma, nechakim
 Kun uzori uzra tun zulfin mutarro aylasa.

* * *

Munisi jon deganim ofati jon bo'ldilo,
 Jonima bedodidin sheva fig'on bo'ldilo.
 Dedi ko'zung qoniii vaslim ila turguzay,
 Voyki, bag'rim dog'i hajrida qon bo'ldilo.
 Gar yuzi may tobidin gul-gul erur qon yoshim,
 Yuz uza tim-tim tomib, lolasiton bo'ldilo.
 Ko'zu ko'ngul qonini yoshuray eldin dedim,
 Har biridin yuz sari yuzda nishon bo'ldilo.
 Zuhd aro har mushkilimkim bor edi, ey faqih,
 Jomg'a may quyg'och-o'q, barcha ayon bo'ldilo.
 Kimki zamon ahlidin aylamadi ijtimob,
 Bir kun ani ham degung ahli zamon bo'ldilo.
 Yaxshilar ichra vatan tutsa Navoiy, ne tong,
 Kimki yomonlar bila bo'ldi, yomon bo'ldilo.

* * *

Yor dardim so'rmayip ko'nglumni mahzun qildilo,
 Jonim oshubini kam qilmoqdin afzun qildilo.
 Bermayin zaxmin jigar qoniga taskin gunaye,
 La'li kulmak birla ashkimni jigargun qildilo.
 Daf'i savdo istadim la'li mayidin, bir yo'li
 Ul pari savdozada ko'nglumni majnun qildilo.
 Ey ko'ngulkim, sabr tog'in maskan etting oqibat,
 Tund sayli ishq ul tog'ingni homun qildilo.
 Besutung'akim sutun Farhod bo'ldi, qofi ishq
 Ul sutunni Besutun ostidagi "nun" qildilo.
 Nedur uchmoq joh ila, oxir falak Namrudning
 Osmoni taxtu johin ganji Qorun qildilo.
 Qatra xayliq orazing vasfin Navoiy qilgali,
 Lutfi tab' abyoti nazmin durri maknun qildilo.

O'rtasa ishq meni, so'rma sabab:
 Kuysa xoshok yolindin, ne ajab.
 Choklik jon qolur o'tu suv aro,
 Chun mayoluda bo'lur ul iki lab.
 Ayog'ing tufrog'in o'nsam basdur,
 Bor ayog'ingni desam - tarki adab.
 Uyla, dardu g'amminga o'rgandim,
 Kim unut bo'ldi manga ayshu tarab.
 Zulfida zor ko'ngul ranji ne tong,
 Xastaga ko'proq o'lur necha taab.
 Biz kimu vasl murodi, hayhot!
 Dardi noyoft erur bizga talab.
 Jon topib zor Navoiy qo'pqay.
 Tufrog'i ustiga sursang markab.

* * *

Borur ul mast yana noz aylab,
 Xalq ila arbada og'oz aylab.
 Qatl uchun g'amzani jallod qilib,
 Zulm uchun ko'zni fusunsoz aylab.
 Har qachonkim turubon boda ichib,
 Shur'asin xonabarandoz aylab.
 Javr uchun ahli vafokim ayirib,
 Barchasidin meni mumtoz aylab.
 Turfaroq bukim, aning keynicha-o'q,
 Jonu ko'nglum qushi parvoz aylab.
 Ne gunah ko'pga nazardinki, qazo
 To ochib oni nazarboz aylab.
 Garchi holimni Navoiy yoshurub,
 Ishq anga ashkni g'ammoz aylab,

* * *

Bog'ingga yetmasun oshub xazondin, yo rab,
 Gul bila sarvunga oseb zamondin, yo rab.
 Oldi jon la'lingu elga labi jon berguchilar
 Barcha kul bo'lsun oning ollida jondin, yo rab.
 Dardini baski nihon tuttum - o'larmen pinhon,
 Voqif etgil oni bu dardi nihondin, yo rab.
 Yomon ahvolima ko'z solmadi ul oy yaxshi,
 Yaxshi ogoh qil oni bu yamondin, yo rab.
 Yuz jahon zulm jahon ahli manga qildi, meni
 Forig' et ahdi jahon birla jahondin, yo rab.
 Beribon ko'ngluma jam'iyati xotir qutqar,
 Har nekim andin erur tafrifa, ondin, yo rab.
 Ko'yida hajr fig'oninki Navoiy tortar,
 Ham meni, ham oni qutqar bu fig'ondin, yo rab.

* * *

Jamolin ayla ulus ko'zidin nihon, yo rab,
 Nihon o'tumni aning ko'nglig'a ayon, yo rab.
 Ayog'i chunki yetar ostoni tufrog'ig'a,
 Boshimni aylagil ul xoki oston, yo rab.
 Agarchi emin emon bir zamon jafosidin,
 Chekardin oni manga bermagil amon, yo rab.
 Demonki lutfini, javrini dog'i mendin o'gun
 Birov xayolig'a o'tkarma nogahon yo rab.
 Zamon-zamon chekibon ishq o'ti shu'lasini,
 Yorug' ko'ngulni ul o't birla har zamon, yo rab.
 Agarchi aylamasang yaxshi, yaxshi ko'rguzgil
 Meni anga nechakim bor esam yomon, yo rab.
 Navoiy ohini yetkur anga, vale qo'yma
 Aning jamolida bu duddin nishon, yo rab.

* * *

Kezarmen ko'yida yillar nazar holimga solg'ay deb,
 Agar o'ltursa qonim rangi tufrog'ida qolq'ay deb,

Ko'ngulga yuz tuman nesh ursa hijron aylamon nola,
 Visoling po'shidin ul zaxmlar bir kun o'ngolg'ay deb.
 Ko'ngulga novaking to kirdi behad hifzin aylarmen,
 Ki bu shisha ichinda ul dag'i nogah usholg'ay deb.
 Ko'ngulni ko'yida yuz ranj ila mehnatqa topshurdum,
 Ki gar ko'rsa bu surat birla shoyad ko'nglum olg'ay deb.
 Sirishkim qoni qildi ko'yining tufrog'in og'ushta,
 Itiga shoyad ul balchig' bila bir uy yasolg'ay deb.
 Haram vaslin tilarsen po'ya ur mardona, ey solik,
 Qadam ohista chekma bag'ring ul yelmakda tolg'ay deb.
 Navoiy benavolig' birla doim may ichar, bir kun
 Navo naqshini davron mutribi bazmida cholg'ay deb.
 * * *

Sen labing so'rg'on soyi men qon yutarmen, ey habib,
 Sen may ichgilkim, manga xuni jigar bo'l mish nasib.
 Dedilar, ahbob, dardig'a habib aylar davo,
 Vahki, men kuydum, muhabbatdin emas vokif habib.
 Ko'yungga kirgach ko'ngul qoshingga mayl aylar, bale,
 Go'shai mehrob etar payvasta manzilgah g'arib.
 Chehra sorg'org'on soyi otar ko'ngulning nolasi,
 Bor ajab voqi' xazon fasilda nolon andalib.
 Hoshalillah sharbatimni zahri qotil birla ez,
 Chun ish ondin o'ttikim, kelgay Masihim, ey tabib.
 Necha ul oy mehridin shaydo ko'ngulni ovutay,
 Telbaga yolg'on hikoyat birla bergandek firib.
 Mayga rahn o'lmay fano dayrida tasbihu rido,
 Niri dayr etmas havola elga zunnoru salib.
 Nafsing etsa sho'xlug' charx emgagidin qil adab,
 Tiflni andoqki zajr aylar falaq birla adib.
 Ey Navoiy, zulmidin dermanki, ishqin tark etay,
 To nazardin g'oyib o'ldi, yo'q yana sabru shikib.
 * * *

Dam-badam jomi tarab g'ayr ila ul moh chekib,
 Men yiroqtin boqibon, qon yutubu oh chekib.
 Ne g'amim it kibi o'lmaqdin agar eltur esa,
 Bo'ynuma in solibon ko'yiga ul moh chekib.
 G'arazim buki unuturmog'amen o'zni anga,
 Ko'yiga kirmagim afg'on gahu begoh chekib.
 Ko'ngluma hajr agar dard o'qi yog'dursa ne tong,
 Gar chiqorur esa paykonini dilxoh chekib.
 Men adam yo'liga bormon, meni lekin elitur,
 Og'zi shavqida ko'ngul o'ziga hamroh chekib.
 Mapi asfarki to'kulmish quyubon yuz ichsam,
 Kahraboni ko'runguz jilva qilur koh chekib.
 Jur'asin bersa Navoiyga erur o'lgucha bas,
 Bazmi aysh ichra tarab sog'arni ul shoh chekib.
 * * *

Buzdi ko'nglum kishvarin hijron g'ami tug'yon qilib,
 Ohu ashkimdin birin sarsar, birin to'fon qilib.
 Dard uyin qildi bino ishqing buzub ko'nglum uyin,
 Kimsa yanglig'kim, bir uy tuzgay, birin vayron qilib.
 Tanda ohing shu'lasin, derlar, nihon tut, ohkim,
 Bir ovuch xoshok aro bo'lmas chaqin pinhon qilib...
 Hajr ko'yida yalang jismimni ko'rigan sog'inur,
 Kim meni o'lturgali eltur junun, uryon qilib.
 Xorlar ko'nglumdadur sendinki, gardun tuzmagay,
 Har birin otsam, bir ohim o'qig'a paykon qilib.
 So'rma nevchun bedil o'ldung deb, o'zung chun hajr aro
 Ko'zdin oqizding ko'ngulni, qatra-qatra qon qilnb.
 Shukrini ne deb ado aylayki, aylar jilva yor,
 Elni holimg'a, meni o'z husnig'a hayron qilib.
 Dahr elidin juz jafo mumkin emas topmoq kishi,
 Lek har birga vafolar onchakim imkon qilib.
 Yor ko'p qilsa jafo, kam qil, Navoiy, nolakim,
 Gulga bulbul o'rgata olmas vafo, afg'on qilib.

Chobukum raxsh uza hijron yo'lida po'ya qilib,
 Men aning keynicha gohi yugurub, gah yiqilib.
 Yiqilib yona qo'pub, chunki urub yo'lg'a qadam.
 Vahki, yuz nishtari hijron ayog'img'a tikilib.
 Tobonim dardu balo xoralaridin o'yulub,
 Yuragim ranju ano xoralaridin teshilib.
 Turfa ko'rgilki, inon tortmay ul sho'x dame
 So'ngicha bo'yla qotiqqliq bila holimni bilib.
 Ishq dardig'a juz o'lmak yo'q emish hech iloj,
 Bosh qo'yub ollig'a oningki bu ma'niyni bilib.
 Istaram o'zni xarobot ichida loya'qil,
 Hush chun boisi ranj o'ldi netarmen osilib.
 Gar Navoiyg'a yog'in ashk ediyu ra'd - fig'on.
 Hajr chun koj urubon ko'zlariga o't choqilib.

Yuz to'sho'kluk ko'nglum o'rtarsen jafodin qon qilib
 Xalq kuydurgan kibi zanbur evin vayron qilib.
 Javhari ishq Qing yoshurg'ach o'rtadim ko'nglumg'a dog',
 O'yakim qo'yg'ay nishon el naqdini pinhon qilib.
 Ko'hi ohandek g'amming ko'nglumdin olg'on ne osig',
 Kim yana jonimg'a otding barchasin paykon qilib.
 Yuz o'luk tirkuzdi la'lingga yetishkan jomi may,
 Go'iyo berding oiing har qatrasin bir jon qilib.
 Aqlu din naqdin o'g'urlar go'yi ul ayyorvash,
 Buki behuga aylar elpi husnig'a hayron qilib.
 Bo'lubon har sham'ga parvona kuyma, ey ko'ngul,
 Ishq o'tlug' zulmatida o'zni sargardon qilib.
 Ey Navoiy, dema la'lil tishlar el qatlig'a yor,
 Balki elga jon bag'ishlar, bizga qasdi jon qilib.

Vah, ne qotildur kelur oyini zulmu kin solib,
 Oshiq o'lturmak uchun har qoshig'a yuz chin solib.
 Chun o'tub ishq ahlidin oshubu sabru fahm o'lub,
 Chun yetib zuhd ahlig'a toroji aqlu din solib.
 Har tarafkim, gom urub - yuz porso yo'lin urub,
 Har qayonkim, ko'z solib - yag'movu qatl oyin solib.
 El sorikim yuzlanib - qindin chiqarib tiyg'i kin,
 Chun manga markab surub - boshimg'a tiyg'i kin solib,
 Bu sorig' ruxeora birla qon yoshimdin yod qil,
 Ichsang oltun jom ichinda bodayi rangin solib.
 Sensizin, ey umr, chun mumkin emas oromu sabr,
 Borma har dam bizni mundoq bedilu g'amgin solib.
 Bog'i husnungkim gul ochti rang-rang, ey mug'bacha,
 Go'yo ichting mayg'a bargi lolavu nasrin solib.
 Shar'siz xoshok aro xashxoshdekdur, ey hakim,
 Ko'kka chiqsang jaybing ichra subhayi Parvin solib.
 Dardu g'am qolib, Navoiy joni chiqti oqibat,
 Hajr elindin xonumonin bordi ul miskin solib.

Ishq o'ti ichra har dam kul bo'lurmen o'rtanib.
 Gah-gahi ham telba itlardek chiqarmen churkanib.
 Toblig' gesusiga chirmar meni sargashtani.
 Ko'rmaduk ikki quyun bir tor birla chirmanib.
 Mast bo'lsam ostoning bas manga bosh qo'ygali,
 Ne hadimkim, takya qilgaymen tizingni yostanib.
 Ishqdin ko'p ma'rifat xarj ayladi Majnun manga,
 Bo'lmasa majnun, qilurmu xarj, mendin o'rganib.
 Men kimu gustox o'nmak ilging, ey sulton Husn,
 Itlaringning chun kafi noyin o'parmen aylanib.
 Yordin bo'lmas judo, jonga balo bo'lg'ay ko'ngul,
 Qush balosidekki, ayrilmas kichikdin o'rganib.
 Hajr aro sargashtamen andoqli, to tutqum qaror
 Ish siqlimoqdur, bori olam boshimga aylanib.

Bevafodur chun jahon gulzori, ey ko'nglum qushi,
Bo'lma bir gul volehi, bulbulg'a pogoh o'tkanib.
Yoriga borsa yuz ish bo'lsa, Navoiy tark etib,
Lek qaytur vaqt har soat bir ishga kuymanib.
* * *

So'zi hajring ichra har dam za'flig' jismim yonib,
O'tqa tushgan qil masallik o'ttanurmon to'lg'onib.
Ochqil o'tlug' orazing, ey sham'kim, parvonadek
O'tanay boshing uza bir necha qatla aylonib.
Solg'asen olamg'a o't, gar gul sovug'i tobidin
G'upchadek gulshanga chiqsang hullalarga chirmovib.
Biym erukim ofarinishdin chiqargaysen damor,
Bazmdin usruk chiqib maydonga chopsang otlonib.
Yor ila xo'y aylagan ko'nglum erur ul nay qush,
Kim kishidin ayrpla olmas kichikdin o'rgonib.
Qabrim uzra qo'yg'asiz tosheki, za'f ayyomida
Ul pari ko'yida yotmishmen boshimg'a yastonib.
Moldin umrungga osoyish agar yetmas, ne sud,
Nuh umri hosil etsang, ganji Qorun qozg'onib.
Ey, Navoiy, tushta gar ko'rmaq ani mumkin esa,
Barcha gar xud so'nggi uyquduri, netarsen uyg'onib?
* * *

Ichsangiz may suyidin ishrat uyin obod etib,
Jur'aye ham quyg'asiz tufroqqa bizni yod etib.
Soz eting avval g'amimdin nag'makim, barasl erur,
Uy imorat aylamak xoro bila bunyod etib.
To havoyimen ul oy hajrida andoqkim bulut,
Toqqa har dam yuzlanurmen yosh to'kub, faryod etib.
Va'dayi vasl etsa ul Shirin sanam, g'am tog'ini
Qozg'amen tirnog'larimni teshayi Farhod etib.
Ul quyundurmen fano dashtidakim, bo'lдум adam,
Har ne borimni boshimdin chuyurib, ozod etib.
Har zamon ko'nglum qotiq ermas dema, ey siymbar,
Yoshurun qolmas bulur ichra nihon fo'lod etib.
Voqif o'lkim, dahr dehqoni sening qasdengdadur,
Ismin oning gul qilib, otin munung shamshod etib.
Mayga targ'ib etmaging kofiydurur, ey piri dayr,
Mundin o'zga ishni naylarsen manga irshod etib.
Istama la'lin, Navoiykim, marazda emganur
Tab'in sihhatligh' el sharbat bila mu'tod etib.
* * *

Xorlar bir gul g'amidinkim ko'ngulga butrashib,
Har biri mujgonining bir zaxmi ichra ornashib.
Yo rab, andin sa'broq holat bo'la olg'aymukim,
Ikki hamdam bir-biridin ayirlurda yig'lashib.
Bu uqubatqa talofiy hajr daf o'lg'och budur
Kim, quchushqoylar alar, bir-birga nogah uchrashib.
Istag'aymu huri jannat yonida kavasar suyin
Kimki yori birla bir kun boda ichti yondashib.
Sarv qaddim ishqidin ko'p to'lg'anib men ko'rgali,
Bog' arokim chiqti sarvu ishqnechon chirmashib.
O'lsa o'ldummu degay, ulkim sevar yori bila
Qolsalar xilvat aro, ag'yor har yon tarqashib.
Soqyo, may birla sol jonimg'a andoq shu'lakim,
Ranju mehnat dudi chiqqaylar boshimdan to'lg'ashib.
G'am xazonida to'karmen ashklar, tortib girev,
Navbahor andoqli yog'qoylar bulutlar kukrashib.
Ey Navoiy, bevafo davr ahlig'a indurma bosh
Kim, alar qoshida bosh indurgan el bo'ynun qashib.
* * *

Xushturtur bir tiyra shomi hajr iki yor uchrashib.
Topishib, bir-birlarin mahkam quchushub, yig'lashib.
Hajr dardiyu firoq, anduhig'a taskin bo'la,
O'liturub ulfat bila, bir-birlariga yondashib.

Furqat ayyomida har birning boshiga kelganin,
 Yuz tuman hamdardlig'lар birla har dam so'zlashib.
 Goh vasl iqbolining ishratlaridin shukr deb,
 Gah firoq idborining shiddatlaridin mungrashib.
 Goh ikki rishta yanglig'kim topar bir-birga tob,
 Ikkilik fahm o'lmos'udek bir-biriga chirmashib.
 Gah bu chirmonmog' ochilg'onda ham ikki rishtadek,
 Tob ochilsa qaytara ham bir-biriga to'lg'ashib.
 Ikki yondin qo'l hamoyil berk-berk andoq chekib,
 Kim yana bir-birdin ayrilmas masalliq o'mashib.
 Ayni vasl ichra ishi o'tsa shikoyat mo'jibi,
 Ikki yondin raf' etib, bir-birlarini aldashib.
 Ey Navoiy, bu mahol andishag'a chirmashma ko'n,
 Jur'at aylab betahoshi so'zlarine haddin oshib.

* * *

Bir oy firoqida har tun boshimg'a o't tutoshib,
 Quyoshg'a shu'lа yetib, dudi yetti ko'kdin oshib.
 Chu eltiб ikki tarafdin boshin qulog'ig'a zulf,
 Magarki qatlima har bir sening bila kengoshib.
 O'zini hechcha fahm aylabon uyotqa qolib,
 Ajal firoqing ila o'lтурur uchun o'choshib.
 Quyosh damin ola olmay, kirib qaro yerga,
 Yiqildi, husnda go'yo yuzung bila taloshib.
 Chamanda sarvg'a noz aylamay yarashmay ko'p,
 Valek har ne qilib sarvnozima yaroshib.
 Firoq aro ne tiriklikdurur, xusho o'lgan,
 Visoli torig'a ummed rishtasi uloshib.
 Navoiy ulcha qazodin erur, bo'yin sung'il,
 Kim ulki bosh chekibon, so'ngra kechgasen qoshib.

* * *

Ikki o'tlug' nargisingkim qildilar bag'rim kabob,
 Biridur ayni xumor ichinda, biri masti xob.
 Tiyg' tortib, dam olay-olmay yetishting boshima
 Go'yo xurshid yanglig' yo'lда ko'rguzding shitob.
 Ofarinish baski ahvolimg'a yig'lar har kecha,
 Ashk daryosi erur gardunu kavkablar - hubob.
 Tolpinurmen ashk aro har damki tishlar la'lini
 Kim tengizga tushsa, jon vahmidin aylar iztirob.
 Ranju za'fim bo'l mish andoqqim, so'ra kelgan ulus
 Holim aylarlar, savol, ammo eshitmaslar javob.
 Necha tasbihing hisobi, zohido, ich bodakim,
 Senu mendeklarga xud bu korgahda ne hisob?
 Gar karam daryosining mavji budurkim, chog'ladim,
 Qoni o'z bo'yning'a, kim ishratdin etsa ijtinob.
 Ich, Navoiy, mayki fahm ettuk tabibi ishqdin,
 G'uussavu g'am zahriga taryok emish yoquti nob.
 Xossa bazmikim quyosh jomin shafaq rohi bila
 Elga tutgay xusravi anjumsipohi Jamjanob.

* * *

Labingdin xasta jonkim bo'ldi betob,
 Emas betob, anga erur shakarxob.
 Yoshimdin obro'yum bordi, bildim,
 Ki ravnaqsiz qilur oltunni siymob.
 Doshing hajrida har na'leki kessam,
 Kelur payvasta, jono, shakli mehrob.
 Qilich bog'i beling quchqon hasaddin,
 Ko'zumga ajdaredur shakli qullob.
 Ko'zum ollindadur la'ling xayoli,
 Emas kirpiklarim ustida xunob.
 Firoq ilgi, fig'on, jon rishtasidin,
 Chiqorur tordin andoqli mizrob.
 Falak boshingga qoplab it terisin,
 Sen oni jahldin deb kishu sinjob.
 Ajab yo'q, odamiyliqni unutsang,
 O'zungni bo'yla it charmida asrob.

Navoiy, ranj ko'rma og'zin istab,
Kim ul bir javharedur - asru noyob.

Havo xush erdiyu ilkimda bir qadah mayi nob,
Ichar edim vale g'amdin qadah-qadah xunob.
Ki hozir erdi o'shul sarvi nargisi maxmur,
Valek rag'mima qilmas edi qadahg'a shitob.
Manga ne zahrai ulkim, desamki, bir qadah ich,
Ne onsiz ichgali may, ne qaroru toqatu tob.
Bu g'ussa birla ichim qon bo'lub nechukki qadah,
Ko'zumga har nafas ashk evrulur misoli hubob.
Chu angladiki borur ixtiyor ilgimdin,
Kulub qadah kibi lutf ayladiyu qo'ydi itob.
Qadahni ichtiyu yuz loba birla tutti manga,
Ki oning ichgani-o'q qildi meni mastu xarob.
Chu soqiyl etti qadah ko'zgusida jilvai husn,
Ne ayb, oshiqi mayxora ko'ngli bo'lsa yabob?
Navoiy vasl bihishtida shukr qil bu nafas,
Ki yona chekmagasesen hajr do'zaxida azob.

Doshu yuzungni munajjim chunki ko'rdi beniqob,
Dedi: ko'rkim, qavs burjidin tug'ubtur oftob.
Bir labing jon oldi andoqkim, birisi bilmadi,
Emdikim bildi, arolarida bordur shakkarob.
Gar falak qoshing bila bahse hilolidin qilur,
Bir desa payvasta, jono, eshitur ikki javob.
Gul kibi yuzungda ter fard etti hushumdin meni,
Garchi behush elga hush uchun muqavviydur gulob.
Kim sirishkim ko'rdi, ma'lum etti ishqim hosilin,
Dona birla o'yakim el naqdini aylar hisob.
Garchi ishq o'tida ko'nglumni o'qungga shishlading,
Garm bo'lmakim, hanuz ne six kuymish, ne kabob.
Ne chamandur buki hasrat suyiyu dard o'tidin
Parvarish topmish qayu bir guldakim bor obu tob.
Gar Navoiyning kuyuk bag'rida qondur, ne ajab,
Xomso'z o'lur yolin uzra tushub kuygan kabob.

Bahor elga ayshu manga iztirob,
Kulub holima barqu yig'lab sahab.
Solib tufrog' ustida bir gul g'ami,
Orig'liq sudek jismima pechu tob.
Ketib g'unchadek dog'i nargis kibi,
Og'iz birla ko'zdin manga xo'rdu xob.
Esib xalq sori nasimi visol,
Menga hajr o'tidin yetib iltihob.
Guli vasl agar dahr bog'ida yo'q,
Yetar qatlima hajr xori azob.
Ko'han dayr bedodu zulmi bila,
Darig'oki, o'tdi zamoni shabob.
Chu yo'q vasl, bexudlug' avlodurur,
Qadah davrig'a ayla soqiy shitob.
Ki o'zni qilay necha sog'ar chekib,
Bu dayri xarob ichra masti xarob.
Navoiy, desangkim zamone tinay,
Zamon ahlidin aylagil ijtinob.

Qoni sening kibi olamda dilrabo mahbub,
Ko'z ila qotilu lab birla jonfizo mahbub,
Ne zulm aylasang ahbobqa, xudo yoring,
Chu xalq anlamamish sen kibi xudo mahbub.
Xumori dardi bila hajr mehnatida mango,
Iloj bodadur, oy hamdamu davo - mahbub.
Niyoz ishq sori nozi husn jonibidur,
Agarchi shoh muhib bo'lsau gado - mahbub.

Meni gadoga ne hol o'lg'ay, ey musulmonlar,
 Ki soldi ishq boshim uzra podsho mahbub.
 Rafiqlar o'tungiz dayr ko'yidinki, meni
 Xarob ayladi man dog'i mubtalo mahbub.
 Gar o'lqa ahli muhabbat Navoiy, ey hamdam,
 Vafo kerak anga, qilg'on soyi jafo mahbub.
 * * *

Qon yoshim yo'lungda tommaydur ko'zum giryon bo'lub,
 Kim ayog'ingga tushubtur ko'z qarosi qon bo'lub.
 G'unchadek ko'nglum chekar un g'arq o'lub xunob aro,
 So'z deganda og'zing ikki la'l aro pinhon bo'lub.
 So'rsa Majnun ishq dashtida meni, ayt, ey rafiq,
 Kim quyundek itti bu vodiyda sargardon bo'lub.
 Hajri ko'nglumni buzub, g'am seli hamvor etti, moy,
 Kim asar ham yo'qtur ul ma'muradin vayron bo'lub.
 Tig'i xud o'tti, suubat ko'rki, muhlik yorasi,
 Bu zamon boshimga qolibtur baloyi jon bo'lub.
 Har zamon og'zing xayoli sanchilur ko'nglum aro,
 Go'yo bu g'uncha oni zaxm etar paykon bo'lub.
 Charx ushshoq ohi o'qidin magar vahm ettikim,
 Qubba qildi mehrini o'z hay'ati qolqon bo'lub.
 Hashr xurshidiga moni' fikr qilmassen, ne sud,
 Atlasi gardunsaro pardang'a shodurvon bo'lub.
 Ey Navoiy, foniq o'l yor istasangkim, xo'b emasB
 Jonni sevmaklik bahona o'rtada jonon bo'lub.
 * * *

Qotil ko'zungki o'lтурur elni boqib turub,
 Boqmas manga, ko'zum nechakim tursa telmurub.
 Har qatla it kibi tusharam o'zga raxnadin,
 Har lahzakim meni chiqarur ko'yidin surub.
 Sing'on qadah kibiki, oqar har taraf mayi,
 Qonlar oqib, chu g'am toshi boshimni sindurub.
 Har bir bo'lub bir axtari pahsi chu shomi hajr,
 Chun dudi ohim uchqunini ko'kka yetkurub.
 Ishqing bosh ursa zor tanimdin, emas ajab,
 Hoshok ichinda shu'lani bo'lg'aymu yosurub.
 Andoq latifdur tanikim, ichsa jomi may,
 Borur tanida qursog'iga tegru bilgurub.
 Bulbul parini gulki sovurdi bu bog' aro,
 Day sarsari aning dog'i bargini sovurub.
 Davron eliga kimki vafo no'shi arz etib,
 Ul ham muqobilida jafo neshi yetkurub.
 Bukim qovar jafo bila, ey kosh, ko'yida
 Itlarga to"ma qilsa, Navoiyni o'lтурub.
 * * *

Sahldur to'bi demak, ra'no niholingni ko'rub,
 Yoki jannat bog'i gulzori jamolingni ko'rub.
 Ravzada kavstar qirog'inda xayol ettim Bilol,
 Yuz aro lab, lab uza shabrang xolingni ko'rub.
 Sog'inur oshiqlig'ingga ro'baro' kelmish quyosh,
 Ko'zguda mashshota har soat misolingnn ko'rub.
 Sarvdin bulbul, ne tong, ram qilsa to'bidin malak,
 Jilvai qad holatida e'tidolingni ko'rub.
 Nargising afsunu gulbargin takallum ayladi,
 Aqli kul topti firib, ul makru olingni ko'rub.
 Elga ishratdur yangi oy ko'rsalar, lekin manga
 Yuzlanur oshuftalig', mushkin hilolingni ko'rub.
 O'lтурur hijron tuni, o'lsam ham armon qolmagay,
 Tushta ham bo'lsa bir ayyomi visolingni ko'rub.
 Netting, ey soqiysi, o'zdin bordim andoqkim, zulol
 Olib ichmasdin burun, jomi zulolingni ko'rub.
 Sudra ul yon, ey Navoiy, o'zni muhlik za'f ila,
 Shoyad etgay rahm ul qotil bu holingni ko'rub.
 * * *

Xasta jonio za'fin angla, ko'nglum afg'onin ko'ruba,
 So'rma ko'nglum yorasin, fahm et ko'zum qonin ko'ruba,
 Voslida la'l uza xolin ko'ruba kuygan kibi,
 O'rtanurmen jonda emdi dog'i hijronin ko'ruba.
 Vodiyi sabrim dog'i xoru xasak qildim gumon,
 Ko'nglum atrofida har yon no'ki paykonin ko'ruba.
 Angladim qilmish ko'zi olg'on ko'ngul saydig'a qasd,
 Har tarafdin charge tuzgan xayli mujgonin ko'ruba,
 Yeru ko'kta istabon naydo emas Xizru Masih,
 Qochtilar go'yo dudog'ing obi hayvonin ko'ruba;
 Jism bog'ida ravon shakle tasavvur qildi aql,
 Bo'stoni husn aro sarvi xiromonin ko'ruba.
 Shabnam ermas nargis ashkidur, nedin qon yig'lamas,
 Ko'z yumub ochquncha gulshan umri poyonin ko'ruba.
 Charxdin sidq ahli motam ichradur, fahm aylagil,
 Har sahargah subhning choki giribonin ko'ruba.
 Nomasin, vah kim, ochib solmoq nazar mumkin emas,
 Chun Navoiy hushi zoyil bo'ldi unvonin ko'ruba.

* * *

Un chekarmen ishq aro, bir nargisi jodu ko'ruba,
 Bog'lag'on itdekki, faryod aylagay, ohu ko'ruba.
 Vah, netib mashshotani ollinda ko'rgaymenki, yor
 Aksidin g'ayrat qilurmen, ollida ko'zgu ko'ruba.
 Orazu xoling xayol etkach, yetishti novaking,
 Qildi ul qush mayl, go'yo dona birla suv ko'ruba.
 Chekti bosh xatting labu xoling qoshida, vah, ne tong,
 Gar muloyim bo'lsa to'ti shakkaru hindu ko'ruba.
 Lablari xandon bo'lur, ko'rgach ko'zumda yig'lamoq,
 Ko'zlarim yig'lar, labi jomraxshida kulgu ko'ruba.
 Nosiho, ne nav' mayi jomini og'zimdin olay
 Kim, icharmen, mayda soqiy orazin o'tru ko'ruba.
 Gar Navoiy mufrif afg'on etsa, jono, qilma ayb,
 Sen halok etgan ko'ngul so'gida yig'lar o'kurub.

* * *

Xoki poyi bo'ldi joni xoksorim qon yutub,
 Kim chiqib la'lini o'pgay rishtai zulfin tutub.
 Zulfin ochqonda zanax chohiga tushgay ming ko'ngul,
 Qo'ymasa ul choh uza ruxsori sham'in yorutub.
 Ishq muhriq dashtini qat' aylamak dushvor erur,
 Kirmasam ohim yeli birla havosinsovutub.
 Kuygali rozimenu hajriga yo'q, vahkim, meni
 Ayladi rozi isitmoqqa o'lumdin qo'rqtutub.
 Der emish, bir kun kelib ko'ngli yarosin butkaray,
 Kelsa butgil, ey ko'ngul, bu so'zga xud bo'lmas butub.
 Dahr bo'stonida qilmoq sayr aylab hoyu ho'y
 Harza kezmakdur hayoting qushlarini hurkutub.
 Jomi vaslindinki, elni turguzursen, bil yaqin,
 Kim Navoiy o'lg'usi xunobai hijron yutub.

* * *

Bovujudikim adam bo'ldum g'amidin qayg'urub,
 Hech og'zining so'rog'in la'lidan topmon so'ruba.
 Joiki, qat-qat qon bo'lubtur dog'i ishqing ketmagay,
 Lola bargidek ani bir-bir sovursang kuydurub.
 Novaking ko'nglumda qilmish xona, bovar qilmasang,
 Ko'ksuma ilgingni kelturkim, turubtur bilgurub.
 Ishqidur jon pardasida ravshan ettim, do'stlar,
 Necha kuygamen harir ichinda o'tni yoshurub.
 Barqdek po'yamni ayb etmang, salomat ahlikim,
 Mundoq o'tekim tutoshidur manga, bo'lmas turub.
 Istama tafsinki, shokirmen ne kelsa ollima,
 Shukr qilmay naylay olursen qazoni yozg'urub?
 Chun Navoiy jonig'a marham erur paykonlaring,
 Kosh, yoqsa marhami o'qung yonimga o'lthurub.

* * *

Kuydi ko'nglum shu'la o'tlug' dostonidin tushub,
 Rost ul qushdekki, kuygay o't fig'onidin tushub.
 Boruram uryon tushub tan zaxmidin, nolon ko'ngul
 Ul qalandardekki qolg'ay, zang yonidin tushub.
 Ko'yidin tushgay yiroq ko'nglum erur ovoraye,
 Kim erur devona, ayru xonumonidin tushub.
 Tiyg'i bedoding bila borg'on shahidi ishqning
 Rustaxezi dahr aro har qatra qonidin tushub.
 G'unchasi rangin bo'lub la'li mayidin, o'ydakim,
 O't tutashqay oshiqi ko'ngliga, jonidin tushub.
 Ruhi isyon tufrog'idan avj topmas, o'ylakim,
 Bir malak jurm aylabon oliy makonidin tushub.
 Xoli hajridin Navoiy ko'ngli og'rir, negakim,
 Og'rig'ay elning qaro dog'i nihonidin tushub.
 * * *

Ul pari ishqida yo'qkim meni devona kuyub,
 Yasag'onlar ham o'zin oqilu farzona kuyub.
 Ishq o'tidin kishi bir qatla kuyub bo'lsa xalos,
 Chun yana qaytibon ul shu'la sari, yona kuyub.
 Ishq ko'ksumga chu o't soldi, ko'ngul ham kuydi,
 Chug'z ham o'tanib, ul o'tqaki vayrona kuyub.
 Yuzidin o'tanibon talpinur ollida ko'ngul,
 Sham' ayog'ida urung'on kibi, parvona kuyub.
 Oyki so'rdungki, qachon kuydi buzug' ko'nglum uyi,
 Orazing barqi chaqilg'onda, bu koshona kuyub.
 O'tanib aqlu ko'ngul, ishq chu aylab tug'yon,
 Andakim barq tushub, oqilu farzona kuyub.
 Chun Navoiy chekib ul oy g'amidin shu'lai oh,
 Oshno kul bo'lub ul o'tdinu begona kuyub.
 * * *

El pariyo hurni degay gumon qilg'oncha xo'b,
 Lek erur huri parizodim mening yuz oncha xo'b.
 Davr ichinda fitna ham ko'p, xo'b ham behad, valek
 Bo'lmagay mingdin bir ul sarfitnai davroncha xo'b.
 Kun bila tun yuz bila xattingcha xo'b ermas yaqin,
 Bo'lsa bu gulshanda bo'lg'aylor gulu rayhoncha xo'b,
 Husniga ushshoq agar mencha halok ermas ne ayb,
 Kim, kishi ul yuzni ko'rmabdur meni hayroncha xo'b.
 Husnidin to'nmg' emas mumkinki, behad xo'b erur,
 Ko'yg'oy erdim, bo'lsa erdi Yusufi Kan'oncha xo'b.
 Ey ko'ngul, Farhod Majnun bo'lg'ay erdi bizcha zor
 Bo'lsa erdi Layliyu Shirin bizing jononcha xo'b.
 Buki tarki ishq etarlar va'da yolg'on qilsa yor,
 Qilsa bo'lmas, bo'lsa yor ul va'dasi yolg'oncha xo'b.
 Ey ko'ngul, huru pari vasfin eshittim, go'iyo
 Hech qaysi odamilig'da emas insoncha xo'b.
 Ey Navoiy, ko'yining xori ko'zumga gulcha bor,
 Kim, erur ollimda ko'y'i ravzai rizvoncha xo'b.
 * * *

Ulki boshtin to qadam bor onchakim imkoni xo'b,
 Sad'yaki bo'lg'ay birikim, xalq derlar oni xo'b.
 To'ksa qon ul kofir, o'zga xo'bni sevgil demong,
 Ey musulmonlar, jahonda bir aningdek qoni xo'b.
 Huri jannat shaklidin ham dilrabo husnung latif,
 Xuldi rizvondii dog'i ko'yung sarobo'stoni xo'b.
 Jonni jonon istasa, qilmoq taallud xo'b emas,
 Naylasun jon, ulki, bo'lg'ay sen kibi jononi xo'b.
 Husn ofatdin emas xoli, bu damkim xo'b sen,
 Sa'y qil, jonoki, o'tsun xo'bluq davroni xo'b.
 Ko'z gunohi ko'rmaking erdiki, to'ktung qon yoshin,
 Xo'b emas, jono, to'kulmak begunahlar qoni xo'b.
 Ey Navoiy, g'ayr rashkidin visoli bazmida
 O'yladurmenkim, ko'runubtur manga hijroni xo'b.
 * * *

Ey, sanga yuz xo'bu lab xo'bu labingdin kulgu xo'b,
 Har nekim voq'i bo'lur sendin ko'zunga asru xo'b.
 Deding ul oy vasfin, ey roviy, yana so'z demagil,
 Xo'blardinkim so'zung erdu bu yerga tegru xo'b.
 Xo'blar qul bo'ldilar, lekin parilar qochtilar,
 Olam ichra odamiy bir sencha bor erkinmu xo'b.
 Xo'blarni arz qildim qilmadi ko'nglum pisand,
 Oni ko'rgach ixtiyori qolmayin dedi bu xo'b.
 Vaslida jonimg'a hajridin ne kelganni demon,
 Kim farah bazmida zikr etmak emastur qayg'u xo'b.
 Javru lutfu kibru noz andin ko'ngulga xo'b erur,
 Haq azalda zotini aning yarotibdur chu xo'b.
 Sof qil xotirki, solg'ay aksi ul yuz yaxshikim,
 Ko'rguzur yuzni qachonkim ravshan o'ldi ko'zgu xo'b.
 Ey ko'ngul, borsang ul oy nazzorasig'a zinhor
 Ashk birla ko'zlarining g'ayrining naqshin yuv xo'b.
 Xo'blarni ko'rmasa sensiz Navoiy qilma ayb
 Kim, ko'runmaydur ko'ziga kimsa sendin ayru xo'b.

* * *

Ohkim ul oning begona bo'ldi oqibat,
 Hajridin bexudlug'um afsona bo'ldi oqibat.
 Aqlu donish lofini urg'on ko'ngul yig'lay yuruy,
 Ul parivash hajrida devona bo'ldi oqibat.
 Qatra-qatra shodlig' ashkinki sochtim vaslida,
 Barcha hijron qushlarig'a dona bo'ldi oqibat.
 Borgoli ul husn ganji g'am buzug' ko'nglumdadur,
 Ajdaho uyi bizing vayrona bo'ldi oqibat.
 Soqyo, may tutki, hajr anduhidin men telbani
 Forig' etgan sog'aru paymona bo'ldi oqibat.
 Chekma un ohim ko'r, ey Majnunki, Layli ko'p fig'on
 Chekti, o'rtangan vale parvona bo'ldi oqibat.
 Butqa gar bosh qo'ymadim ko'rgilki dinim tuhfasi,
 Dayr piri ollida jurmona bo'ldi oqibat.
 Deding avvalkim Navoiy, seni gah-gah turguzay,
 Hech bilmonkim sanga, jono, na bo'ldi oqibat.

* * *

Bahor el gulga moyil, bag'rima yuz xor har soat,
 Yetib har xordin ko'nglumga ming ozor har soat.
 Bu aqshom notavon ko'nglumdin, ey ahbob, o'lung voqif
 Ki, holidin borur za'f aylab ul bemor har soat.
 Bo'lurmen o'yakim, ko'rgan zamon vayron bo'lub ko'ngli,
 Boshimda yig'lag'ay ham yoru ham ag'yor har soat.
 Emas vayronada har dam o'lardek holatim, vahkim,
 Turubtur boshima yemrulgali devor har soat.
 Damo-dam za'fim andindurki, mujgoning xayolidin
 Jarohatlig' ko'ngulga sonchilur bir xor har soat.
 Jununum har dam afzun bo'lsa, ey hush ahli, tong yo'qkim,
 Ko'zunga jilva aylar ul pari ruxsor har soat.
 Mayi la'lingg'a ne kayfiyat erdikim, nasimidin
 Bo'lurlar mastu bexud yuz tuman hushyor har soat.
 Bu bazm ichra ne amnu ayshkim, har davr ayog'inda
 Yiqar bir notavonni gumbazi davor har soat.
 Fano dayrida gar may vajhi yo'q, bas xirqau daftar,
 Meni manxonadin sudratma, ey xammor, har soat.
 Agar boshimg'a yog'sa tosh gardundin, tong ermaskim
 Borurmen ul nari ko'yiga majnunvor har soat.
 Navoiy, to jahon ahlig'a sen vobasta, ko'ngronma,
 Alar javridin o'lsa xotiring afgor har soat.

* * *

Tanimg'a berdi jol ul naxl qomat,
 Dema qomat ani, degil qiyomat.
 Vafog'a mayl qilmas naxli qadding,
 Ki, topmish javr aro ko'p istiqomat.
 Yuz ochma, garchi tutqon ko'rsa ma'zur,
 Meni ishqingga arbobi malomat.

Ne g'am gar yuz meningdek o'lса, yo rab
 Ki, bo'lсun ul masihodam salomat.
 Abad umricha bor ollida o'lmak,
 Buyurma, ey pasihatgo', nadomat.
 Nedur, ey shayx, ushatmoq sog'arimni,
 Butun qil, bor esang ahli karomat.
 Navoiyni, deding ko'yumdin o'tma,
 Salomat bo'l, desang aylay iqomat.

* * *

Tiyra kulbamga kirib, jono, o'lumdin ber najot,
 Zulmat ichra Xizrg'a ul nav'kim obi hayot.
 Soda ko'nglum ichra la'lingning xayoli tushgali,
 Shishayedurkim aning ichiga solmishlar nabol.
 Orazing mehrida og'zingdur gadolig' qilg'onim,
 Haq seni xurshid qilmish, zarraye bergil zakot.
 To ko'nguldin bosh chiqarmish har taraf paykonlaring,
 Qush bolasidek bo'lubturkim, bo'lur temurqanot.
 Vasl umidiga tilarmen umr, lekin, voykim,
 Sensizin ko'rsam tirikmen, o'lтурur meni uyot.
 Istanasangkim, ul quyosh chiqqach sanga qilg'ay tulu',
 Ey ko'ngul, g'am seli yetgach tog'dek tutqil sabot.
 Ishqing o'tin gar, Navoiy, desakim aylay raqam,
 So'zidin kuyar qalam, qurur qaro, erir davot.

* * *

Jahdim andoqdur yetishgaymenmu deb vaslingga bot,
 Kim qabul etmon og'ir deb chiqsa egnimdin qanot.
 Sabr tog'i birla qilmoq po'ya bo'lmas, ey ko'ngul,
 Tashla ul yukni yetishmak istasang vasliga bot.
 Shahsuvorimning buroqi po'yasidin qoldi barq,
 Kim aning fe'li shitob ermiss, munung rasmi sabot.
 Ko'p Masihodin dam urma, qil hayotingni tufayl -
 Angakim topmish Masih oning tufaylidin hayot.
 Mehr yuz ko'rmay o'chashti pardadin chiqqach yuzung,
 Olg'ali qo'ymas sorig' yuzin qaro yordin uyot.
 Chun yudi ko'zlar savodin ashk, yorut yuz ochib,
 Kim diramsiz elga boy el farzdur bermak zakot.
 Ey Navoiy, xoki poyi vasfida shirin so'zung
 Bor biaynih to'tiyo ichinda solg'ondek nabol.

* * *

Ey ko'ngul, yor o'zgalar domiga bo'ldi poybast,
 Senga mushkul holatu bizga qatiq ish berdi dast.
 Vasl torin chekti ul, men dog'i chektim, ohkim,
 Rishtani uzdiyu bo'lдум ajz tufrog'iga past.
 Necha bosh qo'yдум yo'lig'a, vahki, qildi poymol,
 Za'filiq jismimg'a zulfi toridek solib shikast.
 Zahra yo'q, mujib so'rarg'a bo'lmasun, yo rab, kishi
 Muflisu oshiq, sevar dildori - mustag'niyu mast.
 Soqijo, bu ishga bexudlug'din o'zga yo'q iloj,
 Mujda mug' ko'yig'a yetkurgilki, bo'lдум mayparast.
 G'arq o'lay may bahri ichra rost ul g'oyatqacha,
 Kim solib bo'zg'um aro chekkay ajal qullobi shast.
 Ey Navoiy, jurm uzri dashtida qil po'yakim,
 Yaxshi ermas zuhd zanjirig'a bo'lмog' poybast.

* * *

Yor bo'lmoq tong emas men zori rasvo birla do'st,
 Kim pari gohi bo'lur majnuni shaydo birla do'st.
 La'lini sevdum, ko'zining qatlidin qayg'urmog'um,
 Ne g'am o'lmaqtin, kishi bo'lса Masiho birla do'st.
 Bodapaymo zohid o'lса dushman, ermastur g'amim,
 Menki bo'lдум bir harifi bodapaymo birla do'st.
 Zulfi savdosi bu savdoi boshinda ko'pturur,
 Bo'lса savdo ahli, tong yo'q, ahli savdo birla do'st.
 Sarv qadliq guljabinlik do'stning ayvonida
 Bo'lмog'um ne gul bila, ne sarvi ra'no birla do'st.

Hajrdin olam qorong'udur vale, g'am yo'q, gahe
 Jilva qilsa ul jamoli olamoro birla do'st.
 Xizr yuz mehr ila tutqon jomi Jamdin yaxshiroq,
 Titsa may durdini yuz toroju yag'mo birla do'st.
 Bo'lma dunyodo'st, gar istar esang osudalik,
 Lek har ne qilsalar, bo'l ahli dunyo birla do'st.
 Ey Navoiy, necha dushman bo'lqa, yopma do'stdin,
 Chun sanga bo'lmishtur ul yuz ming tamanno birla do'st.
 * * *

Voykim, dushmandek o'ldi ahdidin begona do'st,
 Dushmanim o'ltursa ahd ettimki tutmay yona do'st.
 Sog'arimda zahru sahro uzra po'yam shiddatin
 Bilmas ulkim, bor anga hamkosau hamxona do'st.
 Jon qushi o'rtandi sevgach yorning o'tlug' yuzin,
 Naylagay kuymay, chu bo'lg'ay sham' ila parvona do'st.
 Vodiyi hijronda ag'yorig'a yor o'lдум ne tong,
 Gar bo'lur g'uli biyoboniyl bila devona do'st.
 Do'stluq jonondin istarmen manga olam eli
 Dushmani jon bo'lqa bo'lsun, bor esa jonona do'st.
 Ahli din paymonshikandur, qilsa bo'lmas do'stluq,
 Bas manga mug' dayrida ulkim tatar paymona do'st.
 Zulfiga tushsa Navoiy xoli shavqidin ne tong,
 Domdin yo'q chorasi har qushki bo'lg'ay donado'st.
 * * *

Soqyo, hijron tunidur, boda tut,
 Ul quyosh birla bu shomimni yorut.
 Hajridin asru malolatdur manga,
 May bila bir lahma ko'nglumni ovut.
 Jom davri lam'asin barq aylakim,
 Chiqti mag'rib tog'idin mushkin bulut.
 G'am tuni ham tiyra, ham poyoni yo'q
 Oh o'tin chek, subhning sham'in yorut.
 Ul quyosh hajrida andoqkim shafaq,
 Charx tiyg'i zulmidin xunoba yut.
 Olam ahlidin yetishmas g'ayri zaxm,
 Ey jarohatlig' ko'ngul, bu so'zga but.
 Bo'lqi furqatdin Navoiy tiyraro'z,
 Soqyo, hijron tunidur, boda tut.
 * * *

Ey ko'ngul, yor firoqida labolab may tut,
 Dam-badam la'li xayoli bila xotirni ovut.
 Jonu ko'nglumni bir o'pmoqqa tilarsen unomon,
 Ortuq ayla adadin, yo'qsa bahosin o'ksut.
 Ko'zu ko'nglung domayin borgali bo'l mish tiyra,
 Vasl sham'i bila ul tiyra vatanlarni yorut.
 Vah, necha bizni sog'inmog'ni unuttung bir ham,
 Yo sog'inmoqni sog'in yoxud unutmog'ni unut.
 Ko'z firoqingda oqardiyu sirishki qurudi,
 Yomg'uri bo'lmas, agar ayni bayoz o'ldi bulut.
 Aylasa xotiringg'a tafrifa qushlari hujum,
 Zikr o'ti dog'i riyoza toshi birla urkut.
 Ey Navoiy, meni zor ayladi bir lo'livash,
 Kim ham arlot unut bo'lqi manga, ham bilgut.
 * * *

Navbahor o'ldiyu men hajrida, soqiy, may tut,
 Toki yig'lay qilibon arbada andoqli bulut.
 Hajrdin abri bahori kibidur tiyra ko'zum,
 Ko'z yumub ochquncha, ey barqi visol, oni yorut.
 Sen sumanbarsenu men lola kibi qon arokim,
 Doyai dahr beribtur manga qonu sanga - sut.
 Hajar anduhida men, soqiy, ul oydin so'z deb,
 Meni bir-ikki to'la sog'ari may birla ovut
 Iki la'lingni o'pay doti baho jon berayip,
 Gar baho o'ksuk eoa sen dog'i iisfip o'ksut.

Boda chun boisi nisyon emish oncha ichayin.
 Kim, manga har neki juz yordurur bo'l sun unut.
 Ey Navoiy, manga bas ul sanami lo'livash,
 Bekka qipchoqu og'ar, shahga qiyotu bilgut.
 * * *

Tutti ko'k feruzagun jomini shingarfi bulut,
 Soqyo, nilufari jom ichra gulgun boda tut.
 Charx davri chun malolat boisidur, necha kun
 Charxdek jomu shafaqgun may bila o'zni ovut.
 Tonsa kunduz kun shio'idin zamiring tiyraliq,
 Kecha bori may quyoshidin zamiringni yorut.
 Chun unutqungdur sen elni, el seni, bori chekib
 Aysh jomin, bu unutmog'larni bir soat unut.
 Nosiho, chun umr o'tar, qo'ykim, bo'lay ishrat bila,
 Aysh tarkin kim buyurdi, o'ktadur bu nav' o'gut.
 Gar zuloli vasl, ey solik, qilursen orzu,
 Xotiringni orzular o'tidin avval sovut.
 Ey Navoiy, chiqti chun rangin bulut, rangin may ich,
 Kim, sen o'lmay, qilg'usi ko'p jilva bu rangin bulut.
 * * *

Vujudum o'tadiig, ey ishq, emdi tarkim tut,
 Xudoy uchunki, meni qayda ko'rdung, anda unut.
 Ko'ngulni vasl charog'i bila, deding, yorutay,
 Tutoshti chun bizning uy, emdi o'zga uyni yorut.
 Chu vasl kuymak ila hosil o'ljadi, ey ko'z,
 Tahassur ashki bila shu'laliq ko'ngulni sovut.
 Jununi daf'ig'a ko'nglumni dog' etay debsen,
 Bu dog' sahldurur, hajr dog'idin qo'rqt.
 Buxori ohim erur loyiq anglagil, ey ashk,
 Bahori husniga nogah keraklik bo'lsa bulut.
 Ne voqi' o'lsa chu taqdirdin emas xorij,
 Bas o'ktadur qiluridin kishiga bermak o'gut.
 Navoiyo, bu o'tar olam ichra besh kun qil
 O'zungni may bila mashg'ulu ishq birla ovut.
 * * *

Kelgil, ey qurban ko'ngul, ul qoshi yo mehrin unut,
 Chun vafodin tortilur, sen ham borib bir go'sha tut.
 Chunki ul bizni unutmog'ni sog'indi yaxshi ish,
 Sen dog'i, kel, bir nafas oni sog'inmog'ni unut.
 Ul quyosh har dam bo'lur bir zarra birla garm mehr,
 Mehr sham'in sen dog'i bir o'zga oy birla yorut.
 Hayf erur har sho'xi ra'no yuziga chun pok ishq,
 Shavq o'tin, kel, sen dog'i bu ishvagarlardin sovut.
 Ey pari, bir telba gar ovora bo'ldim g'am yema,
 Odamiyyashlar bila nozuk mijozingni ovut.
 Gar ko'zum yoshiga ul gul multafit bo'lmas, ne g'am
 Gul bulutdin tozadur, serob emas guldin bulut.
 Dahr bog'ida giyohi mehr hargiz butmadi,
 Gar desangkim ko'rmayin bemehrlik, bu so'zga but.
 Shahdi ishqning zahr etar gardun, sen ushbu jomdin,
 Xoh komingni ochit, xohi mazojingni chuchut.
 Tark qil, sen ham Navoiydekk havosin, ey ko'ngul,
 Yoki har dam bir taraf maylin ko'rub, xunoba yut.
 * * *

Ul malaksiymoki solmish husnidin olamg'a o't,
 Qayda qo'yg'ay solmayin jinsi bani odamg'a o't.
 Charx uza xurshid emaskim, bir quyosh hijronidin,
 Shu'lai ohim solibtur bir biyik toramg'a o't.
 Bazm aro qo'y mang meni, ey ishrat ahli, zinhor
 Kim, g'amim barqi solur yuz xotiri xurramg'a o't.
 Har damim bir o'tlug' oh o'lsa, taajjub qilmangiz:
 Hajr so'zidin tutoshibtur bu issig' damg'a o't.
 Zulfi sohirdurki, o'tluq orazi uzra tushub,
 Solmadi yuz shu'lasi ul turrai purxamg'a o't.

Ko'kta ul shakli mudavvarkim, ko'rubsen, shu'laliq,
 Tushmish ul yuz lam'asidin nayyiri a'zamg'a o't.
 Zaxmlig' ko'nglum o'tig'a marham etmas naf'ikim
 Yoradin momuqqa, momuqdin tushar marhamg'a o't.
 Dayr ichinda durd ichar sing'on safolim rashkidin,
 Otashin may lam'asidin tushti jomi Jamg'a o't.
 Hajr so'zidin degoy nazming, Navoiy, bo'ylakim,
 Tutti olamni ajab gar solmag'ay olamga o't.

* * *

Lolazor ermaksi, ohimdin jahonga tushti o't,
 Yo'q shafaqkim, bir qiroqdin osmonga tushti o't.
 Dedilar, el xonumonin o'tar ul ruxsor o'ti,
 Bu so'z eshitkach meni bexonomong'a tushti o't.
 Orazingning lam'asi kuydurdi sabrim xaylini,
 Barqi ofat choqilib ul korvonga tushti o't.
 O'qlaring ko'nglumga tushgach kuydi ham ko'z, ham badan,
 Kim kuyar o'lub qurug' chun naysitong'a tushti o't.
 Sovurub gul xonumonimma quyun rangin ekin,
 Yo falak bedodidin sarvi ravong'a tushti o't?
 Kuydum ul damkim, yuz ochding xalqni kuydurgali,
 Elga o't solding vale, men notavonga tushti o't.
 Ey Navoiy, bilki ohi chekmisham beixtiyor,
 Desalarkim, beshai Mozandaronga tushti o't.

* * *

Ey, sanga qad rost, lekin turrai terror kaj,
 Kim ko'rubtur sarv ila sunbulni bu miqdor kaj?
 Rostlarg'a rostlig'dur ish magar, ul mastning
 Qomatikim rostdur, lekin anga raftor kaj.
 Qiblai din orazingdur, kufr tori sunbulung,
 Ne ajab gar qibla tuz bo'lsa, vale zunnor kaj.
 Rostlar boshini tufrog' aylasa raxshi ne tong,
 Ulki qo'ydi mastlig'din bosh uza dastor kaj.
 Ishq aro ko'nglum tuzatkim, rost solgay aksi yor,
 Ko'zgu egri bo'lsa, solur aksing ruxsor kaj.
 Egridin juz egrilik hargiz asar bo'lmas ayon,
 Kim solur albatta soya naxli nohamvor kaj.
 Qolibon zulfung aro topti Navoiy jismi tob,
 Naylagay bo'lmay tanob ichra uzulg'on tor kaj.

* * *

Ey, gadoyingning gadoyi barcha ahli taxtu toj,
 Kim gadoyingdur, anga yo'q taxt ila toj ehtiyoj.
 Ko'zlarin oz jurm uchun qilsa itob, ermas ajab,
 Bor muayyankim, bo'lur bemorlar nozikmizoij.
 Gar sanubar tuzmamish sarving xilofin ko'nglida,
 Yel chinor ilgi bila nevchun urar yuziga koj?
 Eyki, ko'nglumni buzub, dersan, xayolimni chiqor,
 Hech kim vayronadin ganj istamas hargiz xiroj.
 Sen jafo qilg'och, ko'ngul jon birla tarkim tuttilar,
 Bo'lsa shah zolim, el ichra zulmga ermish rivoj.
 Hajrdin dod istadim, deding, sabur o'l, voykim,
 Toza dog'imga yonar o't birla aylarsen iloj.
 Chun fano gardi yopar, ne sud, taxtu johingga,
 Ko'knning anjumdin mukallal atlasis qilsang duvoj.
 To gadoyingdur Navoiy taxt ila toj istamas,
 Ey, gadoyingning gadoyi barcha ahli taxtu toj.

* * *

Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach,
 Sham' ravshanroq bo'lur torin parishon aylagach.
 Yuzni gullardin bezabmu bizni qurban aylading,
 Yo yuzungga tegdi qonlar bizni qurban aylagach?
 Tiyg' ila paykonlaring yetti ko'ngul bo'lg'och xarob,
 Suv quyub tuxm ekting ul kishvarni vayron aylagach.
 Qon emaskim yopti gulgun hulla jannat xozini,
 Ishq maqtulin shahid aylarda uryon aylagach.

Oshkor aylab yuzin ko'zumni hayron ayladi,
 Yoshurun oldi ko'ngul ko'zumni hayron aylagach.
 Jonda qo'yg'och naqdi ishqin qildi ko'nglumni halok,
 O'lтурur mahramni sulton ganj pinhon aylagach.
 Ey Navoiy, ishq agar ko'nglungni majruh etmadi,
 Bas, nedurkim qon kelur og'zingdan afg'on aylagach?!
 * * *

Chiqtı jon, qoshima jonon kirgach,
 Kim halok o'lg'on ekin jon kirgach.
 Keluringga yasadim ko'nglum uyin,
 Yasalur kulba, chu mehmon kirgach.
 O'zni asrarmanu ko'nglum chekar oh,
 Nogah ul sarvi xiromon kirgach.
 Ohdin shu'lа yetishkandek erur,
 O'qidin ko'ngluma paykon kirgach.
 Yuz junun shu'lasi aylar paydo,
 Ul pari ko'ngluma pinhon kirgach.
 Dahr uyi ichra iqomat tilama,
 Chiqmamoq anda ne imkon, kirgach.
 Borma ko'yiga, Navoiyki, qochar
 Yor sen telbai uryon kirgach.

* * *

Tushkali ul dilraboning turrasi torida pech,
 Turra toridek tushubtur ko'nglum atvorida pech.
 Zulfi tobidin jununungnung yuz oncha pechi bor,
 Kim nazar soldim: jununum daf'i tummorida pech.
 Hajr dashtida meni sargashtaning to'lg'onmog'i,
 Aylagandektr quyun jismi namudorida pech.
 La'lingu zulfung xayolidin meni - dilxastani
 Notavon jonida anduhu tani zorida pech.
 Soqyo, ul sho'xning jomin riroyat aylagil,
 Kim buzulmish, may chiqib boshig'a, dastorida pech.
 Vahki, ul kofir asirining ishida kufrdin,
 Pechlardur onchakim, yo'q oncha zunnorida pech.
 Olam ahlig'a ne tong sargashtalig' nevchunki bor,
 Charx pargorida davru, davron ahlining
 Rostravlar go'sha tuttilarki, davron ahlining
 Bordur atvorida pech, andoqli guftorida pech.
 Chun Navoiy yor zulfi vasfida ko'p chirmashur,
 El taajjub qilmasun, ko'p etsa ash'orida pech.

* * *

Jamolin vasf etarmen hamdamim ul gul'uzor o'lg'och,
 Quruq shox o'yakim zohir qilur gullar bahor o'lg'och.
 Qoshin ko'rgach hasaddin istaram el ko'zi bog'lang'ay,
 Nechukkim ko'z tutarlar el yangi oy oshkor o'lg'och.
 Junun ermas kiyiklar suhbati dermen manga shoyad,
 Bir o'q tekkay g'alat ul qoshi yo garmi shikor o'lg'och.
 Havas ishq aylagan ozoda kechgil bu xayolingdin,
 Ki chiqmas bu tikan ko'nglungda nogah ustivor o'lg'och.
 Dey olmas dard ila ittim vale bilgilki, chekmishmen,
 Bir ohe barcha olam g'ussa dudi birla tor o'lg'och.
 Qilib man'i jununum ul pari ko'yiga yuzlangay,
 So'zi hashv erkanin fahm aylagay beixtiyor o'lg'och.
 Qani Hotam, qani Qorun, qani Jamshidu Afridun?
 Bas ehson qil sanga gardundin adno e'tibor o'lg'och.
 G'ururi jahl jomi birla mast o'lmoki, o'lmakdur,
 Maozallah, bu mayga charx davridin xumor o'lg'och.
 Navoiy sham'dek yig'lab kuyub holimni sharh aylay,
 Ul oy bazmida bir tup rost oshiqlarg'a bor o'lg'och.

* * *

To'lg'adi sabrim, qo'lin zohir qilib dildor kuch,
 Garchi nozukdur va lekin bor anga bisyor kuch.
 Ishq uylarni yiqrar, oshiqqa kin qilmoq nodur,
 Mo'r xayliga qachon pil aylamish izhor kuch.

Qosh agar budur, sening yoyingni chekmak sa'b erur,
 Kimsa ilgida chu maqdur ermas ul miqdor kuch.
 Ko'zlaring bedodi jon birla ko'ngulga tong emas,
 Ne ajab, din ahliga gar ko'rguzur kuffor kuch.
 Za'f aro ul ko'ydin sudrar qo'lum tortib raqib,
 Banddin oyirg'udekdur qilsa nohanjor kuch.
 Soqiyo, men xastadin badmastlig' ermas ajab,
 Ko'rguzur ko'proq zaif elga mayi xammor kuch.
 Ishq aro andoq zabundurmenki, aylarlar manga
 Ham gado, ham shoh, kuch, ham yoru ham ag'yor kuch.
 Sog' ekanda hajr aro kuch birla o'zni asraram,
 Lek may ichkanda aylar yig'lamoq bisyor kuch.
 Kuch bila o'lurdil ul zolim Navoiy xastani,
 Necha torta olg'ay oxir bir zaifi zor kuch.

* * *

Bahor sensiz o'lubtur manga ajab do'zax,
 Qizil gul anda o'tu oq shukufalardur yax.
 Bahor sensiz agar do'zax o'lsa tong ermas,
 Behisht ichinda liqo bo'lmasa erur do'zax.
 Xayoli xayli ko'zumga kelurgadur go'yo,
 Yuzumki yo'l-yo'l o'lubtur sirishkdin rax-rax.
 G'arib kelmadi shirin labingga achchig' so'z,
 Emas g'arib chuchuk meva bo'lsa xastag'a talx.
 Ko'ngul fano kuchidin zo'rbozu istarkim,
 Vujud panjasini anglamish bag'oyat shax.
 Navoiy egni yalangdur demangki, bordur anga
 Fano hasiri, balo xorasi nasij ila nax.
 Magar shah ashhabi ollinda payk bo'ldi sipehr,
 Ki qilmish o'n kechalik oyni egnida pochax.

* * *

Meni ishqdin man' etar soda shayx,
 Dema soda shayx, aytkim loda shayx.
 May ustidagi xascha qilma hisob,
 Agar suv uza salsa sajjoda shayx.
 Yorug'luq emas mumkin andinki, bor
 Zalolat tariqida aftoda shayx.
 Riyo bahri ichra tama' zavraqin
 Solibtur asodin tutub xoda shayx.
 Yoyar domi tazvir el saydig'a
 Qilib subhadin dona omoda shayx.
 G'azabda sabu' shahvat ichra bahim,
 Agarchi erur odamizoda shayx.
 Kirar odami sonig'a qilcha no'sh,
 Fano dayrida bir qadah boda shayx.
 Irodattin o'lgoj edim bandasi,
 Agar topsam erdi bir ozoda shayx.
 Eranlardin o'zni tutar garchi bor,
 O'kush zebu ziynat bilan moda shayx.
 Navoiy tilar soda yuzluk yigit,
 Ne g'am gar oni man' etar soda shayx.

* * *

Ul parivash hurning men telbadek shaydosi cho'x,
 Ne ajab, gar bo'lsa olam mulkida g'avg'osi cho'x.
 Ey ko'ngul, mumkin emastur vasl, nevchunkim, erur
 Sabr hushum ozu oning nozu istig'hosi cho'x.
 Men gado naylab sochi mushki xaridori bo'lay,
 Kim erur shahlar dimog'inda aning savdosi cho'x.
 Armanidur go'yiyo ul sho'x kofir turkmon,
 Kim yetar din mulkiga kofir ko'zi yag'mosi cho'x.
 Dilrabolig'ning libosi cho'xasidur go'yiyo,
 Kim oni kiygoch, ko'ngul olur qadi ra'nosi cho'x.
 Qiymati ajnosidin chun shadda bog'lar haft rang,
 Husni bozori aro zohir bo'lur kolosi cho'x.
 Sollonib chun jilva aylar, xalqni vola qilur,
 Ham qadi ra'nosi, ham andomi ruh afzosi cho'x.

La'lidin kom istaram, ne chora, yetsa ko'ngluma
 Kirpikining nayzasidin zaxm ila izosi cho'x.
 Bas bahodirvash erur, lekin muloib ham erur,
 Kim Navoiy ko'ngliga tushmish aning vasvosi cho'x.
 * * *

Meni havosida devona ayladi ul sho'x,
 Jununu ishq ila afsona ayladi ul sho'x.
 Pari kibi chiqibon hushu aql g'orat etib,
 Nihon o'lub, meni devona ayladi ul sho'x.
 Ushatti shishau, jomu qadahni bazm ichra,
 O'yun tariqini tiflona ayladi ul sho'x.
 Qulq solingki, xarobot ichra g'avg'odur,
 Magar azimati mayxona ayladi ul sho'x.
 Qadahg'a xirqam etib rahn, vahki, subhamni
 Qimor aylagali dona ayladi ul sho'x.
 Chu oldi o'ynog'oli naqdi hushu sabrimni,
 Yana topilmadilar - to na ayladi ul sho'x.
 Qilib Navoiy ovorani jaloyi vatan,
 Balou dardg'a hamxona ayladi ul sho'x.
 * * *

Tong emas, gar bo'lsa har sarvi pariruxsor sho'x,
 Lek erur sarvi pariro'yum mening bisyor sho'x.
 Gar mening sho'xi sitamkorim narivod o'lmasa,
 Mumkin ermas odamiy bo'lmgog'lig' ul miqdor sho'x.
 Turmasa qon bu kecha ko'ksum shikofidin, ne tong,
 Kim erur ko'nglumga kirgan chobuki ayyor sho'x.
 Vah, ne tong har lahza betoqatlig'imkim, dilbarim
 Bovujudi husn ham shirin erur, ham bor sho'x.
 To yetishgay jomni kuydurgan ko'ngulga yuz balo,
 Shukr etarmenkim, nasib o'l mish manga dildor sho'x.
 Sho'xlardin tuz qadam qo'yemoq chu kelmas, voqif o'l,
 Kim sitamgar chobukedur charxi kajraftor sho'x.
 Gar desangkim, jong'a yetmay har zamon bir javrdin,
 Ey Navoiy, nand eshit, yor istama bisyor sho'x.
 * * *

Dilrabolar gar ko'ngul olmoqdadurlar asru sho'x,
 Lek dildorim erur bu sho'xlardin ayru sho'x.
 Sho'xlardin ba'zi olsa jonu ba'zi bersa jon,
 Sen qilurken ikkisin, vah, sen kibi bo'lq'aymu sho'x.
 Sho'xluqtin har dam ul tifl aylar o'zga nav' noz,
 Ko'ngli istar ne qilur xo'beki, bo'lsa tiflu sho'x.
 Gah kirar ko'zdin ko'ngulga, gah ko'nguldin jon aro,
 Tutmasa orom, tong yo'q, nozanin, bo'ldi chu sho'x.
 Sho'xlar ichra biri ko'nglum olibdur, voykim,
 Desalar: "De qaysi sho'x olmish?" Deyolmonkim: "Bu sho'x!"
 Gar namozim sahv bo'lsa har dam, ey zohid, ne tong
 Kim, erur mohimki, oning o'l turubtur o'tru sho'x.
 Ey Navoiy, bir zamon ko'nglung emas osuda, qosh
 Ko'nglung olg'on bo'l mag'ay erdi bu yanglig' asru sho'x.
 * * *

Ey jamoling qoshida lol xirad,
 Ishqing oshubig'a pomol xirad.
 Andakim sen qilibon jilvai husn,
 Hush o'lub zoysilu badhol xirad.
 Ishq masx ayladi, garchi bor edi
 Ilm ashkolig'a hallol xirad.
 Chiqmadi tuz yo'lidin ishq ahli,
 Nechakim ayladi izlol xirad.
 Ishqqa aql zalil o'lmasa, ko'r,
 Ne qolur, chunki ketar dol xirad.
 Ich mayi ishq Navoiy, mast o'l,
 Kelturur bo'lsa ko'p ashkol xirad.
 * * *

Labing la'l u xating, ay jon, zumurrad,
 Bo'lurm u la'l g'a haryon zumurrad.
 Erur xatti xayoli ko'nglung ichra,
 Nachukkim tosh aro pinhon zumurrad.
 G'am ermas ne uchunikim husni ortar,
 Chiqarsa sabzadin bo'ston zumurrad.
 Zumurrad tolmoq erdi mushkil, emdi
 Ilikka kirgusi oson zumurrad.
 Zumurrad qadri bor oz ersa, lekin
 Xush ermas behadu poyon zumurrad.
 Zumurrad qad yuzung kon bo'ldi, ammo
 Fido bo'lsun anga yuz kon zumurrad.
 Magar yoqut yanglig'dur mufarrih,
 Kim aylar xalqni xandon zumurrad.
 Falak yuz neshi zahrolud tortar,
 Ki qilmas sabzadin tug'yon zumurrad!
 Navoiy, sabza ichra ich mayi la'l,
 Ki solmish bog' aro davron zumurrad.
 * * *

Jilvada husn ahli ichra ko'rmisham bisyor qad,
 Qomatingdek zohir etgan ko'rmadim raftor qad.
 Ko'yiga borurg'a yo'l berdi alifdek fol aro
 Chunki men qildim tafa'ul, zohir etti yor qad.
 Ne sanubar qoldi o'z holida, ne gul bog' aro,
 Gul kibi yuz birla ko'rguzdung sanubarvor qad.
 Yuz ko'ngul birla sanubar bedil o'lg'ay qaddiga
 Jilva bersa zorlar ko'nglin olib dildor qad.
 Sui' qilki bir alif chekmish qadinkim, o'xshamas,
 Bir anga husn ahli tortib mashq uchun bisyor qad.
 Ozimi mayxonamenkim, nogah ul jonib manga
 Ko'rguzub qildi nihon ul mahvashi xummor qad.
 Ey Navoiy, ul quyosh vaslin gadolig' qilgali
 Zohir aylabmen sarig'liq dalqu gardunvor qad.
 * * *

To'sh-to'shumin dushmanu, yo'q do'stdin qat'o umid,
 Qilma, yo rab, do'stdin, dushmanni mendek noumid.
 Ushbu muhlik varta ichra garchi eldin qolmamish
 Hech umidim, qat' qilmon do'stdin ammo umid.
 O'yla girdobi balo ichra tushubturmenki, bor
 Necha dersen biym, ammo yo'qturur paydo umid.
 Jon fido qildim - meni navmid qildi vaslidin,
 La'lidin jon istar elga yo'qturur illo umid.
 Soqiyo, muhlik g'amimg'a shodlig' imkoni yo'q,
 Ne tutay sendin yana jomi nashotafzo umid.
 Yor vaslidin vafo ko'z tutmasam, ayb etmakim,
 Umru davlatdin vafo tutmaydur dono umid.
 Ne visolu ne umidi vasl, vah, o'lmay netay,
 Ey Navoiy, koshki yo vasl bo'lsa, yo umid.
 * * *

Senu firdavs ichida kavsaru hur, ey zohid,
 Menu mayxona aro bodaki tutqay shohid.
 Telba ko'nglum yer o'par qoshi ollinda,
 Maste mehrob aro ul nav'iki bo'lg'ay sojid.
 Ey ko'ngul, har neki ishq ahlini man' aylab eduk.
 Ko'rgach ul oyni bori bizga-o'q o'ldi oid.
 Menmenu mug'bachalar dayr ichinda netkay,
 Mundin o'zga kishi butxonada bo'lsa obid.
 Men gado mastu xarobot aro ilgimda safol,
 Boqsa Jamshid bu iqbolima bo'lg'oy hosid.
 Bilsa Farhod ila Majnun jaza' etkaylar edi,
 Ishq bedodidin ulcha manga bo'ldi vorid.
 Ey Navoiy, bu chaman ichra vafo istamakim,
 Ul mato' o'ldi bu bozorda behad kosid.
 * * *

Domi zulfu donai xolidin etsa yor sayd,
 Yo'q xaloyiqkim, maloyik bo'l'g'usi bisyor sayd.
 Ul ko'zi sayyod agar jon qasdi aylar saydg'a,
 Ollida o'l'g'ay bo'lub jon birla minnatdor sayd.
 Ollohollo, ne balo ul husn erur mardumfirib
 Kim, ani ko'rgach bo'lur ham you ham ag'yor sayd.
 Saydgahda qochmas andin saydkim, jon bergali
 Sekrebu o'ynab, nashotu zavq etar izhor sayd.
 Saydi gulrang oldi xirman-xirman ul gul xirmani,
 Lolazori dahr aro kim ko'rdi bu miqdor sayd.
 Xushtur o'lsam itlariga tu'ma, ne imkoni bor,
 Shoh fitrokiga yetmak bir zaifi zor sayd.
 Har kishi nafs iligidin aylasa o'zni xalos,
 Vahsh xaylin aylar ul dasht uzra Majnunvor sayd.
 Jomi zarrin tutki, bo'lmas mehr ko'rgruzmak bila,
 Kimsaga zarrin g'izoli charxi kajraftor sayd.
 Ey Navoiy, gar desang ming zulm birla o'lmayin
 Bevaafolar makri birla bo'lmag'il zinhor sayd.

Orazing mushtoqidur bu ko'zki bo'l'mish dardmand,
 Garchi bordur dardlig' ko'zga yorug'luqtin gazand.
 Dard o'tin yoqtı ko'zumga hajr chun ko'r'dum yuzin,
 Kuydurur albatta har doruki bo'l'g'ay sudmand.
 Bu qizorg'on ko'z aro mardum emaskim el ko'zi,
 Tegmasun husnungg'a deb o't uzra solibmen sipand.
 Toki ul bemor ko'z oshuftasi bo'l'mish ko'zum,
 Istabon jinsiyat og'riq shevasin qilmish pisand.
 Ko'zlarim la'l'ig'a hamrang o'ldi vah, ne hol ekin,
 Kim bu achchig' yig'lag'on soyi ul aylar no'shxand.
 Ko'zni bir iz tufrog'idin ravshan etkim sud emas,
 Shofi' kofuriy chekib osmoq anga mushkin parand.
 Ul quyosh hajrida bilmonkim, Navoiy ko'ziga
 Barcha olam tiyradur yo bog'lamishdur chashmband.

Jafoda bor ul oy gardung'a monand,
 Atog'a o'yakim xislatda farzand.
 Tugotdi qon yoshim jism ichra qonni,
 Qilichning zaxmi topmas emdi payvand.
 Iting ko'p barcha bag'rimdin tama'kor,
 Ne tong qilsam oni parkand-parkand.
 Agar men oshiqu devona ersam,
 Manga nosih dog'i ermas xiradmand.
 Jahon ahlida mutlaq chun vafo yo'q,
 Xush ulkim, bo'l'di bekaslikka xursand!
 Manga davron og'u berdi, anga no'sh,
 Men etsam zahrxand, aylar shakarxand.
 Junun bo'l'mish Navoiy, aylang ozod,
 Ki majnunlug'da tortibdur base band.

Sen o'z xulqingni tuzgil, bo'lma el axloqidin xursand,
 Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo'l'madi farzand.
 Zamon ahlidin uz payvand, agar desang birov birla
 Qilay payvand, bori qilmagil noahl ila payvand.
 Ko'ngul komini qo'y, gar xud mening devona ko'nglumni
 Toparsen o'yla yuz parkandu, sol har itga bir parkand.
 Eshitmay xalq pandin, turfakim pand elga ham dersen,
 Dila olsang eshitgil pand, sen kim, elga bermak pand?
 Bu foniy dayr aro gar shohlig' istar esang, bo'l'gil
 Gadolig' nonig'a xursandu bo'lma shahg'a hojatmand.
 Bo'lub nafsing'a tobi', band etarsen tushsa dushmani,
 Sanga yo'q nafsdek dushman, qila olsang ani qil band.
 Shakarlablар tabassum qilg'onin ko'rgach ko'ngul berma
 Ki bedillarni achchig' yig'latur oxir bu shakkarxand.
 Jahon lazzotini shirin ko'rarsen, lek bandingdur,
 Giriftor o'lma, voqif bo'lki, qaydu qand erur monand.

Ko'nguldin jahl ranji dofi'i gar istasang, bordur
Navoiy bog'i nazmi shakkaristonida ul gulqand.

Aylamas har nav' bo'lsam ul buti ra'no pisand,
Bo'lmag'on ko'p yaxshiroq olamda mendek napisand.
Umr o'tub bir xizmatim ul oy pisandi tushmadi,
Vah, ne umr erur, ne qilsam aylagay, oyo, pisand?!

Yor agar mushkilpisand o'l mish, ko'rung' mushkilki, bor
Menda yuz mushkil ishu, qilmas birin ammo pisand.
Ishqida qildim jahondin qat'u jondin ham, ne sud
Chunki ul jonu jahonim aylamaye qat'o pisand.
Ey ko'ngul, kuydur tama' tuxmin, tamanna mazra'in
Bu ekin nevchunki hargiz aylamas dono pisand.
Davlati faqr istagil, nevchunki, bor ul ko'y aro
Sidq ila kirgach agar a'lovu gar adno pisand.
Chun fano sholini kiydim, atlasing yig', ey sipehr,
Kim bu bozor ichra ermas hargiz ul kolo pisand.
Soqiy, ber o'tki, kul qilg'ay vujudim xirmanin,
Aylamon hayvon suyikim, aylagay ihyo pisand.
Bu ne aqlu zuhd bo'lg'an zohido kim, qilmag'ay, -
Men kibi olamda bir devonayi rasvo pisand.
Kech bu bog'u gullaridin ham, Navoiykim, emas
Ahli tahqiq ollida dunyovu mofaho pisand.

Ey orazi nasrin, sochi sunbul, qadi shamshod,
Bulbul kibi hajringda ishim lolavu faryod.
Sayd o'ldi ko'ngul ko'zlaringga, vah, qutulurmu,
Bir qushki, aning qasdida bo'lg'ay iki sayyod?
Ul maktab arokim o'qudung noz ramuzin,
Go'yoki vafo ishin unutmish edi ustod.
Ashkimni ko'rub tez bo'lur ko'ngli ja fog'a,
Ore, itimas, chunki suyi bo'lmasa fo'lod.
Mingdin bir emas o'z yuragi zaxmlaridin,
Har nechaki tog' bag'rini zaxm ayladi Farhod.
O'lukni kishi dafn eta olmas, valo har kun
Yuz tig' qilur dafn, ko'zung bo'lgali jallod.
Gul yafrog'i tirnog'lar erur bu chaman ichra,
Bulbul paru bolini yulub bergali barbod.
Ne ayb, Navoiy kibi devonalig' etsa,
Har odamikim, bo'lsa aning yori parizod.

Buki har yondin ko'kartibdur yuzumni koji dard,
Jism uyi toqini oltun birla qildim lojuvard.
May yuzungda gullar ochti, qilma faryodimni man'
Bulbul afg'oni ne tong, ochildi chun gulshanda vard.
Bul'ajablig'lardurur ishq ichrakim, zohir qilur,
Mehrdek o'tluq ko'nguldin day yelidek ohi sard.
G'am toshi xoki tanimdin har sori eltur g'ubor
Boshima tufrog' sovurmog'din emas telegramda gard.
Ul quyosh zulfi xamidin chiqsa ohim to'lg'anib,
Bir quyun bil onikim, davri erur gardunnavard.
Eyki, istarsen, o'zungni fard ul oy ishqida,
Avval oning g'ayri yodidin o'zungni ayla fard.
Ey Navoiy dardlig' nazmingni ahli dard bilur,
Dardsiz, dog'i bo'lur, oni o'qug'och, ahli dard.

Ko'ngulda yuz bila xatting gar o't solur, gar dud
Munavvar o't tushar ul uyda muanbar dud.
Firoq kulbasida tortaram damodam oh,
Ne ayb tutsa bu vayronani sarosar dud.
Falak yuzundaki har sori dudi ohimdur,
Firoq ahliga bir shomi hajr erur har dud.
Xating quyosh kibi yuz uzra parvarish topti,
Ajab emastur agar bo'lsa shu'laparvar dud.

Ulus qabuliyu raddi bila ishim yo'q, lek,
 Necha ul oy manga maqbul, men anga mardud.
 Zamona bog'i gulu sunbulini islamakim,
 Dimog' ofatidur shu'la faraz qil, gar dud.
 Navoiy ohidin ul oyni yoshturung zinhor,
 Ki xo'blar tarafi mayl aylar aksar dud.
 * * *

Yop ul yuz oyinasin cheksam ohi dard olud,
 Bu vajhdinki, qilur mayl xo'blar sori dud.
 Jahanki, ohim ila tiyradur, emas mumkin
 Bu shom daf'i yuzung subhi bo'lmayin mavjud.
 Yuzungda har soridin egma qosh erur yoxud,
 But ollida iki hindug'a voqi' o'ldi sujud,
 May ichti deb meni yozg'urmang, ey musulmonlar,
 Ki rahmatidin emas noumid gabru juhud.
 Qadahki dayrdin istarmen, ushbu ko'zgudin,
 Bilingki, mug'bacha aksi erur manga maqsud.
 Qovarlar itlari ul ko'y aro fig'onimdin,
 Ne itki ko'p ulusa el aro erur mardud.
 Dedimki, sud qilay jon berib visoli uchun,
 Navoiyo, chu firoqida umr kechti, ne sud?
 * * *

Furqatingdin za'faron uzra to'karmen lolalar,
 Lolalar ermaksi, bag'rimdin erur pargolalar.
 Dur tishingdin donai sabrim qolur bebar desam,
 Kulub ayturkim, ekinning ofatidur jolalar.
 Bargi gul uzra yopishbtur shakar har soridin,
 Yo magar la'ling uza qaynabturur tabxolalar?
 Tola-tola nay o'qung ko'ksumda go'yo sindikim,
 Tevrulubtur notavon ko'nglumda bir-bir tolalar.
 Fitnalik to'qquz falak gardingda, jono, turfadur,
 Kim ko'rubitur bir quyosh davrinda mundoq holalar?
 Bordilar ahbobu men yig'larmen o'z ahvolima,
 Korvondin qolg'on it yanglig'ki, qilg'ay nolalar.
 Ko'hi g'am bo'ldi Navoiy, lolalar gulgun sirishk,
 Tog' agar budur, bale, ashk o'lg'usidur lolalar.
 * * *

Ey sabo, sharh ayla avval dilsitonimdin xabar,
 So'ngra degil ko'ngul otlig' notavonimdin xabar.
 Chun manga berding xabar, lutf aylab ul yon dog'i elt
 Xotiri majruh ila ozurda jonimdin xabar.
 Gar bular ko'ngliga ta'sir aylamasdek bo'lsa, ayt
 Yer yuzin g'arq aylagan ashki ravonimdin xabar.
 Va-r munga ham qilmasa parvo, degil aflok elin,
 Kecha-kunduz jonga yetkurgan fig'onimdin xabar.
 Qilsa istig'no kerakkim, aylagay albatta rahm,
 Gar desang jonim aro dog'i nihonimdin xabar.
 Aytkim, tutqil xabar mendin yo'q ersa, topmagung
 Olam ichra istabon nomu nishonimdin xabar.
 Arz qil tadrij ilakim shodlig'idin o'lmayin,
 Ey Navoiy, kelsa nogah dilsitonimdin xabar.
 * * *

Qayda topqay telba ko'nglum ul qaro ko'zdin xabar,
 Chun junun ichra qarorib, topmas ul o'zdin xabar.
 Dayr toqi ichra usruk bil xabarsiz kofire,
 Eyki bilmak istading ul qosh ila ko'zdin xabar.
 Ko'yida ko'nglumda voqi' bo'lg'on ishni, ey rafiq,
 Ham magar fahm aylagaysen el aro so'zdin xabar.
 Fahm etarmen ashkdin hijron tariqin o'ylakim,
 Kecha ozg'on topsa yo'l holini yulduzzin xabar.
 Ishqi dashti ichra jismim tufrog'insovurdi oh,
 Hech kim borib vale tutmodi ul tuzdin xabar.
 Vodiyyi hijron aro men bekas ittim, so'rmadi
 Hech yore ul taraf borib, bu yolg'uzdin xabar.

Topmadim burqa'da ul yuzdin xabar, gar pardada,
Ey Navoiy, yor topti men kibi yuzdin xabar.

Ikki zulfung telba ko'nglumga qorong'u kechalar,
Za'fdin bexudlug'um uyqu ango bu kechalar.
To giriftor o'ldi zulfung domig'a ko'nglum qushi,
To'lq'anib jismim, ko'zumdin o'chmish uyqu kechalar.
Qayda bo'lson uyqukim, oqizmish uyqu xaylini,
Tinmayin oqqon sirishkim qonidin suv kechalar.
Har ne nav' bo'lsa o'tar kunduz ishi, lekin bo'lur
Hajr dardidin xarob ahvolim asru kechalar.
Tiyra shomim shiddatin ko'rgilki, charxu subhdin
Holima gah yig'lag'udur, goh kulgu kechalar.
Subhdek sof istasang ko'nglungni, andin charxdek
Tiyralik chirikini siymin ashk ila yuv kechalar.
Ey Navoiy, hashr yanglig' istar o'lsang subhi vasl,
Tongg'acha ashk axtarin to'kmay bo'lurmu kechalar.

Bargi gul yuzinda la'ling rashkidin xunoblar,
G'uncha ko'ngli ichra og'zing hasratidin toblar.
Safhayedur orazim debocha ishq avroqig'a,
Qon yoshimning xatlari shingarf birla boblar.
Ashkim ortilg'on uchun xam bo'lmamish kirpiqlarim,
Kim yasabdur ko'z xayolin chekkali qulloblar.
Hajridin ko'zlarkim ashk evrulur, ul ashk emas,
Kim erur dardu balo daryosig'a girdoblar.
Aybim etmang bosh ko'tarmaydur debon xumxonadin,
Qilmayinmu sajda topsam bu sifat mehroblar?
Hajr aro ikki ko'zum ichra belingning naqshidur,
O'tkarur tunni xayol aylab kecha bexoblar.
Ro'zgorin qildi mazlum ohining dudi qaro,
Ko'rma zolim xilvatining ko'rgasin sinjoblar.
Terga botqon garmro'lardin magar daf aylamish,
O'zluki chirkin taharrukdin irik moshoblar.
Do'stlar, miskin Navoiy tiyra shomin yod eting,
Yor ila jomi hiloliy cheksangiz mahtoblar.

Ne lo'livashdur ul qotilki, qon to'kmakkadur yaksar,
Qiyo boqmoqlari - poki, itik mujgonlari - nishtar.
Yuzidinkim xijildur gul, parishon har taraf kokul,
Sochib gulbarg uza sunbul, to'kub kofur uza anbar.
Yugurmaklikda har gunbad, ki sekrer ul mahi gulxad,
Guli mehr oldorir behad, uyolur gunbazi axzar.
Chu la'b asbobini tuzdi, salomat rishtasin uzdi,
Qamardek hola ko'rguzdi uzori davridin chambar.
Libosi nozi chaspondur, gahi tuz qaddi chavgondur,
Zamone go'yi g'altondur, zih chobuk, zih dilbar.
Boshig'a siym o'lub parron, tushub girdig'a anjumson,
Tulu' etkan kibi har yon qamar atrofida axtar.
To'kub qon neshi g'am birla, ochib maydon sitam birla,
Olib tablu alam birla ko'ngullar kishvarin yaksar.
Junun sham'in qilib ravshan, ko'ngulga telbalikdур fan,
Paridek bo'lg'ali parranda ul sho'xi pari paykar.
Navoiy bo'ldi lo'livashki, kelmish anga lo'li xush,
Qani bir jomi lo'likashki, lo'li tutsa bir sog'ar.
Tama' qilma falakdin komkim, xanjar qilur oshom
Yaigi oy shaklidin har shom ul lo'liyi bozigar.

Yo'lida kosh meni pora-pora qilg'aylar,
Ki xalq holima bir-bir nazora qilg'aylar.
Bu holatimni ko'rub bori ishq asirlari,
Vafosiz elni sevardin kanora qilg'aylar.
Vasiyatim buki, ko'nglumni ko'rgach-o'q ahbob,
Tutub yuzini hamul lahza qora qilgaylar.

Bu dard ilaki o'larmen, maraz chu zohir emas,
Tabiblar bu balog'a ne chora qilg'aylar?
Tamuq'ni ravza sog'ing'aylar ahli hashr ul kun,
Ki telba ko'nglum o'tin oshkora qilg'aylar.
May ichki, anglamag'aylar bu dayrdin ramze,
Gar ahli zuhd yuz il istixora qilg'aylar.
Sabo, degilki, Navoiyg'a tortsunlar xat,
Alarki ahli vafoni shumora qilg'aylar.

* * *

Yo rab, bu ne guldurkim, boshiga chechak sanchar,
Gah egri qo'yar bo'rkin, gah belga etak sanchar.
Ko'nglumga chekib novak, oj ayladi payvandin,
Har zahmki, ul teshdi el anga so'ngak sanchar.
Boshimg'a havas la'ling, olamni vido' ettim,
Chiqlsa kishi majlisdin, boshig'a gazak sanchar.
G'am kulbasida, jono, ul xastag'a rahm etkim,
Tebransa bag'ir og'rir, dam ursa yurak sanchar.
Qullobi muhbbattur sargashta ko'ngul ichra,
Chun qush solib ul chobuk, boshig'a gajak sanchar.
Har kavkab uchin gardun nish etti shu onidin,
G'am shomi vafo aqlin har nav kerak sanchar.
Sanchilg'on ajal xori, ishq uchrasha bilgaysen
Kim jonga balo nishin hajr o'zgacharoq sanchar.
Jismin chu Navoiyning paykoni temur qildi,
Bilmونki, sinon emdi bag'rig'a netak sanchar?

* * *

Chorai kor istabon bechoraliq ko'nglum tilar,
Xonumon tarkin qilib, ovoraliq ko'nglum tilar.
Istaram ollingga qilsam sajdavu o'psam labing,
But parasting aylabon, mayxoraliq ko'nglum tilar.
Bagrimu ko'ksum bila ko'nglumni qilding yoraliq,
Jonni ham bu hol birla yoraliq ko'nglum tilar.
Oshiq: ishi chun savodul-vajhi fid-dorayn erur
Bu malomat ko'yida yuz qoraliq ko'nglum tilar.
Qasdima har yondin ul ko'y itlarin qo'y, ey raqib,
Kim salomat pardasin yuz poraliq ko'nglum tilar.
Tan g'uborin jon yuzidin raf qil, ey dardkim,
Ko'zni ul yon gah-gahi nazzoraliq ko'nglum tilar.
Ey Navoiy, keyaayakim ko'nglumga tushgan dard uchun
Chora istarmen, vale bechoraliq ko'nglum tilar.

* * *

Telbarab itgan ko'ngul yodimg'a kelsa gohlar,
Yig'lab, el ko'ngli buzulg'udek chekarmen ohlar.
O'tti xo'blar oy kibi, yo'qtur aroda ul quyosh,
Vahki, ul badmehrni ko'rmon o'tadur mohlar.
Xo'blar zulfu zanaxdonig'a bording, ey ko'ngul,
Hozir o'l, tundur qarong'u, yo'lda bordur chohlar.
Gar musavvir sizsa devor uzra ul gul xirmanin,
Jav-bajav mendin nishon bergusi bir-bir kohlar.
Ey ko'ngul, Farhod ila Vomiq dog'i Majnun qani?
Bo'limg'il g'ofilki, bir-bir bordilar hamrohlar.
To'kti qon gulgun libosin kiygach ul xo'blar shahi,
Qon to'kar ermish qizil to'n kiysa, beshak, shohlar.
Ey bahori husn, eshitsang Navoiy ohini
Kerak, albatta, xazon yelin sog'insang gohlar.

* * *

Oncha ko'nglumni jununu ishq yag'mo qildilar,
Kim meni devonani olamga rasvo qildilar.
Xalq ba'zi kuldi, ba'zi ibrat olib yig'ladi,
Har qachon mufrat jununumni tamoshlo qildilar.
G'amzasi har damki qon to'kmakka xuni istadi,
Ko'zlari men qoni to'lg'on sori imo qildilar.
Men gado kim, vasli kim?! Chun ko'rdilar yuz tiyg' qatl,
Shahlar oni kim xayol ichra tamanno qildilar.

Ko'yiga kirgach meni munslug', hujum etti raqib,
 O'ylakim, itlar gado ko'rganda g'avg'o qildilar.
 Men chu asrayolmadim sirrimni, naylab ayb etay,
 Dushmanoyin do'stlar gar oshkor qildilar.
 Vah, ne zulm erdiki o'zga sori solding tiyg'i zulm,
 Har nechakim jon bila ko'nglum tavallo qildilar.
 Boda ichkim, g'ussadin fard o'ldilar ul xaylkim,
 Bu ko'han dayr ichra mayli jomi sahbo qildilar.
 Ey Navoiy, bergil o'zluk naqdinu kasb et fano,
 Kim alar sud ayladilarkim, bu savdo qildilar.
 * * *

Bizga jahon bog'idin ul sarvi gul andom yetar,
 Ul chu yetar soyai sarvu mayi gulfom yetar.
 Bazm bu nav' o'ldi osa naqli hadisin demakim,
 G'uncha bila iargisidin shakkaru bodom yetar.
 Din ulusi qatli uchun kufr eli hojat emas,
 Ey falak, ish gar budur ul ofati islom yetar.
 Har nafas, ey ishq, oning dardi o'tin ko'ngluma yoq,
 Bo'lsa bu marham chu oning ranjiga orom yetar.
 No'shi visoling bila ahbobni qil komravo
 Kim, monga darding mayi xunobasidin kom yetar.
 Tog' kibi tort qanoat etagi ichra ayog',
 Davri falakdin senga bir qurs agar shom yetar.
 O'tti ko'p ayyom, Navoiyg'a ishing fitna edi,
 Muncha-o'q, o'lg'ay sitam, ey fitnai ayyom, yetar.
 * * *

Ko'k binafshazorini anjum chu nargiszor etar,
 Nargising birla binafshang hajri ko'nglum zor etar.
 Chun Zuhal toli' bo'lur xoling xayoli fitnadin,
 Jonim ichra yuz ming oshubi balo izhor etar.
 Jilva qilg'och Mushtari ko'zni uzoring yodidin,
 Yuz saodat axtaridin har zamon durbor etar.
 Chun chiqar Bahromi qotil ko'zlarin andishasi,
 Xasta jonimni qatili xanjari ozor etar.
 Mehrdin topmay nishone senda ham, gardunda ham,
 Bu musibat ko'zuma yorug' jahonni tor etar.
 Zuhra holimga surudin navhag'a aylab badal,
 Changining sochin yoyib, durri sirishk izhor etar.
 O'lmakim anglab Utorid holima deb marsiya,
 Sharhi dardim nazmidin har lahza yuz tumor etar.
 Oy halokimga tutub motam, kiyib tundin qaro,
 Orazin sayli bila ahli azo kirdor etar.
 Tiyra aylab benihoyat kecha umrum sham'ini,
 Vasl subhi hasrati ranjim yuz ul miqdor etar.
 Rostlig' uldurki yetkach ul quyosh rahm aylagay,
 Ulcha ahvolimg'a har tun charxi kajraftor etar.
 Ey Navoiy, ishq dardidin shikoyat qilmakim,
 Joningga javru jafosin har nechakim bor etar.
 * * *

Yordin hijron chekar ushshoqi zor, ey do'stlar.
 Necha tortay hajr, chun yo'q menda yor, ey do'stlar.
 Yor ishqin asrag'il pinhon debon sa'y etmangiz,
 Vah, ne nav' etgum yo'q ishni oshkor, ey do'stlar.
 Ishq birla gar birav lofi vafou ahd urar,
 Ishvagarlar ahgidig'a yo'q e'tibor, ey do'stlar.
 Aylamang bekasligimni ta'n, bir kun bor edi
 Menda ham bir nozanin chobuksuvor, ey do'stlar.
 Yorsiz vayronda qon yig'larmen oxir, siz qiling
 Yor birla gashti bog'u lolazor, ey do'stlar.
 Yorsiz ifrot ila gar yig'lasam, ayb etmangiz,
 Kim erur bu ish manga beixtiyor, ey do'stlar.
 Do'stluq aylab tutung gah-gah labolab jomkim,
 Qasdi jon qilmish manga dardi xumor, ey do'stlar.
 May ichingkim, dahr eli ichra ko'p istab topmaduq
 Ahdu paymonida bo'lg'on ustivor, ey do'stlar.

Yoringiz vaslin g'animat anglabon shukr aylangiz
Kim, Navoiy o'ldi bekaslikda zor, ey do'star.

Visol ahli, sizu, jomi murodu komronlig'lar,
Bizu, g'am kunjiyu, xunobi hajru notavonlig'lar.
Tanimda har taraf qonlig' yaro, go'yoki qildi ishq
Qasosim hukminikim, tuttilar telegramni qonlig'lar.
Erur Farhodu Majnun xonumoni tog' ila vodiy,
Xalos etmish meni ul qayyidin bexonumonlig'lar.
Base diqqat edi ko'nglumda qilg'och ul pari jilva,
Junun birla mubaddal bo'ldi barcha xurdadonlig'lar.
Asar yo'q ko'nglida ul sho'xning nomu nishonimdin,
Natija aks berdi bizga benomu nishonlig'lar.
Men o'ldum mehridin, yuz mendek o'lsa, yo'q aning rahmi,
Bo'lur ermish biravga muncha ham nomehribonlig'lar.
Ko'han pire yo'lungda o'ldi, bir ham boqmading, yo rab
Ki, o'tkay xayr birla g'ururu navjuvonlig'lar.
Yana zuhdum tariqin afv qil, ey piri dayr, oxir
Ki sendin yaxshiliqdur, necha biz qilsak yomonlig'lar.
Navoiyni deb ermishsenki, mendin o'zgani sevmish,
Kam o'lmas, olloh-olloh, sendin ushbu badgumonlig'lar.

Ulki solgay shu'la a'zosiga o'tlug' ohlar,
Qayda bilgay kuymakin zarbaft kiygan shohlar.
Bag'ridin qon tomg'uchi ushshoq zaxmin bilmagay
Tiyg'idin qon tomg'uchi berahm oliv johlar.
Shiddatin Farhod qilgay fahm yo'q Parvezkim,
Dardni xokilar anglar, yo'q falak dargohlar.
Jonu ko'nglum kirdilar g'am dashtiga gum bo'lg'ali,
Men ham ettim azm, chun azm ettilar hamrohlar.
Bo'lalar ogahki, bir g'amginni hijron o'lтурur,
Fikr etar holiga hijron dardidin ogohlar.
Vah, ne bilgay hajr zanjirida dilxohim nedur,
Halqa urg'on bazm ayshi davrida dilxohlar.
Ey Navoiy, shohlarga chun gadolar fikri yo'q,
Eltkil ham tengri dargohig'a shayallohlar.

Tilab yuzungni ko'ngul hajrdin farog' istar,
Qorong'u tunda nachukkim kishi charog' istar.
Bihisht borida do'zax sori qilur ohang,
Habib ko'yi turub, ulki gashti bog' istar.
Saloh ko'nglakini yirtib, oh o'tin yorutub,
Ko'ngul firoqim aro ko'ksum uzra dog' istar.
Sochingjni islabon oshuftamen, zihi savdo,
Biravki mushkdin osoyishi dimog' istar.
Hayot bodasidi Nash'a dog'i hayf anga,
Ki lablaring mayi davrida o'zni sog' istar.
Bu naqd jannat arodur, biravki dayr ichida
May ichsa, mug'bachalar ilgidin ayog' istar.
Qo'yung Navoiy bedilni, qilsa ko'yiga azm
Ki, ko'ngli itmish oning - aylamat so'rog' istar.

Orazing ko'zgusida xat sabzadurkim suda bor,
Yo magar zangor su ta'siridin ko'zguda bor.
O'qlaring paykon bila har yon quruq jismimdadur,
Shoxlar uzra ko'ngullardekki ul nojuda bor.
Zahri hajrin qildi daf' ul ko'z qarosi, vah, bu nav
Qayda bergay xosiyat pozahrkim ohuda bor.
Bordurur mehrob turg'och butg'a qilg'ondek sujud,
Sajda qilsam qiblag'a to qoshlar qorshuda bor.
Zulf aro xoling agar din qasdi aylar, ne ajab,
Muncha kofirlig' ragi, vah, qaysi bir hinduda bor?
Ishq vodiysin xatardur ilm ila qat' aylamat,
Solik ersang tashla ma'lumingniyu osuda bor.

Yuzin istarsan, Navoiy, qochma zulfi fikridin,
Kim sen istar ayshning ummidi bu qayg'uda bor.

Har niyozi ajzkiem bu joni noshodimda bor,
Vahki, yuz ming oncha noz ul sarvi ozodimda bor.
Va'dai mehru vafog'a munkir o'lma, ey pari,
Kim necha majnunu vola men, vale yodimda bor.
O'qidin Majnunning, ey rovi, ne hayrat qilg'amen,
Menki yuz parvona andoq mehnatobodimda bor.
Ko'ngluma ko'hi g'amu mujgonlaring kirmish valek,
Ne g'am ul tog'din, bu metinlarki Farhodimda bor.
Keskali hushu xirad naxlini bilgil arraye;
Har xaroshekem junun sharhida faryodimda bor.
Dayr piri o'zlukum qaydin ketardi, vah, ne tong,
Gar duosi har sabuhi vaqt vaqti avrodimda bor.
Ey Navoiy, telbaratmishtur meni ifrot ila,
Baski mufrit odamlig'lar parizodimda bor.

Bordi ulkim, sendin ayrilg'ay ko'ngul to joni bor,
Javrungga qo'ydum ko'ngul, qil onchakim, imkoni bor.
Ey Masihim, men qatili ishqmen, turguz meni,
Bir nafas, dedim, qabul etkim, nafasning joni bor.
Novaking yetgach, iki nov oichti ashkim suyidin,
Go'yi ul novakning ikki novliq paykoni bor.
Xozini jannat senu uchmog' gulikim bas manga,
Buki har yon tiyg'ining jismimda tomg'on qoni bor.
Yorsa ko'ksumni, fig'on zohir qilur jon rishtasi,
Ko'nglak o'lsa chok, uzulgan torning afg'oni bor.
Jon qushi uchqon, tuz etti jism uyin seli fano,
Ey humoyunfol, o'shul chug'zeki, bir vayroni bor.
Shayxu bir bodomu qon yutmoqki, piri dayrning
Nuql ila maydin fano ahlig'a ko'p ehsoni bor.
Dahr sho'xi makrig'a berma ko'ngul, yo'l bargin et,
Sen kibi har go'shada nevchunki yuz mehmoni bor.
La'li hajrida Navoiy qoni qaynar demangiz,
Yangi maydek ruhidurkim, nolai pinhonni bor.

Ulki, yuz mendek jahonda volavu shaydosi bor,
Nechakim bordur niyozim oning istig'nosi bor.
Dam-badam ko'nglum berib jon naqdi istar vaslini,
Olloh-olloh, telba ko'nglumning ajab savdosi bor.
Ko'nglakim qonliq tuganlar o'rnidin oy-oy erur -
Ul qatondekkim, yuzida har taraf tamg'osi bor.
To o'qung yomg'ir kibi keldi, ko'zum bo'l mish sadaf
Bovujudi ulki durdin yuz sari daryosi bor.
Jon berib, dardin olib ko'ksumda asrarmen, ne ayb,
Asrasa sanduq aro ulkim samin kolosi bor.
So'lma emin charxdin bir dam muraqqa'po'sh deb,
Kim quyoshdin bu muraqqa' ichra o'tlug' tosi bor.
Itlaring bo'l mish Navoiy ko'ngli uchun mehmon,
Bu kecha ul ko'y aro, ko'rkim, ajab g'avg'osi bor.

Barcha xo'blarning qadu ruxsoru xattu xoli bor,
Lek ulkim, bizni behol aylar, o'zga holi bor.
Yuzum oltindekdurur, bu vajhdinkim holiyo
Siymbalarlar ul kishiningdurkim, oning moli bor.
Kirgali ko'nglum aro bir-bir o'qung bo'l mish tanim
Ul qalamdekkim, oning ichida tuz-tuz noli bor.
Sunbulung tushsa oyog'ing ostida, ne aybkim,
Gul bila xurshidning ostida "lom"u "dol"i bor.
Ul sababdin, zohido, mashg'ul emasmen zuhd ila,
Kim ko'ngulning mutribu may birla ko'p ashg'oli bor.
Odam o'l mishmenki, ishq ahli manga avlod erur,
Yo'qsa, yoshdin mencha kimning yuz sari atfoli bor?

Gavhari maqsud chun vobastai tavfiq erur,
 Desa bo'lmaskim, muning sa'y, oning ihmoli bor.
 Ey Navoiy, topmasang kome labi jonbaxshidin,
 Sening uchun bo'l sun oning g'amzai qattoli bor.
 * * *

Xolu xatting xayolidin, ey sarvi gul'uzor,
 Gohi ko'zumga xol tushubtur, gahi g'ubor.
 Yuzungda xol safhada tomg'on kibi qaro,
 Xoling malohati tuz erurkim qaroda bor.
 Jonimni o'rtagan yuzu xolingni bilmasang,
 O't shu'lasida ayla gumon bir o'chuk sharor.
 Bilmon, ko'ngulda xollaringning xayolidur,
 Yo kirpiging tikanlarin aylabsen ustuvor.
 Har dam ko'ngul haloku ko'zum tiyra bo'l mog'in
 Bilgay birovki, yori erur sho'xu xoldor.
 Mashshotayi qazo bezamish xolu xattini,
 Beixtiyorlikda manga bormu ixtiyor?
 Miskin Navoiy xoli labing ko'rsa jon berur,
 Boqsang ne bo'ldi surati holiga, ey nigor?
 * * *

Kirdi siymobi libos ichra yana ul gul'uzor,
 Ul quyoshdekkim, anga moni' bo'lur abri bahor.
 Ul bulut yanglig' libos uzra sizilg'on xatlari
 Bor aningdekkim, yog'in tushgay bulutdin tor-tor.
 Bu libosi siy whole gun ichra sening nozik taning
 Ul kumushdekkim, ul siy whole aro tutqay qaror.
 Mehri ruxsoring libosi siy whole mutlaqo
 Ul quyoshdurkim, qilur ko'zguda aksin oshkor.
 Bo'ldi siy whole libosing rangi, baskim ayladim
 Ko'z sahabidin boshingg'a ashk siy whole nisor.
 Tanni chun siy whole etar bu charxi axzar oqibat,
 To'n agar siy whole o'l sun, gar yashil bir hukmi bor.
 Ey Navoiy, kisvati gar obgundur, ne ajab,
 Bu yaqindurkim, bo'lur suv ichra durri shohvor.
 * * *

Parim bo'lsa uchub qochsam ulustin to qanotim bor,
 Qanotim kuysa uchmog'din, yugursam to hastim bor.
 Chiqib bu dayrdin Isog'a nevchun hamnafas bo'l may,
 Bihamdillah, tajarrud birla himmatdin qanotim bor.
 Xaloyiq suhbatidin ming g'amim bordurki, muft o'lg'ay
 Agar ming jon berib bilsamki, bir g'amin najotim bor.
 Chekib ag'yordin yuz javru tortib yordin ming g'am,
 Ne o'zga xalqdin g'ayrat, ne o'zumdin uyotim bor.
 Kechib ko'z din ozay bir xatki, dahr ahliga ko'z solma,
 Bu damkim ko'z savodidin qaro, ko'z din davotim bor.
 Tilar ko'nglum qushi anqodin o'tsa nori yuz vodiy,
 Munungdek sayr etarga Qofdin ortuq sabotim bor.
 Navoiy, bilki, shah ko'ngli manga qayd o'l mas, billah,
 Agar kavnayng'a xoshok chog'lig' iltifotim bor.
 * * *

Vahki, maydon azmig'a sekretti ul chobuksuvor,
 Kimdururkim, asragay emdi inoni ixtiyor.
 Qoshu yuzungdin agar ortar jununum, ne ajab,
 Telbalikka ham yangi oydur madad, ham navbahor.
 Chok eting ko'ksumki, chiqsun o'tlug' ohim shu'lasi,
 Bir nafas bo'lg'ayki bu anduh o'ti topqay qaror.
 Aqlu fahm oshuftahol o'ldi yigit joning uchun,
 Kim yana uydin munungdek chiqmagil oliftavor.
 Soqyo, chun ichkumizdur oqibat shomi ajal,
 Boda tut andin burunkim, bizni o'l turgay xumor.
 Bir zamonalig' hajr chun ming yilcha bor, o'l sam ne tong,
 Chunki bo'l mas hech kishining umri ming yil poydor.
 Ey Navoiy, shukrkim, maydong'a ul shah qo'ydi yuz,
 Kim yo'lida qolmadi navmid joni xoksor.

To bo'ldi ko'ngul ul ko'zi usrukka giriftor,
 El ko'ziga sog'men, vale o'z-o'zuma bemor.
 Tongdin tanim oqshomg'acha tosh zaxmi bila resh,
 Tundin badanim tonggacha tish zaxmidin afgor.
 Kulbamning emas xishtlari darziki, ochmish
 Holimga fig'on qilg'ali og'zin daru devor.
 Xalq ichra ko'ngul ishqini fosh ayladi ohim,
 Uy ichida o't bor ekanin dud etar izhor.
 Ul but g'amidin kofiri ishq o'lg'ali ko'nglum
 Jon rishtalarin jam' qilib bog'ladi zunnor.
 Xush gulshan erur dahr, budur aybiki, onda
 Payvasta xazon yelidin ozurdadur ashjor.
 Yor ollida gar bor-yo'q ersa ajab ermas,
 Ag'yor chu bor anda, Navoiy sanga ne bor.

* * *

Ichkali gulrang may nargis masallik jomi bor,
 Savsani to'n birla ulkim sarzdek andomi bor.
 Gulshan ichra sarvi ra'nodek qilib har yon xirom,
 Mavzu'i dilkash aro may ichkali oromi bor.
 Bodai sofi chekib ahbob ila g'ofil valek,
 Kim yiroqtin dog'i bir mahrumi xunoshomi bor.
 Bu jafo ahli vafoni qildi maydek talxkom,
 Kim qoshinda kirsa har noahli maydin komi bor.
 Men yutub xunoba yillar, el chekarlar jomi aysh,
 Chora yo'q ulkim, azaldin baxti nofarjomi bor.
 Chun vafo ahlig'a davron tutmadi jomi murod,
 Kim murod andin tama' aylar, xayoli xomi bor.
 Ey Navoiy, gar fano dayri sari qilsang guzar,
 Dayr pirining yamon-yaxshiga lutfi omi bor.

* * *

Bukim, ko'ngulning ul oysiz ne sa'b holati bor,
 Ul anglagayki, birav hajridin malolati bor.
 Quyiki tushmanish aning zulmi tiyg'idin boshim,
 Hanuz tiyg'i yuzidin magar xijolati bor.
 Qulqoq duriyu yuzi ikki axtar etti qiron,
 Ki olam ichra base fitnag'a dalolati bor.
 Sabo debon xabar ul guldin, elni turguzdi,
 Masihcha desa bo'lg'ay aning risolati bor.
 Ko'ngulni zulm ila buzdung, bale bo'lur ma'mur,
 Shaheki, mulkida ehson bilanadolati bor.
 Qadah quyoshi bila ravshan ayla xotirni,
 Chu anglasangki, falak zulmidin zalolati bor.
 Navoiy istamas el ishqin anglag'ay, bukim,
 O'z-o'zi birla junun ahlidek maqolati bor.

* * *

Kofirekim, sen kibi ruxsori otashnoki bor,
 O't solurdin lashkari islom aro ne boki bor.
 Ishq o'tin ko'nglum yorutmoq istasa, yo'qtur ajib
 Kim, churuk bo'lg'on so'ngaklardin quruq xoshoki bor.
 Ko'nglakim chokin tikarga mayl qilding, ey rafiq,
 Bilmading go'yoki, ko'nglak ichra ko'ksum choki bor.
 Eyki, dersen pok husnumdek jamol ahlida yo'q,
 Men kibi ishq ahlining ham qayda ishq poki bor.
 Qatra-qatra ashku dafa-dafa ohim dudidin
 Ishq mulkinig ajoyib anjumu afloki bor.
 Sol yangi oy zavraqig'a atlasing, ey charxkim,
 Ohdin bu shom ashkim bahrining ko'loki bor.
 Ey Navoiy, qo'yma boshim sho'xlar go'y etkali
 Kim, ani osmoqqa bo'lsun chobukim fitroki bor.

* * *

Kimki olam bog'ida bir sarvi gulruxsori bor,
 Bog' sayridin farog'i, sarvu guldin ori bor.

Gul bila mayni netar devonayekim, ko'nglida
 Bir parivash la'lidin may, husnidin gulzori bor.
 Gul nasimu atridin mumkin emas topmoq iloj,
 Kimki bir gulchehra xori hajridin ozori bor.
 Jon yetib og'zimg'a o'l gum, bir nafas tengri uchun,
 'Ey Masihim, kel beri, ey muddai, sen nori bor.
 Ko'zlaringga xori mehnatdур gul, ulkim gul chog'i
 Guljabinlar ko'zlar yanglig' iki bemori bor.
 Dema bulbul zulmig'a gul bog'lamish bel, go'yijo
 Charx zulmidin aning ham bog'lagon zunnori bor.
 Qoldi xurramlik falakdin tashqari, ko'r, ey rafiq
 Kim, qazo naqqoshining ne gardishi pargori bor.
 Faqr yo'linda og'irroq yuk erur vobastaliq,
 Ey ko'ngul, tarki taalluq aylabon ul sori bor.
 Ey Navoiy, o'zni maqbul istasang, tufroq bo'l
 Kim, erur mardud, ulkim boshida pindori bor.
 * * *

Do'stlar, men telba ahvolig'a yig'lang zor-zor,
 Kim solodur gah-gah o't ko'nglumga tushkan xorxor.
 Istamas bo'lsa sabo bir-bir ko'ngul jam' aylamak,
 Nega zulfungni parishonlig'din aylar tor-tor.
 Sen quyosh birla munosibsen o'yunda, xo'blar
 Ikki-ikki chunki kirgaylar, otoshib yor-yor.
 Qo'rqaramkim, bo'limgai ozurda nozuk qomating,
 Egnina xush-xushqi solmish ja'di anbarbor bor.
 Halqa-halqa bo'y numa solmish tanobi zulfini,
 Jurmi ishqimg'a magar hukm ayladi dildor dor.
 Ishq erur andoq murabbiykim, qilur yetkach asar,
 Bulbul o'lg'ay, ochsa yuz bir sarvi gulruxsor - sor.
 Ey Navoiy, bo'ldi ul but kofiri otashparast,
 Ne ajab, vah vah, gar ursa joninka zunnor nor.
 * * *

Necha tortay vasl uchun men zori mahzun intizor,
 Vahki, ko'zdin to'kti selobi jigargun intizor.
 Demakim, ul oyg'a ko'p mushtoqsen yo muntazir,
 Ishtiyoyim benihoyat, andin afzun intizor.
 El mushavvashdur seni ko'zlarda andoqkim vuush,
 Dasht aro tortar zamon Laylig'a Majnun intizor.
 Yo quyoshimni yetur boshimg'a yoxud jonim ol,
 Ko'p manga yetkurma, ey bemehr gardun, intizor.
 Ey sahobi hajr, qilma subhi umrum tiyrakim,
 Ul quyoshtin ayru tortibmen uzun tun intizor.
 Boshima bir qatla yet, gar xud erur o'lturgali,
 O'ldi tortardin chu bu zori jigarxon intizor.
 Ishq shahri muntazirdurlar Navoiy qatlig'a,
 Ul ikiga tortqondek tog'u homun intizor.
 * * *

G'unchai xandon bila husnung guli xurram bahor,
 Xatting andoq sabzakim, bo'lg'ay anga hamdam bahor.
 Yuz uza terdin xating gar bosh chekar, ey gul, ne tong,
 Sabzaga boisdurur chun bo'ldi ersa nam bahor.
 Shodlig'din gulshani vaslingda yig'lab, cheksam oh,
 Yopma yuzkim, gulga bo'lmas yel-yog'indin g'am bahor.
 Orazim aksi yuzung oyina tushgan turfadur,-
 Kim ko'rubit ham xazon bir oyda bo'lg'ay ham bahor.
 Voykim, bir gul xazonga soldi ayshim gulbunin,
 Ushbu fasl ichraki topmish jumhai olam bahor.
 Barqu sel ermas, fig'onu ashk erur, bukim, har el
 Gul yuzung ko'rgach tatar o'z holig'a motam bahor.
 Qasdi bulbul ko'ngli qaydi bo'lmasa, nevchun solur
 Bog' sho'xi sunbuli zulfig'a pechu ham bahor?
 Gul emas, bu bog' torojig'a iynak la'ldin
 Ayladi oviza mehri davrig'a xotam bahor.
 Ey Navoiy, chin bahor erkin bu, yoxud ko'rguzur
 Bog'i xulqidin ulusg'a dovari a'zam bahor.

Voyu yuz ming voykim, tarki muhabbat qildi yor
 Bilmayin qoldim menu qilmay xabar ayrıldi yor.
 Bordi o'qdek tezu yodek qomatim yod etmadı,
 Ishq aro go'yo mening egriligimni bildi yor.
 Chun gadolar birla shahlar qilmas ermish yorliq,
 Men gadoni ko'zga, bas, nevchun burundin ildi yor?
 Pand eshitib, do'stlar, hech kim bila yor o'lmanqiz,
 Kim mening bag'rimni tig'i hajr birla tildi yor.
 Menden uyrilg'on balovu dard uchunmu yig'layin,
 Yo angakim boribon ag'yor ila qotildi yor?!
 Yig'lashib g'am shomn zohir aylasunlar dard o'tin,
 Kimgakim baytul-hazanda sham'dek tonildi yor.
 Ey Navony, yor uchun tortar eding g'urbatda ranj,
 Yo'lga tush, emdi ravanroqkim, azimat qildi yor.

* * *

Ul malohat sham'idin mundoqki jismim yonadur,
 Har bir uchqun g'am shabistonida bir parvonadur.
 Shomi hajrim sharhin el afsona qildi, ohkim,
 Uyquga solg'on qaro baxtimni bu afsonadur.
 G'ayrkim, mahv o'ldigo sensen buzug' ko'nglum aro,
 Chug'z itib, tovus yer tutmish, ajab vayronadur.
 Ko'ksum ichrakim, g'amingdin nordek bo'ldi shikof,
 Go'yiyo har bir bag'ir pargolasi bir donadur.
 Ko'yida so'rsang ko'ngullarni unutma, ey sabo,
 Mening ovoramnikim, ham xasta, ham devonadur.
 Charx shabgardiga go'yo naqdi umringdur g'araz,
 Tegrangga har tunki ikki bukrayib aylonadur.
 So'rma hajringda Navoiy yorinu sarmanzilin,
 Yor anga darding, vatan bir kunji mehnatxonadur.

* * *

Yana g'arib gule jonima jafo qiladur,
 Yana ajab tikane ko'nglum ichra sanchiladur.
 Yana bir o'zgacha ishq ikki ilgi zo'ridin
 Bag'ir bila yuragim bir-biridin ayilladur.
 Qaladi, vahki, o'tundek so'ngaklarimii sipehr,
 Bu yangi o'tqaki tan kulbasida yoqiladur.
 Firoq kojlari birla, vahki, ne o'tlar
 Bulutdek ashkfishon ko'zlarimga choqiladur.
 Sirishk ayladi xokiy tanimni andog'kim,
 Qadam qo'yay desa, uyqu ko'zumga yoyiladur.
 Qochar bu telba ko'ngul, yana voqif o'l, ey aql
 Ki tolpinur ko'pu ko'ksum shikofi ochiladur.
 G'arib qissa erur ishqkim, tiganmadi hech,
 Agarchi bo'lg'ali olam binosi aytildur.
 Navoiy, ahli junun qaydi yor zulfi emish,
 Xirad tanobini uz, band agar bu silsiladur.

* * *

Xoli hijronida ko'nglum dardi beandozadur,
 Dog'din borgach qaro tashvishi aning tozadur.
 Tushta Yusuf hay'atin ko'rдум habibim yodidin,
 Go'yi ul qolab, bu ruhi mahz uchun andozadur.
 Zaxmim og'zi butmasidin uyqum o'chmish, ey rafiq,
 Go'yiyo bu o'zga uyqu keltirur xamyozadur.
 G'amzası jallodida holin ko'ngulning bilmadim,
 Ey sabo, tengri uchun ko'yida ne ovozadur?
 La'li vasfin yozmisham jon safhasidin daftare,
 Har taraf jon rishtasi birla anga sherozadur.
 Zaxmidin qon ko'p oqib yoxud junundindur, bukim,
 Ul pari ko'yida har dam telba ko'nglum ozadur.
 Itlari qut etsun o'lburgach Navoiy qonini,
 Barcha gar har qatra bir jannat gulig'a g'ozadur.
 Voqif o'kim, beshayi jahl ichra jisming hujrası,
 Nafs sayyodi havo saydin tutarga kozadur.

Qoshing avji malohatning yangi tuqqan hilolidur,
 Qading naxli latofat bog'inining navras niholidur.
 Fido jonio qading naxlig'akim, garchi erur navras,
 Bale andomu ra'nolikda haddi e'tidolidur.
 Nazokat gulshanida toza gulbun qomating shibhi,
 Oning tab'ida muzmar g'uncha yo'q og'zing misolidur.
 Chuchuk lafzing Masihoning tufuliyatdag'i nutqi,
 Beling jonbaxshliqta ko'ngliga kirgan xayolidur.
 Ne tong, ko'nglum agar majruh o'lub, qon borsa zaxmidin
 Ki uzgan g'unchadek bir tiflavashning poymolidur.
 Yuru, ey Xizrkim, hayvon suyidur zahr agar ichsam,
 Bu damkim, jonio ul sho'x itlari singon safolidur.
 Xalo mavjud emas suv zarfidin chiqqach havo to'ldi,
 Havoi ishqdin mamludur o'zdin kimki xolidur.
 Navoiy ashkidek ul sho'x agar tipmas, ajab ermas,
 Qilurlar po'ya yoshlar to yugurmak ehtimolidur.
 Fano dayrin tilarmen men, vale uchmog'ni zohidkim,
 Mening komim - qadah durdi, aning kavsar zulolidur.

Orazing ko'zgusimu ter kasratidin sudadur?
 Yoxud ul oraz suyining aksimu ko'zgudadur?
 Dema ayni nozdin ul ko'z ochilmaydurki, bor
 Kofirekim, mastliq ifrotidin uyqudadur.
 Topmog'im o'zni mahol o'l mish firoqing shomikim,
 Tab arodur xasta jismu tob ul gisudadur.
 Sen urarsen novaku ko'ksrum shikofidin ko'ngul
 Ko'rgali kelmish, xato qilmaki, xush qopudadur.
 Sajda qilmoq ne tafovut Ka'ba yoxud butgakim,
 Qoshi mehrobi qayon qilsam sujud o'trudadur.
 O'limgimdin zulfungga go'yo parishonlig' yetib,
 Motam ahlidek quyi solib boshin qayg'udadur.
 Nuh umriyu Sulaymon mulkiga yo'qtur baqo,
 Ich, Navoiy, bodakim, olam g'ami behudadur.

Otashin gul bargidin xil'atki jononimdadur,
 Xil'at ermas, ul bir o'tdurkim, mening jonimdadur.
 Otashin la'ledururkim, anda muzmar bo'ldi jon,
 Otashin gul bargidin xil'atki jononimdadur.
 Jon qushi xunobidin tutmish malohat naxli rang,
 Yo libosi lolagun sarvi xiromonimdadur.
 Qatl biy midur, tarahhumming dog'i ummedi bor,
 Bu libosi olkim ul nomusulmonimdadur.
 Vasl shomi kuymagan parvona shoyad qolmagay,
 Bu shafaqgun hullakim, sham'i shabistonimdadur.
 Tutmasun gul suhbatidin sarv o'zin ko'p sarfaroz,
 Ey sabokim, ul to'ni gulgun mening yonimdadur.
 Soqyo, gulrang may solib, ketur paymonakim,
 Zuhd biy midin xalal faqr ichra paymonimdadur.
 Ey Navoiy, istama jon bulbulin har guldakim,
 Ul to'ni gulgun, labi gulbargi xandonimdadur.

Yuz tuman mehnat o'ti anduhlig' jonioimdadur,
 To havodin sarzanish sarvi xiromonimdadur.
 Hojatim budur, xudoyokim, karomat qilg'asen,
 Notavon jonioim'a har zahmatki jonioimdadur.
 Dard menda sendin ortuq bo'lsa, jono, ne ajab,
 Kim sening jismingdadur, zaxmat mening jonioimdadur.
 So'rdum og'zi ta'mi talx ermish, ajab yo'q, o'limgim,
 Menki bu yanglig' achig' ta'm obi hayvonimdadur.
 Ey Masiho, subhi ayshim tiyra bo'l mish, go'yiyi,
 Zarraye betoblig' xurshidi tobonimdadur.
 Dahr bog'i ichra barbob o'l magon gul chiqmadi,
 Yo'q ajab, gar yeldin osibe gulistonimdadur.

Ey Navoiy, so'rmading dersen malul o'lg'anda yor,
Sog'inursesen go'yiyokim baxt farmonimdadur.

Lo'livashimdin ayruki, qabrimda loladur,
Ul o'ynag'on kibi yog'och uzra piyoladur.
Gulzor aromu lo'li etar la'b to'lg'anib,
Yo gul kibi uzorida mushkin kuloladur?
Ul turfa chehra doiraning chambari aro,
Xurshid davrasida aningdekki holadur.
Tablu nafir ma'rakasi ichra demangiz
Kim, ishqida ulus ishi faryodu noladur.
Bormu o'yun haroratidin chehrasida ter,
Ye ravza gulistonida har sori joladur.
Gulshanda g'upchadur demakim, charx chirmag'on,
Bulbul g'izosi har sori qonlig' iavoladur.
Pinhonu oshkor Navoiyдин о'lmos'i
Gohe jafo qilib, yana gohe uyoladur.

O'n sakkiz ming olam oshubi agar boshindadur,
Ne ajab, chun sarvinozim o'n sakiz yoshindadur.
Desa bo'lg'aykim, yana ham o'n sakkiz yil husni bor,
O'n sakkiz yoshinda muncha fitnakim boshindadur.
O'n sakkiz yil dema, yuz sakson yil o'lsa, o'durur
Husn shohi, ul balolarkim ko'zu qoshindadur.
Hayrat etmon husni naqshidaki, har hayratki bor,
Barchasi ezid taolo sun'i naqqoshindadur.
Tan anga siymu ichinda tosh muzmar ko'nglidin,
Aqlg'a yuz hayrat ul oyning ichu toshindadur.
May ketur, ey mug'ki, yuz hayrat aro qolmish Masih,
Bul'ajablarkim, bu eski dayr xuffoshindadur.
To Navoiy to'kti ul oy furqatidin bahri ashk,
Har qachon boqsang, quyosh aksi aning yoshindadur.

Shon berur elga agarchi labidin qon tomadur,
Vah, dema qon tomadur, balki chuchuk jon tomadur.
Noz o'qi birla ko'zum mardumin etding manfuh,
Ashki gulgun dema zaxmidin aning qon tomadur.
Vah, yaram ichra ne qondur buki, devona ko'ngul
Tonsa taskin turadur, aylasa afg'on tomadur.
Go'yo fitna sahabidin erur seli balo,
Raxshidin qatraki, javlon aro har yon tomadur.
Tomchidek ashkim emas, ko'nglum o'ti daf'i uchun
Gah badan kulbasini qilgali vayron tomadur.
Vahki, gul sham'in o'churmaklik uchundur gar xud
Qatra o'rnig'a bulutdin durri g'alton tomadur.
La'li vasfida Navoiy so'zidin obi hayot
Qilsa paydo oqadur, aylasa pinhon tomadur.

To dayr ichinda mug'bachalardin nishonadur,
Ey piri dayr, boshimu - bu ostonadur.
O'zdin borib fig'onim emas tongki, dayr aro,
Har sori boqsa zamzamai bexudonadur.
Gah piri dayr bois erur, goh mug'bacha,
Yo'q-yo'qki, boda komimu ul - bahonadur.
Dayr ichra yo'q safol ila oltun qadahda farq,
Shohu gado teng o'ldi ajab korxonadur.
Asrori vahdat ista xarobot piridin
Kim, shayx va'zu pandi fusunu fasonadur.
Gar ko'nglum ichra soqiyu may o'rt solmamish,
Har lahza ohidin bu ne o'tluq zabonadur.
Ul umr bir zamonlig' erur istama vafo,
Afg'onki ul ham uylaki ahli zamonadur.
Ko'zdin sochildi ashku ko'ngul o'ti berdi bar,
Ul nav' o't chiqardi ajab tavr donadur.

Otashgah etti kufr eli, ko'nglum uyini, magar,
Kim umr o'tti o'chmay ul o't anda yonadur.
Istar Navoiy o'zni mayu ishqdin xalos,
Moni' valek soqiyu jomi mug'onadur.

Voyki, bag'rim yana hajr o'qidin yoradur,
Har nafas ul yoradin jon o'zidin boradur.
Jonima ofat labi, hajri balo, ohkim,
Baxtima bir hukmi bor la'lub gar xoradur.
Dard sipehri tanim to'zg'anu o'tgan o'qung,
Lam'ai paykon bila sobitu sayyoradur.
Ko'yida topmoq seni mumkin emas, ey ko'ngul,
Anda chu sen telbadek yuz tuman ovoradur.
Charx arusig'a yo'q g'ayri yamonliq shior,
Aqdig'a mayl etmakim, shohidi badkoradur.
Vo'smasi qavsi quzah, g'ozasi gulgun shafaq,
Zulfu yuzi tunu kun, ko'rki, ne makkoradur.
Ishq ajab dard emish, dardgadur chora sabr,
Vahki, Navoiy base oshiqi bechoradur.

Ul quyoshkim, ko'nglum ichra hajrining ozoridur,
Jonom olsa ham, ko'ngul jon birla minnatdoridur.
Naylab ul qotildin o'lg'aymen xalos, ey ishqkim,
Jonom afgori, tanim bemori, ko'nglum zoridur.
Hajr o'qi paykonizaxmin men kibi bilmas kishi
Kim, ichim boshtin-ayoq ul neshning afgoridur.
Hajr aro Joning olay der, ko'r ne bo'lg'ay javrikim,
Bu manga ul sho'xdin mehru vafo izhoridur.
Qof agar yuzdur adadda, Qof tog'i mehnatin
Shiddati a'dodining yuzdin biri miqdoridur.
Telba ko'nglum istasa Farhodu Majnun sihhatin,
Oqil el ragmi anga hushu xirad osoridur.
Kir xarobot ichra, ey zohid, tilar bo'lsang bihisht
Kim, mayi kavssar zuloli kulbai xammoridur.
Ne ajab gulshan erur davronki, dudi ohdin
Sunbuliyu ashk qoni saylidin gulzoridur.
Gar Navoiydek so'zung fahm etmadim, ey porso,
Afv qil, bir dam xayolim bodano'shum soridur.

Labki xandon qilibon qoshu ko'zin o'ynotadur,
O'ynay-o'ynay meni bechorani qon yig'lotadur.
Ko'rgach ul oyni, yaqindurki fig'onlar qilg'ay,
Lek bexudlug' ila ko'nglum o'zin to'xtotadur.
Tortmoq mumkin emas o'qini ko'nglum dinkim,
Yana o'q har nafas oning yoniga o'rnotadur.
Baxtim uyg'onmas, agarchi faza'im dard ahlis
O'lum uyqusig'a borgonlar esa uyg'otadur.
Ko'zum ashkin bu jihatdin desa bo'lg'ay xunob
Kim, bu suv oqsa, bog'ir ham anga qonin qotadur.
Sabru orom sipohin nechakim yig'sam, ishq
Gah ani sindiradur, goh muni butrotadur.
G'arazi buki, habibimg'a qul o'lg'ay Yusuf,
Husn bozorida har nechaki o'zin sotadur.
O'xshamaydur mening ollimda, agarchi dehqon
Sarvi gulro'yuma sarvu gulini o'xshotadur.
Ishq oni keltiradur xasta Navoiy taraf,
Novaki g'amzani ul sho'x qayonkim otadur.

Ul o'tlug' chehraga zarbaft xil'at ne yaroshibdur
Magar xil'atqa ul yuz lam'asidin o't tutoshibdur.
Falakning borgohig'a ko'moch o'l'mish quyosh jirmi,
Anga ohim sutundek dudi mundoqkim uloshibdur.
Maloyik qushlari g'am shomi qo'zg'olmoq tong ermaskim,
Yetibdur ko'kka yuz ohim xadangi, balki oshibdur.

Balo dashti aro yuz ming o'luktur onda qotil ishq,
 Xirad mag'lub xayli birla go'yokim savoshibduri.
 Labingdin jon topay deb, ko'p talashti hajr aro ko'nglum,
 O'lar holatda ul bemordekkim jon taloshibduri.
 Qadahqa boda taryoqini quy toshquncha, ey soqiy,
 Kim g'am zahri bila jomim to'lubtur, balki toshibduri.
 Navoiy gar labi yodi bila qon yutdi, jon tutdi,
 Tabibo bilki, bu sharbat anga behad yaroshibduri.
 * * *

Ul malaksiy whole parikim, xalq aning hayronidur,
 Jonlar oshubi, vale oshufta jonim jonidur.
 Tifl avroq ichra bir-bir bargi gul tergon kibi,
 Nomai hijron aro tim-tim sirishkim qonidir.
 Ko'rsa jon zaxmida qonlig' marhamin aylar gumon,
 Kim buzulg'on ko'nglum o'tidin qiziq paykonidur.
 Yuzungga may gullari yuz fitna qildi go'iyo,
 Fitna har gulkim ochar yuzung aning bo'stonidur.
 Bormudur ko'nglumda kesgan ham alif ham na'l'u dog',
 Yo bu mir'ot ichra solg'on aksi husnung onidur.
 Dahr toroji qilur uryon chaman ra'nolarin,
 Yeldin un chekmas yig'ochlarkim, chaman afg'onidur.
 Ey Navoiy, bilki tong otquncha yig'lar har kecha,
 Charxdek har kimki bir badmehr sargardonidur.
 * * *

Gulni naylay, xotir ul ruxsori gulgun soridur,
 Qo'y gul afshonni, ko'ngul bog'i humoyun soridur.
 Chekti qatlim tiyg'ini gardunu men ham oh o'qin,
 Ohkim, qatlimga ohim dog'i gardun soridur.
 Ko'zlarling devona ko'nglim jonibin tutti, ne tong,
 Ishq dashtida kiyiklar xayli Majnum soridur.
 Momasin ko'rgoch nedin ko'zu ko'ngulga bo'ldi rashk,
 Kim agar ul bo'lsa xat sori, bu mazmun soridur.
 El qading zikrin qilurda oqsa yoshim tong emas,
 Tifli sofiy tab' mayli so'zda mavzun soridur.
 Podshohekim, qanoat maxzanin istar, erur
 Bir gadodekkim, xayoli ganji Qorun soridur.
 Ey Navoiy, ista ma'ni olamikim, keldi dun,
 Har kishikim mayli ushbu dunyoi dun soridur.
 * * *

Aytmon ko'zu ko'ngul matlubi ko'yung bog'idur,
 Bu biriga xori, ul birga g'araz tufrog'idur.
 Qoshi hajrinda yangi oy shaklidin furqat tuni,
 Ko'nglum afgor etkali go'yo falak tirnog'idur.
 Sarviga tortib qabo, cho'kkon quyoshqa soyabon,
 Chobukum bo'yida shirdog', boshida qalpog'idur.
 Demakim, bo'ldung qariyu, o'tti davri ishqkim,
 To tirikturmen manga ishq muhabbat chog'idur.
 Pilgurur parvonaning bolida humrat birla xol,
 O'ylakim ko'nglumda hasrat qoni, furqat dog'idur.
 Dahr gulzori aro hasrat yelidin har taraf
 Tomdi bulbul ko'ngli qoni, dema gul yafrog'idur.
 Ey Navoiy, ko'nglum olib itlariga tashlasa
 Ko'ngul oning barcha maqsudum ko'ngul olmog'idur.
 * * *

Kema og'zi demakim, ishqingda ko'ksum chokidur,
 Bahr mavji yo'qli, ashkim selining ko'lokidur.
 Suvda ermas mehr aksi, balki daryo jonig'a
 Solg'on o'tlar xasta jonim ohi otashnokidur.
 Xas omas girdob arokim, boshinga evrulgali
 Suv uza sargashta oshiqlis jismining xoshokidur.
 Vahki, ul kishtida daryokash, manga xud yo'q hayot
 El degandinkim falonning kofiri bebokidur.
 Ul balig' tutmoqqa solib shastu, oning rashkidin
 Suvdin ayrilg'on balig' yanglig' ko'ngul todokidur.

Ko'rma faqr ahli sirishki bahrida har yon hubob,
 Kim fano kavkablari, balkim balo aflokidur.
 Ey Navoiy, kema tiyri ko'ksum ichra hajr o'qi,
 Kema og'zi go'yo ishqida ko'ksum chokidur.
 * * *

Jonda ishqing bo'lg'usi, to tanda jon bo'lg'usidur,
 Tanda jondek jon aro ishqing nihon bo'lg'usidur.
 To tirikdurmen ichiga jola tushkan g'unchadek,
 Xasta ko'nglum durri ishqingga makon bo'lg'usidur.
 Dardu ishqing dog'i ul soatki o'lsm, jon aro
 Jonning ikki nuqtasi yanglig' nishon bo'lg'usidur.
 Qildi ashkimni shafaqgun hajr bepoyon tuni,
 Hullasin chek tongning, ey gardunki, qon bo'lg'usidur.
 Ul Masih anfosi jonbaxshu labi hayvon suyi,
 Ollohollo, necha jonom notavon bo'lg'usidur.
 Mehr sham'i dudidin qissamni yoz, ey charxkim,
 Ziynati avroqing ushbu doston bo'lg'usidur.
 O'qidin ko'nglum qachong'a tegru zaxm o'lg'ay demaig,
 To bu qush bo'lg'usidur, ul oshyon bo'lg'usidur.
 Gul qulog'in chun og'ir qilmish kirib shabnam suyi,
 Necha, ey bulbul, ishing doim fig'on bo'lg'usidur?
 Ey Navoiy, ko'kka tegru dardi ohimdin shikanj
 Yetkali ul oyg'a go'yo nardbon bo'lg'usidur.
 * * *

Hayot bog'ida to sarvu lola bo'lg'usidur,
 Mening mumiddi hayotim piyola bo'lg'usidur.
 Surohiy o'lg'usidur manga siyntan mahbub,
 Boshida qil anga mushkin kulola bo'lg'usidur.
 Hayot gulshani mug' kulbasiyu mug'bachaning
 Yuzyu qaddi manga sarvu lola bo'lg'usidur.
 Ne ayb, bazmim ichinda hazin fig'onki, surud,
 Angaki qon yutar, albatta, nola bo'lg'usidur.
 Qadahki holima qon yig'lar, emdi ohimdin
 Sirishki qatrasи gulrang jola bo'lg'usidur.
 Deding, fano nedurur, muxtasar deyin o'lmak
 Ki sharhini tilasang, yuz risola bo'lg'usidur.
 Qachon may ichra yuzung aksi tushsa, ey soqiy,
 Piyola davri o'shul oyg'a hola bo'lg'usidur.
 Navoiy, istama kavsar mayini zuhd bila,
 Ki boda ichkuchi elga havola bo'lg'usidur.
 * * *

Vu tiyrai qotilki, oti hajr tunidur,
 Ohim tutunidur dema, dog'im tutunidur.
 Jism ichra yuzung hajrida ming dard xadangi,
 Go'yoki ko'ngul otashkadasining o'tunidur.
 So'ngakdin emas rishtai jismimda bo'g'unlar,
 Ul torda ranjim adadining tugunidur.
 Ul sho'x simo' ichra uchurmoqqa ko'nguldin
 Hushu, xiradu sabrni ofat quyunidur.
 Uyqu keturur suv uni, lek uyquni olg'on
 Elning ko'zidin sayli sirishkimning unidur.
 O'nnyay-o'ynay to'ksa ul oy qonim, emas tong
 Kim, barcha bular charxi muloib o'yunidur.
 Yuz pora boshimni iti rad qildi, Navoiy
 Bilmaski, so'ngaklarda borining butunidur.
 * * *

Yuzi gulchehra soqiyning tarab hukmig'a tug'rodur,
 Yuzinda may guli ul yorlig' uzra oli tamg'odur.
 Labi la'l halokimen, agarchi jonfizolig'da
 Masih birla ul go'yo o'luk birla Masihodur.
 Damim dudi xirad ahlin qilur har lahza savdoyi,
 Dimog'imda, ko'rung, ul zulf mushkidin ne savdodur.
 Sinonin ko'ksuma to tiki ul chobuk, bu xam qaddim
 Hamono g'am sipohi qalbida ul o'q uchun yodur.

Labing aksi ko'zum sho'robasi bahridda go'yokim
 Chuchuk suvdurki, atrofida oning talx daryodur.
 Jahonni chun ko'zumga hajr shomi aylamish tiyra,
 Ne sud andin mangakim, vasl subhi olamorodur.
 Boshim qush oshiyoni, tan junun torojidin uryon,
 Ne tong, yoshlari yugurmak har tarafinkim, tamoshodur.
 Fidosi naqdi islomimki, mug' dayridagi soqiylar,
 Ulus qonin to'kardin vahm qilmas, garchi tarsodur.
 Navoiy dayr piri go'yiskim shahr shayxiga
 Fano jomi ichurdikim, xarobot ichra g'avg'odur.
 * * *

Harorat jonima ul otashin la'l axgarindindur,
 Aiga taskin ham ul yuz ravzasining kavsarindindur.
 Sochingning tiyra shomidin yuzung subhida yo'l topmoq
 Banogo'shundag'i durri shabafro'z axtarindindur.
 Tahuro bodasi derlar erur jonbaxshu ruh afzo,
 Magarkim choshni ul mayg'a la'ling sog'arindindur.
 Shabiston subhi davlatdin yorug'roq bo'lsa tong ermas,
 Ki partav anda ul ruxsor sham'i anvarindindur.
 Yuzung ochqoch shamimi lutfi olam ichra butrotding,
 Magar bu atr ul o't uzra xoling anbarindindur.
 Bahor ayyomini besh kun g'apimat angla, ey bulbul,
 Kim uncha so'zu tobining otashin gul majmarindindur.
 Navoiy, qilmag'il bas nazm birla durfishonlig'kim,
 Maoniy bikriga zevar hadising gavarindindur.
 * * *

La'ling oyo ne ajab rangindur,
 So'zi oning ne balo shirindur.
 Xam qoshing taqviyu toatqa balo,
 Ham ko'zung ofati aqlu dindur.
 Hulla ichra badaningkim ko'rur,
 Go'yo gulbarg aro nasrindur.
 Qatlu turguzmoq erur oyining,
 Ollohollo, sanga ne oyindur.
 Soqiyo, hajrida tutqil manga may,
 Kim, bu suvdin o'tuma taskindur.
 Mayu vasl ahliki bu davr ichra,
 Bizga xunobi jigar ta'yindur.
 Hajring ayyomi Navoiy tinmas,
 Bir ko'runub anga ko'nglin tindur.
 * * *

La'li shavqidin ko'zu ko'nglumda ashku ohdur,
 Yo zuloli xizr ila anfosi Ruhullohdur.
 Ko'p shararliq dudi ohim birla chiqqon jonga boq,
 Kim ming o'tlug' korvonga bir gado hamrohdur.
 Baski boshni yerga urg'on un bila uyg'ondilar,
 Sarguzashtimdin kecha hamsoyalar ogohdur.
 Ul zaqanda bo'lsa har bir qatra xay kavkab ne tong,
 Kim quyoshning chashmasi yonida bo'lg'on chohdur.
 Do'stlar, mumkin emas bo'lmoq tuyassar vaslikim,
 Men oncha dilxozi, emon, ulkim manga dilxohdur.
 To tirikdur, shahg'a ko'proqtur gadodin dardi sar,
 Chun o'lum vaqt yetar - tengdur gado, gar shohdur.
 Dayr piri ollida qilsam gadolig', ayb emas,
 Ey Navoiy, bilki fayz ahliga shayallohdur.
 * * *

Parvona qanoti arokim dog' ila qondur,
 Hajr o'tiyu g'am yorasidin ikki nishondur.
 Sorig', qizil alvon bila xil'atlaring, ey gul,
 Ra'nolig' erur, ulki libosingda ayondur.
 Ul ko'z qarosi hay'ati majruh ko'ngulda,
 Hijron o'tidin iki yangi dog'i nihondur.
 Ko'nglumnik pargolalar etti g'ami hajring,
 Lola varaqidek borida dog' ila qondur.

La'lingdin agar qatral qon qilsa tarashshux,
 Tufroqqa tomizmaki, oning tufrog'i jondur.
 Bu gulshan aro bo'yil vafo yetmadi guldin
 Bulbulg'aki, ming navha bila da'b fig'ondur.
 Shavq o'tig'a yonmoqqa o'zin urdi Navoiy,
 Qovdung kelu lutf aylabon ul telbani yondur.
 * * *

Yuzung ravshan, enging ham ravshan, ey hur,
 Alarning sha'nidin nuran alo nur.
 Iki qotil ko'zung bemorimenkim,
 Erurlar ayni usruklikda maxmur.
 Chu bo'ldi javri may miqdor, derlar:
 Kech andin, vah, manga bu ish ne maqdur.
 Aning husnicha ishqim tutti shuhrat,
 Ki bo'ldi sham'icha parvona mashhur.
 Netong biym o'lsa ishqingdin ko'ngulga,
 Ki bor o'tdin haroson tab'i mahrur.
 Xiradqa bizni targ'ib etma, ey shayx,
 Bu ishdin tut junun ahlini ma'zur.
 Visol et elga qism, ey charx, baskim,
 Navoiy mahvashidin bo'ldi mahjur.
 * * *

Tovushkim uy toshidin kelsa, dermen bag'ri toshimdur,
 Eshikdin soya kirgach, sog'inurmenkim quyoshimdur.
 Ichinda tog'ning qon toshida yuz ming balo toshi,
 Oning toshu ichi mutlaq degaysen ichu toshimdur.
 Emastur gardu go'n ul sho'x maydonida, go'yokim
 Biri farsuda jismimdur, bir sargashta boshimdur.
 Sirishkimni jigar pargolasi bil dog'i ko'z nuri,
 Ko'ngul sirrini, vahkim, zohir etgan ushbu yoshimdur.
 Demay past o'ldi afg'onim yelidin naxli ayshimkim,
 Bu naxlim arrayei muhlik fig'on ichra xaroshimdur.
 Urarmen yerga boshimni g'ammingdin jon taloshurda,
 Firoqing xayli birla ul urushum, bu taloshimdur.
 Yomon holimga hayrat qilmang, ey Farhod ila Majnun,
 Bukun siz mehmonsizkim, tarab birla maoshimdur.
 Falak qasri bilan kun muttaqosidin demang so'zkin,
 Fano dayri makonim, faqr tufrog'i firoshimdur.
 Dedimkim: "Tushta mehrob ichra ko'rdum kofiri maste",
 Dedi: "Ko'rgil Navoiy, ko'z ochibkim, ko'zu qoshimdur".
 * * *

Kecha badmast o'lg'onimdin infiolim bordur,
 Mayni emdi og'zima olmas xayolim bordur.
 Ulki der may ich uyattin bilmagay o'z holini,
 Bilsakim bazm ahli ollinda ne holim bordur.
 Demakim may daf' etar, gar yetsa har dam yuz malol,
 Kim icharda oni har dam yuz malolim bordur.
 Yor tavbam bilsa garchi may berur, bermay majol,
 Yolborib uzr aytqumdur, to majolim bordur.
 Rindlar tavbamni sindirmoqqa bu taqrib omas,
 Boda nafidinki har dam qilu qolim bordur.
 Zuhdu istig'nomu yaxshi, yo'qsa isyonu nioz?
 Shahr shayxidin bu yanglig' bir savolim bordur.
 Ey Navoiy, men xud ottim tavba, lekin, netgamen,
 Kim ajab mayxorai bei'tidolim bordur.
 * * *

Qatlima tiyg' o'lgalikim charx ishi ozordur,
 Mavji ashkim aksidin po'lodi javhardordur.
 Ko'k tegirmon toshi aylandurmoq istar boshima
 Dema oyu kun boshim uzra bukim sayyordur.
 Ishq dashtida quyun ermaksi, men devonaga
 Dash arsashtalik xattin sizar pargordur.
 Dard tog'ida choqinlar dema, de o'tlug' kamand,
 Kim solurda bo'y numa charx ilgidin takrordur.

Rahm qil, gardunki, bir dilkastadin maqdur emas,
Chekmagi gar mehnatu bedod bu miqdordur.
Muncha dardu g'ussadin maxlas topar yer istasang,
Ey Navoiy, bilki, ul yer kulbayi xammordur.
Ey xusho xumxonakim, qilg'oni anda tarki hush,
Ko'k xumidin har nekim kelgay, farog'i bordur.

Sarig' libos aro ul no'shlabki xandondur,
Erur Masihki, xurshid ichinda pinhondur.
Libosu jism ila ul gul'uzor ko'rguzdi
Xazon ichida bahoreki, aql hayrondur.
Libosi o't kibi asfar, tani hayot suyi,
Ajoyib o'tki, arosinda obi hayvondur.
O'shul dur orzusidinki, zarvaraq kiymish,
Yuzumning oltunida durri ashk g'altondur.
Firoq dashtidagi lolalar sarig' butmish,
Magarki dog'lari barcha dog'i hijrondur.
Yuz ul etakdin agar olmasam, ne tongki, somon
Chu kahrabog'a yetar, qo'yomog'i ne imkondur?
Sarig' yuzumdek etib subh o'zin sog'indikim,
Sovug' nafas bila mehrin yoshurmoq osondur.
Navoiyga berur el pandu, ul muni derkim,
Sarig' libosi falon sho'xning ne chaspondur?

Bargi nay to'n ichida nol kibi beli nihondur,
Qalami fo'ta qamish bandidek ustida ayondur.
Ayladim tarh vafo kasrini ko'ksum uza, ko'rkim,
Na'lllar tarhida ayvonlaridin yerda nishondur.
Zulfi hijronida mundog'ki tanim har sori sanchar,
Raglarim jism aro qatlimg'a magar necha yilondur.
Chug'z vayrona aro angladi go'yoki o'larmen,
Motamimga ishi har lahza garibona fig'ondur.
O'qung og'zida qizil tus emas, ko'nglum arokim,
Tong emas, og'zi qizil bo'lsa, qizo chun anga qondur.
Hullai toat etar do'zax o'tin daf', yo'q ersa,
Ul haroratqa ne daf, kafanig garchi katondur.
Voizekim, o'zi qilmas amalu elga berur pand,
Gar emas uyquda, bas, munchaki der, ne hazayondur.
Xas kibi tushti Navoiy may uza, g'am neta olg'ay,
Xossakim, anga hubob uyi kibi dorilamondur.

Lojuvardiy qoshing uzra zarvaraq toboidmudur,
Yo magar ko'k toqi uzra anjumi raxshonmudur.
Zulfimu ohim yelidin sovurur olamg'a mushk,
Yo sabo tahrikidin sunbul abirafshonmudur.
Xaychakom orazmudur, yo husni bandi zulf aro,
Yuz asir o'lg'on ko'ngullar holig'a giryonmudur.
Zarvaraqdin shu'lalardur har taraf ruxsorig'a,
Yo ul o'tlug' yuzda haryon bir ko'ngul so'zonmudur.
Hajr zolim shomi kavkabdinmu girsidur manga
Yo aning subhi g'arib ahvolima xandonmudur.
Eyki mayli jannat etmassen mening ko'nglum kibi,
Notavon ko'nglum birov ko'yida sargardonmudur.
Bo'ldi qaddi yo Navoiyning yuzi chun zarvaraq,
Lojuvardiy qoshing uzra zarvaraq tobomudur.

Sochbog'ingdin chiqqon, oyo, sunbuli purchinmudur?
Yo terisin solg'on ikki af'iyi mushkinmudur?
Iffatingdindurmukim me'jar yuziga tushti chin.
Yoxud anda zeb uchun mashshota solg'on chinmudur?
No'shxand etganda la'lingdin ko'rumbishmu tishing,
Anglamon, yoxud asal ichra yozilg'on "sin"mudur?
Sunbulin ko'rgach, ko'zum bo'ldi qarong'u, ey sabo,
Sochi mundog' tiyra yoxud sochbog'i epkinmudur?

Chiqsa aqlingdin arusi dahr, bergil naqdi jon,
 Demagilkim, xunbahodur ushbu yo kobimmdur?
 Dahr zolin gar desam Farhodkush, ayb etmangiz,
 Gar emas Farhodkush, oxir dengiz, Shirinmudur?
 Shavq o'ti topqoch sukon dersenki, ishqil tarkin et,
 Ey Navoiy, bir nafas bu shu'laga taskinmudur?
 * * *

G'amning o'qiki ko'ngullar uyin nishona qilur,
 Mening chu xoki tanim ichra yetti, xona qilur.
 Labing bahonasiz el qonini to'kar har dam,
 Manga chu yetti ish, albatta bir bahona qilur.
 Ko'ngul berurda fusunlug' ko'ziga bilmas edim,
 Ki el ichinda meni oqibat fasona qilur.
 Ko'ngulda javhari paykoniniki yig'mish jon,
 Ajab emaski, bu vayronani xazona qilur.
 Desaki mehr giyohin ko'kartayin, gardun
 Zamona ahli vafo ko'z yoshini dona qilur.
 Halok domi yoyar subhxez qushlar uchun,
 Sahar yeliki chaman sunbulini shona qilur.
 Nasib bulbul uchun xori g'amdurur, ul ham
 Navoiy nag'masi birla magar tarona qilur.
 * * *

Jonim oromi uchun qosidki, jonondin kelur,
 Go'yи jonparvar nasime obihayvondin kelur.
 Noma qosid ilgidin, qosid habibim ollidin,
 Mujdai jon yeldinu yel mohi Kan'ondin kelur.
 Va'dai vasliki jonondin kelur hijron kuni,
 Tindurur ko'nglumni so'z yanglig'kim ul jondin kelur.
 Gavharidekdurki chiqmish xomasining no'kidin,
 Noma uzra shodlig' ashkimki mujgondin kelur.
 Shodlig'din jon nisor etsam ne tongkim, bu xabar
 Ham ko'nguldin, filmasal, ham ko'nglum olg'ondin kelur.
 Vahki, mazmunidur ahli dard sargardonligi,
 Har balo maktubikim, bu charxi gardondin kelur.
 Deb emish nomamg'a qilmaydur Navoiy jon nisor,
 Anda jon bo'lqa qachon bu nav' ish ondin kelur.
 * * *

Shahsuvorim har qachon javlon qilur,
 Mahv o'lub bilm'on o'zumni haq bilur.
 Anga har ko'z kim tushar, kirpiklari
 Xasta ko'nglumda tikandek sanchilur.
 Ochilur ko'nglum samandi sayradin,
 G'uncha yanglig'kim sabodin ochilur.
 Ayrilur go'yo quyoshdin bir shihob,
 Oti na'lidan har o'tkim ayrilur.
 Oh tortarda magar jon pech urur,
 O'q otarda har qachonkim qayrilur.
 Tavsani gardunni markab qilmakim,
 Yer bila rokibni oxir teng qilur.
 Tez etar tiyg'ing Navoiy ishqini,
 Garchi o't o'char, agar suv sochilur.
 * * *

Ko'k g'azoli chunki kofur uzra mushkafshon bo'lur,
 Kavkabafshon ko'zlarimdin ul quyosh pinhon bo'lur.
 Mungrayib andoq sinuq ko'nglum buzulurkim, sipehr
 Bul'ajab holimga yuz ming ko'z bila hayron bo'lur.
 Gah yurub, gah o'lturub, bir lahma tutmasmen qaror,
 G'uissa bandidin bari olam manga zindon bo'lur.
 Gah ko'ngul o'ti urar ko'ksum shigofidin alam,
 Gah bag'ir pargolasi ko'z yo'lidan g'alton bo'lur.
 O'ltirur uy saqfig'a ohim tafidin qatralar,
 Yo mening holimgadurkim tomu tosh giryon bo'lur.
 Eyki, istarsen salomat ishq ko'yin so'rmagil,
 Kim bu yo'lga har kishikim tushti sargardon bo'lur.

Istaganaga do'st komin istabon kuymak ne tong,
 Gar tutun sunbul, o'tun ashjoru o't rayhon bo'lur.
 Ichni uryon qilki, toshing zebi man'i faqr emas,
 Faqr emastur gar iching mamlu, toshing uryon bo'lur.
 Ey Navoiy, ishq man'in elga irshod aylading,
 Ollohollo, bu ne makru hiylau daston bo'lur.
 * * *

Har qachonkim kemaga ul oy safar raxtin solur,
 Mavjluq daryo kibi oshufta ko'nglum qo'zg'olur.
 Yig'lama, ey ko'z, nedin sohilg'a chiqmas kema deb,
 Kim yoshing daryosidur har sorikim el ko'z solur.
 Titrabon siymobdek ko'nglum, yetar jon og'zima,
 Tund yel tahrikidin har damki daryo chayqolur.
 Sabr ko'nglumda, ko'ngul ul oyda, ul oy kemada,
 Vahki, borub, telmurub ko'z, mungrayib joniq qolur.
 Dam tutulg'ondin o'lar eldek yetibmen o'lgali,
 Surmasun deb kemasin baskim nafaslar asrolur.
 Kirma savdo bahrida olamdin istab sudkim,
 Siym naqdi tushsa, lekin umr naqdi siyg'olur.
 G'arq etar bahri fano g'am zavraqin, ey piri dayr,
 Ilgiga chunkim Navoiy boda kishtisin olur.
 * * *

Jafo qilur bari gulchehralar, vafo qilako'r,
 Vafo har elga qilursen, vale manga qilako'r.
 Ne telbaniki muqayyad tilarsen, ey gardun,
 Aning salosili zulfig'a mutbalo qilako'r.
 Desang hijobni olganlar, ey ko'z ollingdan,
 Ne gard oning yo'lidan qo'psa, to'tiyo qilako'r.
 Tajallo istasang ul yuzdin o'rtabon jisming,
 Kuli bila ko'ngul oyinasin jilo qilako'r.
 Umidi vasl ila ko'yungga bordi xasta ko'ngul,
 Yigitliging haqqi, ul hojatin ravo qilako'r.
 Biyik nishiman erur, ey ko'ngul, visol avji,
 Talab qanoti bila ul taraf havo qilako'r.
 Navoiyo, chu alamsiz murod mumkin emas,
 Desangki, vasl topay, hajr o'tig'a yoqilako'r.
 * * *

Furqat ichra sharbati la'ling visoli kam bo'lur,
 Garchi derlar talx daryoda chuchuk suv ham bo'lur.
 Zulfu ruxsoring g'ami ne tong buzug' ko'nglum aro,
 Ajdaho gar bo'lqa vayron ichra, maxzan ham bo'lur.
 Ko'ksuma otsang bir o'q, ot yona bir yonindakim
 Ul dag'i ko'nglumni shod aylar, bu ham mahkam bo'lur,
 Ul pari ishqin maloyikdin yoshursam ne ajab,
 Dardi yo'qlar dard ahlig'a qachon mahram bo'lur?
 Ohu ashkimdin shikoyat ko'p qilur hamson kim,
 Dud ravzandin kirar uyning binosi nam bo'lur.
 Gar egilsa qomatim ishqining yukidin, qilma ayb,
 Kim, sipehr uzra bu og'ir yukni qo'ysang xam bo'lur.
 Olam ahlidin kim ul oyni Navoiy tanladi,
 Bilmadikim ishqidin ovorai olam bo'lur.
 * * *

Kecha kuymak rasmini parvona mendin o'rganur,
 Sham' kuydurmak ishida mahvashimg'a o'tkanur.
 Ul pari hajrinda men devona cheksam o'tluq oh,
 Ey malak, gar bo'imasang voqif, qanoting churkanur.
 Anjum ermas, qatralar ko'k saqfida aylar ayon,
 Dudi ohimkim, falak toqig'a har tun chirmanur.
 Saltanat taxti uza yotqon uyumas rashkdin,
 Ko'rsa boshimniki, har tun ostoning yastanur.
 Baxtim uyqudin ko'z ochmas, yo'qsa chun cheksam fig'on,
 So'nggi uyqu masti bo'lg'onlar ul undin uyg'onur.
 O'z-o'zumga to'lg'anurmen, qaddu zulfin yod etib,
 Sarvg'a gulshanda sunbul shoxi chunkim to'lg'anur.

Devvashlardin qochib tutti Navoiy bodiya
Bu jihatdin tegrasiga dasht vahshi aylanur.

Xating ichra labi xandon ko'runur,
Xizr ila chashmai hayvon ko'runur,
Ishq dashti aro g'amzang o'qidin
Ko'z yetar yergacha chopkon ko'runur,
Bil junun bodiyasida menmen,
Qayda bir telbai uryon ko'runur.
Lola butkon kibi qon yoshimdin,
Tog'u vodiy bori yakson ko'runur.
Garchi ishq ichra base mushkil bor,
Vasl ummedidin oson ko'runur.
Ko'zum o'ldi yana go'yo oshiq,
Baski bir chehrag'a hayron ko'runur.
Lofi zuhd urma, Navoiy, har dam,
Ki aning aksari yalg'on ko'runur.

Ko'zum yoshiki, yurak qoniga tutosh ko'runur,
Berur qonimg'a tonutluq, agarchi yosh ko'runur.
Labini so'rg'ali aqlim junung'a bo'ldi badal,
May ichsa tez o'lur el, sog'da gar yovosh ko'runur.
Shikasta ko'ngluma oz g'am bo'lubturur kulliy,-
Kesak qanoti sinuq qush ko'ziga tosh ko'runur.
Ne kunki yuzini ko'rsam, tushumga kirsa, ne tong -
Quyoshqa boqsayu ko'z yumsa ham quyosh ko'runur.
Ne rud oqizding ulus qonidinki, tegrangda
Nazarg'a soy totidek necha boqsa, bosh ko'runur.
Mug' eshigin turradek yop yuzingg'akim, gardun,
Quyosh sinoni chekib tavrida savosh ko'runur.
Navoiyning bu namozi ne nav' ekin, yo rab,
Ki sajda vaqtı ko'ziga ul egma qosh ko'runur.

Savsaniy to'n birla ul qad sabsani ozod erur,
Yo binafsha bargidii zeb aylagai shamshod erur.
Ollohollo, bilmon ul qadnnki, sabsan bargidin
Zeblik shamshod erur yo sabsani ozod erur?
Vah, ne sarvedurki, to xil'at kiyibtur sabsaniy,
Chok o'lub gul xil'ati, bulbul ishi faryod erur.
Sabsanu sarve agar yo'qtur, damimdin bog' aro
O'rstanibon sarvu sabsan hullasi barbod erur.
Ayni iffatdin o'shul pokiza gavhar jismida,
Xil'at ermaskim, binafsh etgan kibi po'lod erur.
Shomi g'am ko'nglum uzoru hullasin yod aylabon,
Mehr o'ti har yon binafsh etgan bulutdin shod erur.
Qozgali g'am Besutun tog'in Navriy ilgida,
Vahki, sabsan bargi ermas, teshai Farhod erur.
Yuz tili bo'lsa, dam urmoq shart emas ozodadin,
Ey ko'ngul, sabsan tilidin bizga bu irshod erur.

Markab ermaskim sabo maydonda gard angez erur,
Rokib ermas, bargi guldurkim sabodin tez erur.
Tashladi haryon ulus jonini sargardon qilib
Girdbodi fntna go'yokim g'uborangez erur.
Na'l emas ravshan hiloli el ko'zin yorutg'ali,
Po'yada har sori shabrangiga dastovez erur.
Rokibu markab yuzu a'zosidin termu oqar,
Yo bulut durbor o'lub xurshid anjumrez erur.
Bodai gulgun keturkim, shomi hijron men kibi,
Yuz tuman Farhodni past aylagan Shabdez zrur.
Oshiqib terlab ilojimg'a yetishting, ey Masih,
Ne ajab gar sharbat la'ling gulobomez erur.
Gar yana mast otlonib ko'nglakcha javlon qilmadi,
Bas qulq sol shahr sorikim ne rustoxez erur.

Hiyla ojizlig'din aylar oshiq, angla, ey ko'ngul,
 Kim, zabunroq ishq aro Farhoddin Parvez erur.
 Ey Navoiy, yor agar mayxoradur yuz qatla shukr
 Kim, emassen porsou xasta, ne parhez erur.
 * * *

Lolagun to'n ichra, yo rab, ul g'azoli Chin erur
 Yo ko'zumnung mardumi qon yosh ila rangin erur.
 Bilmon, oyokim, shafaq ichra erur zarrin g'azol,
 Lolagun to'n ichra yoxud ul g'azoli Chin erur.
 Aylamish guldsta bandi sun' to'nu jismini,
 San'atikim, arg'uvon bargi aro nasrin erur.
 Qadmudur bu yo erur shingarf ila yozgon alif,
 Belmu yo toreki, la'l pchra anga taskin erur.
 Ko'nglum ichra soldi ul to'n aks yoxud bo'ldi qon,
 Xalq ko'nglin qon etarga, vah, bu ne oyin erur?
 Bir qadah gulgun may, ey soqiy, to'la tutkim, ko'ngul
 Ul buti gulgun qabo bedodidin g'amgin erur.
 Ey Navoiy, qatl uchun gar xud qizil to'n kiydi yor,
 Basdur ul to'n rangi, ne muhtoji qatlu kin erur.
 Dema tog'u lola dahr ichra - ajal qoploni bil,
 Kim kiyiklar qonidin boshdin ayog' rangin erur.
 * * *

Beliyu og'zi ko'rар-ko'rmasta chun pinhon erur,
 Bas muni quchmoq, oni o'pmoq qachon imkon erur.
 Men dog'i dey belinu og'zinki ko'rdum, ko'rmadtim
 Yo'q, tamannolarni topqon-topmog'on yakson erur.
 Bevafolar qaddu mujgonini ko'p qilmang xayol,
 Kim biri yuz o'qdurur, bu bir itik paykon erur.
 Ishvagarlar lablari qasdig'a jondin ketmangiz,
 Negakim o'z qasdi joni qilg'on el nodon erur.
 Tunu kun deb istamang har lahza zulfu yuzlarin,
 Kim bu bir domi balo, ul shu'lai hijron erur.
 No'sh emastur dahr bazmida, gazakkim peshdur,
 May demakim, sog'ari hijron ichinda qon erur.
 Ey Navoiy, bu g'arib ishlarga taklif aylading,
 Bizgadur bisyor mushkul, gar sanga oson erur.
 * * *

Orazing husnin fuzun qilg'on hiloliy qosh erur,
 Yoxud ul oy sham'ini yorutg'ali minqosh erur.
 Ko'z yoshim durri yatimin mahrami ishq aylamon,
 Har nechakim pok gavhardur va lekin yosh erur.
 Oncha yog'durdi balo toship tanimg'a ishqkim,
 Yuz ming el ishq ahli gar ko'ksiga ursa tosh erur
 Xo'blar la'l xayolotin bishirmaktur ishim,
 Shu'laliq ko'ntlum bu sog'arlarga go'yo dosh erur.
 Qoldi avval tog' aro Farhodu Majnun dasht aro,
 Ishq yo'linda manga ikki ajab yo'ldosh erur.
 Ul Masih anfos tarso saydidur ko'nglum qushi
 Kim, malak dayri ravoqi kunjida xuffosh erur.
 Chun og'iz ochti Navoiy ko'ngli har yon zaxmidin,
 Ne ajab gar yoshurun dardi el ichra fosh erur.
 * * *

Boshtin-ayog' yalang tanim uzrakim, toza dog' erur,
 Husnung'a qilg'ali nazar har biri bir qarog' erur.
 Ishq gadolari degay ko'nglak erur muraqqa'yim,
 Toza tugap nishonidin har sori baski dog' erur.
 Zaxmlarim fatilasi jon o'tidin tutashqali
 Tiyra ko'ngulg'a dardu g'am bazmi uchun charog' erur.
 Ko'hi balodurur tanim, chashmasi ko'zki, qon to'kar,
 Tong yo'q agar bu tog' uza qon oqizur bulog' erur.
 Xurdasidin ichinda o't g'uncha emaski bog' aro,
 Har sori ishqing o'tidin bir qizig'on dumog' erur.
 Zohidu uchmog'u tomug' biymi bila ummidikim,
 Ahli fanog'a mosivalloh g'amidin farog' erur.

Dayarda ko'r Navoiyni mug'bachalar g'amidakim,
Egnida chok xirqavu ilgida bir ayog' erur.

Kunduz ul xurshidi raxshondin ko'zumda yosh erur,
Kecha holim zulfi savdosi bila chirmosh erur.
Olmag'on din naqdi birla yiqmag'on mehrob yo'q,
Ey musulmonlar, ne kofir ko'z, mufattin qosh erur?!
Chok ko'ksundin ichimga solib ul oy ko'nglidek,
Asraramkim, ham ul-o'q boshimg'a urg'on tosh erur.
Rahm emas, berahmliqdur surmasaig boshimg'a raxsh,
Kim bu ko'p qatla oning pomoli bo'lg'on bosh erur.
Ishqi sirrin necha ko'nglum ichra pinhon asrasam,
Ham ko'ngul o'ti zabona chekkach elga fosh erur.
Qaysi gul bazmiki suvg'a, yo'qsa yelg'a bermadi,
Bu chamanda to bulut saqqa, sabo farrosh erur.
Masjid ichra istamang zuhudu riyo ahli aro,
Kim Navoiy dayr ichinda doxili avbosh erur.

Har qayon boqsam ko'zumga ul quyoshdin nur erur,
Har sori qilsam nazar ul oy manga manzur erur.
Chun masal bo'ldi soching zulm ichra, yosurmoq, ne sud,
Mushk isin yoshursa bo'limas, bu masal mashhur erur.
Telbararmen to ani ko'rmon, ajoyibdur bukim,
Ul pari devona ko'zidin dog'i mastur erur.
Chun mudom irning mayi qoshindadur kofur ko'zung,
Nedin erkinkim, dame usrun, dame maxmur erur.
Dilrabolar dog'i joniga safhasida go'yiyo
Dard eli ishqim uchun muhr aylagon manshur erur.
Par urub boshingga tutma avjkim, har necha mo'r, -
Kim qanotlangay, qachon uchmoq anga maqdur erur?
Gar Navoiy siymbalarlar vaslni istab ko'rsa ranj,
Yo'q ajab, nevchunki xom etgan tama' ranjur erur.

Har labing o'lganni turguzmakda, jono, jon erur,
Bu jihatdin bir-birisi birla jonojon erur.
Jonim andoq to'ldi jonondinki, bo'limas fahmkim,
Jon erur jonon emas, yo'jon emas, jonon erur.
Bo'lsa jonon, bordurur jon ham, chu jonon qildi azm
Jon ketib jonon bila, jondin manga hijron erur.
Jon manga jonon uchundur, yo'qliki, jonon jon uchun,
Umr jononsiz qotiq, jonsiz vale oson erur.
Borsa jon, jonon yitar, gar borsa jonon, jon ketar,
Kimsaga jonomu jonsiz umr ne imkon erur?
Xushturur jonus jahon bila, jonon agar -
Bo'lmasa, jon o'ylikim, o'lma jahon zindon erur.
Jonim ol, ey hajru, jononsiz manga ranj istama,
Chunki jononsiz Navoiy jonidin ranjon erur.

Yo'q ajab, la'lingdin ar bexudlug'um oyin erur,
Chunki usrukak bo'lur har mayki, lab shirin erur.
Raz qizi to pardadorlik aylagay talbis uchun,
Shisha me'jardur angavu mavji oning chin erur.
Qon yoshim ta'siridin sorig' yuzumning safhasi
Kog'azedurkim, hino suyi bilan rangin erur.
Muhlik o'tumni dampingdin tez qilma, ey Masih,
Kim bu o'tqa motam ashki suyidin taskin erur.
Ul pari ishqida ashkim lahv tuxmidur demang,
Kim malak tasbihiga bu donadin tazyin erur.
Olmayin yerdin qadam sayri maqomot aylamak,
Chang piridin bu bazm ahlig'a xush talqin erur.
Sizu vasl, ey ishq ahlikim, Navoiy jonig'a
Anduhi hijron azal devonidin ta'yin erur.

To xayoling gah ko'ngul, gah ko'z aro mehmon erur,
 Ko'z bila ko'nglum arosinda hasaddin qon erur.
 Ko'ngluma paykonlaringdin qatra-qatra suv emas,
 Holima ko'zdek biaynih ul dog'i giryon erur.
 G'arqamen ashk ichrakim, ishqing tanimni o'rtamas,
 Yo'qsa o't kim ko'rifikim, xoshok aro pinhon erur?
 Hajr o'qidinkim erur bag'rim aro yuz ming to'shuk,
 Har to'shuk bir ko'zdururkim, holima hayron erur.
 Husn maydonida ul ko'z chobukedurkim, anga
 Xoli mushkin go'yu zulfiug anbarin chavgon erur.
 Dahr bo'stonida bosh chekkan nihol atrofida
 Shox emas, novak degil, yafrog' emas, paykon erur.
 Tiyg' ila dushvor aylabsen Navoiy qatlini,
 Chehradin burqa'ni olg'ilkim, base oson erur.
 * * *

Ul pari ko'ngli uchun ruhim asiru zor erur,
 Bul'ajab toshi qanotsiz qushg'a badraftor erur.
 Har kecha qon birla jismim safhayi taqvimdek,
 Go'yи anjum tirnog'idin sarbasar afgor erur.
 Kofiri mastedur ul ko'zkiem, kamandi zulf anga
 Yeshibon yonida qo'yg'on rishtai zunnor erur.
 Baxti uyqusidin afg'onlar chekardi go'iyo
 Har kecha ko'z yummay anjum to sahar bedor erur.
 Yangla ko'nglum vasl TOPTI, rahm qil, ey oy, kim,
 Tund yeldin yangi butgan yorag'a ozor erur.
 Qatlama ul ko'z savodi hay'atidin bag'rig'a
 Bir qaro tosh bog'lag'on qon qilg'uchi xunxor erur.
 O'qusam nomangni nechu toblig' bexud tanim
 Go'iyokim nomani chirmab yuborgan tor erur.
 Chun quyoshdek yerga kirgung, ne asig', gar yuz quyosh
 Masnadning toqida har yon shamsayi devor erur.
 Tirguzub, debsen Navoiy jonig'a minnat qo'yay,
 Gar sen o'ltursangki, ul jon birla minnatdor erur.
 * * *

Bog' atri chu nasimi gulu sham dod berur,
 Yerning gul yuzu shamshod qadin yod berur.
 Borsa Parvez bori hashmati yelga ne ajab,
 Joni shirinni chekib ohki, Farhod berur.
 Jilva qildi qaddingu nargisu gul bo'ldi tonuq,
 Anga qulluq xatikim savsani ozod berur.
 Ko'mag'on bo'lsa yuzung mushafini tifli chaman,
 Nega gul daftari avroqini barbod berur.
 Ey ajal, sun bo'yun ul g'amzag'akim, bosh chekmas
 Har ne ta'limgi shogirdg'a ustod berur.
 Qilma bedod burunroqqi keturgaylar yuz,
 Angakim zulmkash el cheksa fig'on dod berur.
 Tiyg'i devona Navoiyni ne g'am qatl etsa,
 Chun anga jon yana ul huri parizod berur.
 * * *

Telba ko'nglum, vahki, har soat birov sori borur,
 Man' qildim ersa bag'rim og'rigurek yolborur.
 Qo'yдум ersa kelturur munglug' boshimg'a yuz balo,
 Qo'yumasam jong'a zarar yetgudek o'zidin borur.
 Qo'yumasam bu, qo'ysam ul, bo'lsa yuz jonim fido.
 Ul kishigakim hazin jonimni andin qutqorur.
 Aql vasvosini qo'ysam avlo ulkim, men dog'i
 Boshim olib ketgamen har sorikim, ul boshqorur.
 Soqyo, bir nav' men labtashna, yo'qkim og'zima,
 Har yaram og'zig'a quysang bir qadahni sipqorur.
 Ikki yuzluk bo'lmakim, bu bog'ning ra'nog' guli
 Gar qizorur bir yuzi, lekin yana bir sorg'orur.
 Qo'lda pinhon o't kibi topmas Navoiy ko'nglini,
 Har nechakim ishq kul qilg'on vujudin axtarur.
 * * *

Xasta ko'nglum azm etar ul sorikim jonon borur,
 Dam-badam jonioch qo'shiq, go'yo bu ham ul yon borur.
 Ko'nglum ichra to'qtamas la'lling xayoli bir zamon,
 Ne ajab o'lsmam, bu zaxmimdin chu har dam qon borur.
 Ondakim sensiz yetar beshak fig'onim, ey quyosh,
 Men bora olmon, netay ul yerdakim afg'on borur.
 Qomating jon qasdi etsa, kirpigingdurdur rahnamoy,
 Har qayon o'q borsa, oning ollida paykon borur.
 Yod etarlar vodiyyi ishq ahli Majnun sayrini,
 Bexabar har yon quyundekkim bu sargardon borur.
 Yo'l din oxir surma, sultonmen debon darveshni,
 Yod et ul yo'l dinki, ham darveshu ham sulton borur,
 Hajridin andoq zaif o'l mish Navoiy, ey pari,
 Kim qayonkim borsa sendek xalqdin pinhon borur.
 * * *

Xasta ko'nglum o'rtanur go'yo sevar jonioch borur,
 Yig'lag'um kelur, magar gulbargi xandonim borur.
 Ul quyosh hajrindakim joniochni o'tar g'am tuni,
 Sham' yanglig', ne ajab, gar durri g'altonim borur.
 Nil ila har yon alif ko'ksumga qozg'on, vah, ne sud,
 Kim alifdek qad bila sarvi xiromonim borur.
 Evrulub boshig'a, ruxsoridin o'tan, ey ko'ngul,
 Kuygucha hajrinda chun sham'i shabistonim borur.
 Men xud o'lgum, shukrim, ul ham bora olgusi yo'q,
 Tig'i hajri zaxmidin bu nav'kim qonim borur.
 G'oziy o'ldumkim, ajal bo'g'zumni buqqaykim, nedin,
 Men qolib mahjur, anga har lahza afg'onim borur?
 Ne namoz o'lg'ayki, o'zni ko'rguzub jam' ichra jam',
 Yuz parishonlig' sari tab'i parishonim borur.
 Ey Navoiy, shu'laliq joning ovuchlab, boshla yo'l,
 Kechqurun chun otlanib ul mast mehmonim borur.
 * * *

Ohim g'amingga gumbazi axzarni kuydurur,
 Har uchquni falakda bir axtarni kuydurur.
 Otashkada o'tida samandar topar hayot,
 Ko'nglum o'ti valek samandarni kuydurur.
 To qomatingg'a ne uchun o'xshatti bog'bon,
 Ohim samumi sarvu sanavbarni kuydurur.
 Bir o'tdurur tanimdakim, aning harorati
 Ko'nglakni kul qilur, dog'i bistarni kuydurur.
 Derlarki, og'iz o't desa kuymas, vale bu oh
 Chun sabt bo'lsa, xomau daftarni kuydurur.
 La'ling xayoli ko'ngluma o't soldi, vah, ko'rung,
 Ne tez erur bu bodaki, sog'arni kuydurur.
 Soqiy, g'am ichra o'ldi Navoiy - piyola tut
 Kim, g'ussalardin ushbu o't aksarni kuydurur.
 * * *

Tirguzur har dam raqiblarniyu meni o'l turur,
 O't yoqib el jonioch mening ichimni kuydurur.
 Ko'nglum ahvolin sabodin so'r dum ersa dedikim:
 "Telbalardek bir pari ko'yida sargardon yurur".
 Ul quyosh yuziga boqqon soyi ortar ko'z yoshim,
 Mehr tobidin agarchi har nekim, o'ldur qurur.
 Qon yoshim rangi yosherdi xotami la'l og'zini,
 O'yamoqda yoshr andoqkim uzukni yosherur.
 Senki yo'qsen mohruqlar jilva aylarlar valek,
 Kecha ishnor qurt nuri mshr chiqqoch bilgurur.
 Ul quyosh hijronida har tun iki munlug' ko'zum
 Tongg'a tegru subhidam yo'lig'a boqib telmurur.
 Tuzluk aylab sham'dek vah bilmadimkim bu ne hol
 Mehnat o'ti gul ochar, yosh qatrasi bar kelturur.
 Bul'ajablig'lar bahori ishq aro ko'r kim, meni
 Gah bulutdek yig'latur, gohi choqindek kuldurur.
 Zuhd ohangin Navoiy har nechakim soz etar,
 Bir navo birla mug'anniy yona yo'l din ozg'urur.

Hureki, mening jonima ofat stilibtur,
 To'bo kibi qad birla qiyomat yetilibtur.
 Ushshoq ko'zidin duru gavhar oqizurga
 Bir bahri jafo, koni malohat yetilibtur.
 La'ling mayikim, so'rg'ali devona bo'lubmen,
 Shirin ko'rur, lek bag'oyat yetilibtur.
 Ishqing chamanida ne tarab shoxiki ektim,
 Har birisi bir paxli nadomat yetilibtur.
 Yuz zarracha sargashtaligim bo'lsa, ne tongkim,
 Yuz mehrdin ul sho'x ziyyodat yetilibtur.
 Bu bog' aro qolmaydur ajal yelidin ozod
 Har gulgaki, savsan kibi qomat yetilibtur.
 Hijron g'amidin vahm etu shukr ayla, Navoiy,
 Bu lahzaki vaslig'a salomat yetilibtur.

Yor bordiyu ko'nglumda aning nozi qolibtur,
 Andog'ki qulog'im to'la ovozi qolibtur.
 Ko'z xonasini qildi barandocta bu ashk,
 Ko'z bordi, vale xonabarandozi qolibtur..
 Ko'nglum qushi to sunbulunguz domig'a tushti,
 Bulbul kibi har gul sori parvozi qolibtur.
 Ul qush safar aylab, ne tarab gulbunin ochqay,
 Kim bog' aro bir sarvi sarafrozi qolibtur.
 Men ishq ramuzin demay o'ldum, nazar etkim,
 Farhod ila Majnunning o'kush, rozi qolibtur.
 Taqlid qilib ko'ngluma ishq ahli chekar, oh,
 Ul ittiyu el ichra sarovozi qolibtur.
 Hijronu visolin ko'pu oz dema Navoiy,
 Yuz shukr dekim, ko'pi borib, ozi qolibtur.

Ko'zung ne balo qaro bo'luptur,
 Kim jonga qaro balo bo'luptur.
 Majmu'i davoni dard qildi,
 Dardingki, manga davo bo'luptur.
 Ishq ichra aning fidosi yuz jon,
 Har jonki sanga fido bo'luptur.
 Begona bo'luptur oshnodin,
 Begonaga oshno bo'luptur.
 To qildi yuzung havosi jonom,
 Yuz sori anga havo bo'luptur.
 Baqo topar ulki, bo'ldi fonyi,
 Rahravga baqo fano bo'luptur.
 To tuzdi Navoiy oyati ishq,
 Ishq ahli aro navo bo'luptur.

Yana hamdamim shu'lai g'am bo'lubtur,
 G'amim shu'lasi jong'a hamdam bo'lubtur.
 Ko'ngul pardasi ustida dog'i ishqing,
 Bu tug'ro uza naqshi xotam bo'lubtur.
 Qilib xoki ko'yungni balchiq sirishkim,
 Tutashqon yalang tang'a marham bo'lubtur.
 Netib kuymayinkim g'amming kovkovi
 Yetibtur, ko'ngul uyi barham bo'lubtur.
 To'libtur ko'ngul ishqing o'tidin andoq,
 Ki ko'p o'q dog'i o'qqa mahkam bo'lubtur.
 Tutub bir qadah anglat, ey dayri piri,
 Ki bu korgah sirri mubham bo'lubtur.
 Navoiyg'a rahm aylagil, ey parivash
 Kim, ul telba rasvoi olam bo'lubtur.

Istasam bo'sa labidin, jon tilar jonon evaz,
 Ko'ngli birla desa jonon ozdurur yuz jon evaz.

La'lin og'zimg'a olo olmon, ayogi tufrog'in,
 Topsam etmon maks agar jon istasa jonon evaz.
 Poybo'si ham emas haddim, ayog'i tufrog'i,
 Gar muyassar bo'lsa jon bermoq bo'lur oson evaz.
 Itlarining xoki poyin ko'rgali ham rozimen,
 Gar tilar oldik qaroru hushu xonumon evaz.
 Vasl gar bo'lmas muyassar, yuz tuman jonu jahon,
 Gar berilsa o'truda bermoq emas imkon evaz.
 Soqyo, tut la'lgun may bahridin zavraq bila
 Kim erur bir jur'asig'a naqdi bahrus kon evaz.
 Ey Navoiy, ishq tarkin aylagil, nevchunki men
 Vasl uchun jon berdimu bo'ldi manga hijron evaz.
 * * *

Ey quyosh vasfin demaktin mohi ruxsoring g'araz,
 Obi hayvon zikridin la'di shakarboring g'araz.
 Ulki, debturlar badan bo'stonida ruhi ravon,
 Ahli ma'nii ollida qad birla raftoring g'araz.
 Jilvagar kavsar zulolida quyoshning lam'asi,
 Ko'zgu ichra chehra aksidin namudoring g'araz..
 Sayl mavjidian raqibi xonapardozing murod,
 Abr sayridin sadandi barqkirdoring g'araz.
 Ey ko'ngul, Farhed tog'i birla metin zaxmidin,
 Dardu mehnat shiddatidin jismi afgoring g'araz.
 Ul quyoshqa, ey falak, har zarrani zor etmashim,
 Zarrai maqsud yo'q juz bizga ozoring g'araz.
 Ey Navoiy, umr bobida vafosizlik so'zi
 Kim bo'lur mazkur, erur sho'xi jafokoring g'araz.
 * * *

Ichib ul sho'x gulgul qildi la'li nob ila oraz.
 Meni mahzun nechukkim dam-badam xunob ila oraz.
 Magar simobi ashkim qilgali shingarfgun ul sho'x
 Kilur shingarf'din gulguna yub simob ila oraz.
 Ham ul kun mehri iqbolimni shomi g'am nihon qildi,
 Kim ul gul qildi pinhon sunbuli serob ila oraz.
 Quyoshning partavi birla agar ul yuzni teng tutsa,
 Erur andoqli teng tutqay quyosh mahtob ila oraz.
 Magar zanjiri zulfung shomida motam nasibimdur,
 Ki har soat xarosh aylarmen ul qullob ila oraz.
 Qoshi birla ishorat sajdaga aylar xush ul davlat,
 Ki aylab sajda ravshan qilsam ul mehrob ila oraz.
 Dema qish sovug' ohimdin dururkim chekti ul chobuk
 Qoshi ustida kpsh bo'rkin yopib sinjob ila oraz.
 Talab yo'linda yuz qo'y har eshik tufrog'iga, ya'ni
 Bir ahli dil oyog'iga yetur har bob ila oraz.
 Navoiy orazi sorg'ordi g'am yeb bexud o'lmos' din,
 Nechuk sorg'ormagay bu nav' xo'rdu xob ila oraz.
 * * *

Ey, latofatda sanga lolau nasrin oraz,
 Bizga oning g'amidin qon bila rangin oraz.
 Meni ul ko'yida bexud ko'rub el der: o'lmiss
 Qo'yibon ollida tufroqqa miskin oraz.
 Naylayin ul qaddu oraz g'amidin bog'nikim,
 Anda yo'q sarv sifat qaddu gul oyin oraz...
 Har biri tavrida ul orazu labi o'lturadur,
 Kim base tuzluq erur ul labu shirin - oraz.
 Yangi gulbarglari hoshiyasidin bo'lmiss,
 Orazing ollida zoli anga purchin oraz.
 Demakim, bog'da yeldin to'kulubtur gulkim,
 Xo'blar qo'ysi ul oy yo'lida chandin oraz.
 Chun Navoiy ko'rubon yor yuzin, jon berdi,
 G'amza ta'riz etibon, ayladi tahsin oraz.
 * * *

Gar budur qomati ra'no bila zebo oraz,
 Sarv bo'y chekmasu ochmas guli ra'no oraz.

Orazin sabzaga har gulshan aro surtormen,
 Sango to sabzai tar ayladi paydo oraz.
 Toqatim yo'q iki o't birla meni o'rtarga,
 Otashin la'l manga ayla ayon yo oraz.
 Parda yopqilki xating ayladi behol meni,
 Men xud o'ldum qila olmasqa tamoshlo oraz.
 Orazimni bir ayoq birla qizort, ey soqiy,
 Necha surtay ayog'ingga meni rasvo oraz.
 Oyga gulgucha magar surtti mashshotai charx,
 Yo sanga maydin erur gul kibi humro oraz.
 Ey Navoiy, tilasang davlati boqiy topmoq,
 Olmagin dayri fano yo'lidin aslo oraz.

* * *

Emas g'amimni yozar xatqa zarfishon kog'az,
 Ki shu'la chekti tamimdin bitir zamon kog'az.
 Sipehr davri bu sartashta ohidin bo'l mish,
 Magar bu oh tutun bo'l mish, osmon - kog'az.
 Tirilmisham biticingdin qilurda muhr magar,
 Labingga tegdiyu kelturdi tuhfa jon kog'az.
 Uzoru la'li labing vasfini qachon yozdim,
 Okib ko'zum yoshi gulrang bo'ldi qon kog'az.
 Ochildi xasta ko'ngul ruq'asin yaramg'a yopib,
 Yorug' bo'lur emish uy bo'lsa tobodon kog'az.
 Yozar farishta quyosh safasig'a vasfingni,
 Magarkim, ul falaki topmas obdon kog'az.
 Ko'ngul shitofiga kog'az aro erur marham,
 G'amim so'rarga raqam qilsa dilsiton kog'az.
 Ko'ngul sahifasin asra xutur bahridin,
 Ki suvga zoyi' o'lur tushsa nogahon kog'az.
 Xumor dafiq'a qulluq xatin tilar soqiy,
 Navoiyo, dema hujjat ketur ravon kog'az.

* * *

Yuzung firoqida har oh o'tinki chektim tez,
 Ul o't sharoralari bo'ldi har taraf gulrez,
 Qazo musavviri guyo hal etti la'li rang,
 Labing aqiqini aylar' mahalda rangomez.
 Labing malohati g'avg'o qo'pordi olamdin,
 Shakarni bo'yla kishi qayda ko'rdi sho'rangez.
 Itingki, sherzabundur, anga topa olmon
 Desam, ko'ray ani boshimdin o'zga dastovez.
 Chu keldi xastalig'im so'rg'ali qadah no'shum,
 Ketur piyolaki, o'lsam ham aylamon parhez.
 Desang zamona sitezini har zamon ko'rmay,
 Zamponni xush tut-u qilma zamona birla sitez.
 Guli saboh yuzin ko'rmagaysen, ey bulbul,
 Bu gulshan ichra Naveiydek o'lmasang shabxez.

* * *

Shahsuvorim tavsani aylarmu oyo po'ya tez,
 Yo quyosh turki falak raxshin qilibtur garmxez.
 Ul shihob ermaski maydoni aro go'y o'lgali,
 Sa'd kavkablar tushar yerga qilib ko'ktin gurez.
 Gardlig' chavgon xamida axtar o'lg'oy o'ylakim,
 Go'yi g'abg'ab davrida chavgon zulfi mushkbez.
 Markabi ter qatrali birlaki haryon sochilur,
 Bir sahobi durfishondur yer yuziga qatrarez.
 Go'yi chavgon zarbidin tutmoq bila har dam havo
 Bim erurkim shishai gardunni qilg'oy rez-rez.
 Soqijo, may berki, bu davron aro go'y urdi ul
 Kim, falak chavgoni birla qilmadi mardum sitez.
 Go'y uchun indi kavokib gardidin yer tutti avj,
 Ey Navoiy, voqif o'l go'yoki bo'ldi rustaxez.

* * *

Bizga jonon vasli uldurkim, jamolin ko'rgabiz.
 Parda ruxsoridin ochib, zulfu xolin ko'rgabiz.

Bo'lsa maydon ozimi, yo'lida tufrog' o'lq'abiz,
 Qolsa gulgashti chaman, ra'no niholin ko'rgabiz.
 Tnyrboroni balo yog'dursa jonlar qasdiga,
 Kovaki mujgon bila mushkin hilolin ko'rgabiz.
 Ko'zga barham jilva ber bazmi visolin, ey sipehr,
 Vah, necha ko'z ollida xayli xayolin ko'rgabiz.
 Ko'zgu ul yuz jilvagohidur debon qildiq nazar,
 Yo'q bu ma'nii birlakim ul yuz misolin ko'rgabiz.
 Vasli bazmi ayshi chun elga nasib o'ldi zarur,
 Kim baliyat chohining ranju malolin ko'rgabiz.
 Yo'q hazin ko'nglumdin o'zga yordin bekomu bahr,
 Necha ushshoq ichra oning infioli ko'rgabiz.
 Ichsalar kom ahli sofi ayshu biz qolsak tirik,
 Dayr aro mayxonaning singon safolin ko'rgabiz.
 En Navoiy, zarraga xurshid vaslidin dema,
 Muncha baskim jilvada gohi jamolin ko'rgabiz.

* * *

O'ting, ishrat ahliki, biz zorlarbiz,
 Tuman ming balog'a giriftorlarbiz.
 Ko'ngulni qilib yuz yara ishq o'qi,
 Tarahhum qilingkim, dilafgorlarbiz.
 Tilarbiz shifo bir Masiho nafasdin,
 Ki bu ko'hna dayr ichra bemorlarbiz.
 Yorutqoy debon ko'zni bir sa'd kavkab,
 Har aqshom tong otquncha bedorlarbiz.
 Sabukruh soqiy, fano jomi tutqil,
 Ki o'zluk yukidin garonborlarbiz.
 Muyassar esa do'stning vasli bir dam,
 Berib ikki olam, xaridorlarbiz.
 Navoiy kabi ichgali ishq jomin,
 Xarobot ko'yida xummorlarbiz.

* * *

Ey visol ahli, mening holim ko'rub, rahm aylangiz,
 Yor zulmi gah-gahi yetsa, shikoyat qilmangiz.
 Ey ibodat xayli, pandim berg'ucha tengri uchun,
 Yerga rahmu mang'a sabru tahammul istangiz.
 Aqlu, sabru, zuhdu, taqvo, jonima qilmang g'ulu,
 Chiqti mast ul sho'x, turmay emdi har yon butrangiz.
 Ko'zu ko'ng'lumdin edi ranjim, oni ko'r ayladim,
 Bo'lsa bu devona paydo, solib o'tqa o'rtangiz.
 Men fano dashtida tufrog' o'lsam, ey ahli niyoz,
 Ishlarim dostonlarin olmoqqa talqin asrangiz.
 Egma qaddim xam bo'lub turmoq uchun, ey sho'xlar,
 Yaxshidur cholokliklar birla sekrib o'ynangiz.
 Bir parivash ishqidin miskin Navoiydur biling,
 Dashr aro oshuftau majnunsifatliq ko'rsangiz.

* * *

Ul pari ko'yida men devonani band aylangiz,
 Band-bandim zulfi zanjirig'a payvand aylangiz.
 Xalq tarki ishq aylarga meni dilxastani,
 O'lthurub olam eliga mujibi pand aylangiz.
 Telba ko'nglum topsangiz, ey yor ko'y i tlari,
 To'sh-to'shidin tishlabon, parkand-parkand aylangiz.
 Bodai ishq asru mast etmish meni, ey do'stlar,
 Jomima afyun ezib bir dam xiradmand aylangiz.
 Yig'lasam achchig' malul o'lmoq nedur, ey xo'blar,
 Hazl uchun gohi boqib, siz ham shakarxand aylangiz.
 Ishq bahrida duri vasl istasang, ey ahli dard,
 Ko'nglunguz ul naqd yodi birla xursand aylangiz.
 Qilsangiz tasvir Layli husnin ul oydek sizing,
 Lek Majnunni Navoiy birla monand aylangiz.

* * *

Nozaninlar, benavolarga tarahhum aylangiz,
 Lutf agar yo'qtur, g'azab birla takallum aylangiz.

Gah biyik, gah past giryon ko'rsangiz ushshoqni,
 Fosh kulmassiz, nihon bore tabassum aylangiz.
 Hajr zulmidin qotiq holimni, ey jodu ko'ngul,
 Bildingiz, yor ollida borib tazallum aylangiz.
 Ey balou dard, o'tlar xud solibsiz jonima,
 Lek siz ham gah-gah ul o'ttin tavahhum aylangiz.
 Qon agar yutsam qarorib axtarim, ey xattu xol,
 Siz mayi la'lil bila bore tana'um aylangiz.
 Biz fano tufrog'i bo'lduq dayr aro, ey ahli zuhd,
 Xonaqah sahnida siz bahsi taqaddum aylangiz.
 Ey mug'anniylar, Navoiy mast edi - kech uyg'onur.
 Oni uyg'otmoqqa bir dilkash tarannum aylangiz.

* * *

Tufrog'imdin koshki jisme murattab qilsangiz,
 Sir it o'lsa ko'yida ruhig'a qolab qilsangiz.
 Yetmagay chobukuvorim gardig'a, ey ahli ishq,
 Mehrni rokib qilib, gardunni markab qilsangiz.
 Podapo'shum bazmi g'avg'osidin, ey jonu ko'ngul,
 Sam'iga yetmas necha faryodu "yo rab" qilsangiz.
 Olami ishq uzra bas loyiqdurur, ey dardu, shavq,
 Dudi ohimni sipehr, ashkimni kavkab qilsangiz.
 Markabi na'lin mujallo qilg'uchilar zeb uchun,
 Orazimg'a surtung ul damkim, muzahhab qilsangiz.
 G'ayri no'shono'sh azal soqiysidin kelmas xitob,
 Bizni, bas, may jurmidin bo'lmas muxotab qilsangiz.
 To Navoiy, qismat o'lg'on mayni ichmas chora yo'q,
 Do'stlar, avlo bukim jomin labolab qilsangiz.

* * *

Istaganlar, bizni sahroi baloda istangiz,
 Vodiyi hijron ila dashti fanoda istangiz.
 Vomiqu, Farhodu Majnundeklar ul vodiy aro
 Bo'lsalar paydo, meni ham ul aroda istangiz.
 Yuz alarning ishqicha dardu, balou g'ussaga
 Tolib ol boshiga qolgan mojaroda istangiz.
 Eyki, istarsiz savodul vajh fiddorayndin,
 Boxabar bo'lmoq meni yuzi qaroda istangiz.
 Ko'nglum ul zulf ichradur, zinhor ishqim sharhini
 Istamang men telbada, ul mubtaloda istangiz.
 Nuqta yanglig'kim, vafo uzra qilur kotib raqam,
 Ishq o'tining dog'ini ahli vafoda istangiz.
 Og'zi shavqidin Navoiy itti, oni istar el
 Yo adam dashtida, yo mulki fanoda istangiz.

* * *

Bir parivash volihi bo'ldum, meni majnun dengiz,
 Shomi hajrim tuli savdosini ro'zafzun dengiz.
 Dudi ohimdin shararlar bo'lsa ko'nglum o'tidin,
 Olami ishq ichra oni anjumi gardun dengiz.
 So'rsa ko'nglum holimi ishq ahli lahni nazm ila,
 Oni rasvo ayladi bir qomati mavzun dengiz.
 Ranji ishqimni dengiz Farhodu Majnun birla teng,
 Dard ila hajrim bisotin tog' ila homun dengiz.
 Bir yuzi gulgun g'amidin yuz tigan ko'nglumdadur,
 Xorxorimning iloji bodai gulgun dengiz.
 Do'stlar, ishq ahli g'avg'osin tafahhus qilsa yor,
 Dardi hajring shiddatidin o'ldi bir mahzun dengiz.
 May to'la aylab Navoiyg'a tutung, ey ahli bazm,
 Ichmasa, g'am yerga arzimas bu dahri dun dengiz.

* * *

Zamone garchi yodim qilmas ul nomehribon hargiz,
 Fig'onkim, yodi chiqmas xotirimdin bir zamon hargiz.
 Oti og'zim aro mazkur o'larmen, ohkim, bo'lmay
 Otim og'zig'a bir mazkur o'lurg'a komron hargiz.
 Ko'ngul to vodiy ishqig'a tushti, qilmadi bir ham
 Vatanni yod ul ovorai bexonomon hargiz.

Labidinkim ko'zum yoshi jahonni la'lgun qildi,
 Bag'ir juzvidin ayru topmadi bir qatra qon hargiz.
 Iti faryodini yoqmag mangakim xo'yidin umre,
 Ulug'roq tinmadim, ne nav' chekkaymen fig'on hargiz.
 Yorib ko'ksum junun ta'vizidek jon pardasin ochma,
 Ki fosh o'lmaydur ul qonlig' necha dog'i nihon hargiz.
 G'amu anduh ya'jujig'a har devor saddedur,
 Fano mayxonasidek topmaduq dorul-amon hargiz.
 Bu damni tut g'animatkim, kelur damdin asar yo'qtur,
 Ne damkim o'tti, xud andin kishi topmas nishon hargiz.
 Qiron qilding, Navoiy, nazm arokim iltifot etmas,
 So'zungdin o'zga so'zga xisravi sohibqiron hargiz.
 * * *

Ko'yung borida qilmon jannatg'a guzar hargiz,
 Qadding qoshida solmon to'big'a nazar hargiz.
 O'qungga ko'ngul moyil, mujib nedur, ey qotil,
 Kim o'tganidin bo'lmas ko'nglumga xabar hargiz.
 Bu jismi nizor ichra ko'nglumni gumon qilmang,
 Shoxeki qurur, anda kim ko'rdi samar hargiz?
 La'lingda malohatdin jon komidadur lazzat,
 Bu ta'm qachon bergay tuz birla shakar hargiz.
 Ko'nning'a fig'onimdin rahm o'lmasa, ey bulbul,
 Gul g'unchasig'a bormu nolangdin asar hargiz.
 Nil o'Isa sening xasming, desangki zarar topmay
 Bir nashshag'a olamda yetkurma zarar hargiz.
 Maxlas tilasang g'amdin dahr ichra Navoiydek,
 Qo'ymagasen ilgingdin sog'arni magar hargiz.
 * * *

Ne g'am xumor qildi esa qasdi jonimiz,
 Bordur chu kunji maykada dorul-amonimiz.
 Mug' kulbasiki, tengri anga bermasun zavol,
 Bor xuldu salsabil dame armug'onimiz.
 Kel bir dam, ey harif, xarobot sorikim,
 May vajhidur bu xirqa bila jilsonimiz.
 Ul sho'x bizdin ayruki ayshi nihon qilur,
 Billah, bu nav' yo'q edi andin gumonimiz.
 Ey aql, qo'y fasonaki bir vaqt bor edi,
 Har poya minbar uza mulki darsxonimiz.
 Tutmaduq ixtiyor ila mayxona shar'in,
 Qismat hukmi bila chevurdi inonimiz.
 May ichmasang, Navoiy, ziyondur debon, ne sud,
 Yo'qtur o'z ilgimizda chu sudu ziyonimiz.
 * * *

Bormakim, bir dam o'zumni bila olmon sensiz,
 Kelki, bir lahza tahammul qila olmon sensiz.
 Chiqma ko'nglumdin, o'lar vaqtkim ul g'urbatda,
 Jonu tan kishvaridin ayrila olmon sensiz.
 Boda bazmida nashotim tilasang, soqiy bo'l
 Ki, mayi kavsar ichib, ochila olmon sensiz.
 Mayi ishqing bila bexudmen, agar hush manga
 Istanasang, kel berikim, oyila olmon sensiz.
 Gulu bulbuldek otim sensiz emas el tilida,
 Shukrkim, so'zda dog'i aytila olmon sensiz.
 Ne g'am ovoralig'im, jonim aro chun sensen,
 Istagani elga dog'i topila olmon sensiz.
 Chun Navoiy seni ko'rmay nafase bilmas o'zin,
 Bormakim, bir dam o'zumni bila olmon sensiz.
 * * *

Navbahor ayyomi bo'l mish, men diyoru yorsiz,
 Bulbul o'lg'ondek xazon fasli gulu gulzorsiz.
 Goh sarv uzra, gahi gul uzra bulbul nag'masoz,
 Vahki, menmen gungu lol ul sarvi gulruxsorsiz.
 Tong emastur, gar diyoru yorsiz ozurdamen,
 Kim emas bulbul gulu gulzorsiz ozorsiz.

Ravza ashjori o'tundur, gullari jonimg'a o't
 Mumkin o'lса anda bo'lмog'lig' dame dildorsiz.
 May chu berding, zulf ila band et meni, ey mug'bacha,
 Kim xush ermas mug' bila ichmak qadah zunnorsiz.
 Topmaduq gulrang jomi bexumor, ey bog'bon,
 Vahki, bu gulshan aro gul butmas ermish xorsiz.
 Ahli zuhd ichra Navoiy topmadi maqsadqa yo'l,
 Vaqtingizni xush tutung, ey jam'kim, xummorsiz.
 * * *

Jamoateki, junun man'ini manga qilasiz,
 Tosh otibon ne uchun telbalarga qotilasiz?
 Keting, ko'ngul bila jonkim, vido'ingiz qildim,
 Firoq agar budurur erta kunni kech qilasiz.
 Firoq kunidur, ey ko'zlar, emdi qon yig'lang,
 Bilurmusizki, bu kun ne kishidin ayrlasiz?
 Ko'zum haqini bihil kildim, ey javohiri ashk,
 Ki bori ham aning-o'q maqdamiga sochilasiz.
 Firoq peshlari, vahki, yana rahm etmay,
 Nafas-nafas nega majruh ichimga sonchilasiz?
 Ko'ngul fasonalari, sizni, vah, netub yashuray,
 Bu nav'kim, yuz uza qop yosh ila yozilasiz.
 Navoiy hajrg'a qoldi, qiling visolda shukr
 Jamoateki, sevar yoringiz bila bilasiz.
 * * *

Tengri bermish ul pari paykarga andoq tor og'iz,
 Kim kishi bilmaksi, anda yo'qmudur yo bor og'iz.
 Ignasi birla Masih og'zin tikib, urmas nafas,
 Jon berurga ochsa ul sho'xi shakar guftor og'iz.
 G'unchalar xandon emas gulshandakim, har soridin,
 Ochti gulro'yum duosin qilg'aln, gulzor og'iz.
 Turfa ko'rkim, so'z bila ham o'lтурur, ham turguzur,
 Chun ochar muhlik so'z ayturg'a masihovor og'iz.
 Orazing davri erur xurshid davridin nishon,
 Qanda mehr ichra ko'rungay nuqtai pargor og'iz.
 Og'zima yetkur qulqoq, bilkim, sening zikringdurur,
 Ul zamонkim jon berurda tebratur bemor og'iz.
 Soqyo, ratli garon birla meni serob qil,
 Kim qurubtur tashnalablig'din manga bisyor og'iz.
 Eyki ko'nglung sиррин, istarsenki, pinhon asrasang,
 Dahr bog'i ichra ochma g'unchadek zinhor og'iz.
 * * *

Sarv kim ko'rdi oning ustida mohi dilnavoz,
 Oy qachon qildi tulu' - ostida oning sarvinoz.
 Ma'nı ahlida bu suvrat zohir o'ldi har qachon
 Kim, shabiston ichra qildi jilva ul sham'i tiroz.
 Ne g'arobatlar ekin ul oydakim, har dam qolur
 Husnining sar diqqati kashfida hayron ahli roz.
 Beedad nozi bila behad niyozim sharhida,
 Daftare yozib, otin qo'yemoq bo'lur "Nozu Niyoz".
 To xayoling ko'zdadur, ko'z uyi go'yo Ka'badur,
 Kim turub atrofidin kirpiqlarim aylar namoz.
 Demang ul sho'xi balo usruk yetishti, qil hazar,
 Vah, netaykim, bu balodin aylayolmon ehtiroz.
 Ey Navoiy, qalbu jon naqdin magar pok o'ynading,
 Ul muqomir shevag'akim bo'ldi oting pokboz.
 * * *

Jilvamu qildi sarig' bo'rkin kiyib ul sarvinoz,
 Yoki chekti shu'lа axzar jism ila sham'i tiroz?
 Kuysa majnun ko'nglum ul yuz lam'asidin, tong emas,
 Ne uchunkim aylamas devona o'tdin ihtiroz.
 Ulki ermas ishqи poku sajda aylar ko'rsa husn,
 O'yladurkim aylagay fosiq taboratsiz namoz.
 Rozi ishqing derga paykoning erur ko'nglumga til,
 Lol til birla qilur ermish takallum ahli roz.

Sekritib chiqti yana maydon sari ul turk mast,
 To yana qaysi ko'ngul mulkiga qilgay turktoz.
 Ishq agar komildurur, oshiq qilur ma'shuqnii,
 Yo'qsa, nevchun ayladi Mahmudqa qulluq Ayoz?
 Har maqom ichraki bo'l sang oyru bo'lma yordin,
 Ey Navoiy, hojat ermas qilmoq ohangi Hijoz.
 * * *

Ey sabo, jonim halokin ayla jonomimg'a arz,
 Yo'qki jismi notavon ahvolin et jonomimg'a arz.
 Oh dudin, ashk qonin, nola maddin aylagil
 Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi xiromonimg'a arz.
 Kufri zulfi, dinu imonimni barbod aylabon,
 Qilg'onin jon qasdi etgil nomusulmonimg'a arz.
 Ba'dai vaslig'a yetmay o'lqanimni, ey rafiq,
 Qilg'asen har yerda ko'rsang ahdi yolg'onimng'a arz.
 Oshiq o'lurmakka chiqmish mast, ishqim so'zin,
 Ey raqib, etsang ne ul beboki nodonimg'a arz.
 Vasl shavqi g'olibu men gungmenkim, aylamak
 Hojat ermas koshifi asrori pinhonimg'a arz.
 Ey Navoiy, hajr zindonida jonning xavfi bor,
 Qilg'osen topsang mahal albatta sultonimg'a arz.
 * * *

O'zga bo'ldi yoru mehri menda boqiydur hanuz,
 Notavon ko'nglumda ul oy ishtiyoyqidur hanuz.
 Garchi o'zga yor istar xotirim, bordur valek
 Jon anga manzil, ko'ngul oning visoqidur hanuz.
 G'ayr ishqko'nglum evinda nechuk qilg'ay nuzul,
 Kim xayoli maskani ko'zum ravoqidur hanuz.
 Ishq ila may tarkin, ey nosih, ne nav' aylay qabul,
 Kim ko'ngulga orzu ul turfa soqiydur hanuz.
 Furqat o'ti dofin dog' o'rtamakdur demakim,
 O'rtagan jonom ul oy dog'i firoqidur hanuz.
 Charx yolg'uz qilmadi Farhod qonin lolazor,
 Lola qonin to'kkuchi oning nifoqidur hanuz.
 Ey Navoiy, garchi meni mehrsiz der erdi yor,
 O'zga bo'ldi yoru mehri menda boqiydur hanuz.
 * * *

G'amida ko'nglum erur ishq mubtalosi hanuz,
 Boshimda bordurur ul sarvqad havosi hanuz.
 Yuzung firoqida har bir ko'zum mening bir dog'
 Quyubturur, vale tushmaydurur qarosi hanuz.
 Faqih qildi duo: "Ishqdin qutulgil" deb,
 Qabul qurbida ermas emish duosi hanuz.
 Nechuk tama' qilayin mehr ila vafosinkim,
 Haqir jonica darxo'rd emas jafosi hanuz.
 Halok o'qi ko'zung urmish ko'ngulga, topmaki, bor,
 Yonida kirpigu qoshingdin o'qu yosi hanuz.
 Haloking o'lg'ali jon ko'z qarordi, vah, yuz ochib,
 Qarodin oni chiqargilki, bor azosi hanuz.
 Sipehr zulmidin ul nav' motamiydur subh,
 Ki umrlar o'tubon chok, erur libosi hanuz.
 Navoiy jon berur, ul muddaiyni mahram etar,
 Bu ishcha yuz ming emastur aning sazosi hanuz.
 * * *

Yor etti mehr tarkiyu men bormen hanuz,
 Ishqi salosilig'a giriftomen hanuz.
 Hajrim tuniki yilcha edi bu umid ila,
 Kim kelgasen, yo'lung uza bedormen hanuz.
 Kelgach, ko'ngul yarosi yovushti o'pgalgali,
 Bir lahma bormag'ilki, dilfigormen hanuz.
 Bozori husn davrida har necha xayli xat,
 Qildi g'ulu valek xaridormen hanuz.
 Ey shayxi soda, zuhduma har kun inonmakim,
 Tunlar muqimi kulbai xammormen hanuz.

Men o'lgali ko'p erdiyu itlar fig'onidin,
 Qilding gumonki, ko'yung aro bormen hanuz.
 Aylab falakni jom sumurdum, Navoiyo,
 No'sh tut bu bazm ichindaki, hushyormen hanuz,
 * * *

Yo'q hadim qo'ymoqqa aning raxshi tuynog'ig'a yuz,
 Basdurur, gar surta olsam yo'li tufrog'ig'a yuz.
 To'nungga yuz surta gar olmon, chamanda har shajar
 O'xshasa qaddingg'a, surtay barcha yafrog'ig'a yuz.
 Raxshining dog'ig'a mumkin bo'lmasa yuz surtarim,
 Surtayin jismimda ishq o'tining dog'ig'a yuz.
 Ko'yiga yo'l topmasam, do'zax sari borg'ancha bor,
 Komu osoyish uchun qo'ymoq Eram bog'ig'a yuz.
 Do'stlar, qatlimg'a andoq keldi ul sultonni husn
 Kim, salotin qo'yimag'aylar qatl uchun yog'ig'a yuz.
 Ishqdin Farhod ila Majnuncha men qo'ymoq bila
 Gah junun dashtig'a gomu gah balo tog'ig'a yuz.
 Ey Navoiy, vasl oson erdiyu hijron qotig',
 Ko'rki, osonliq tilab, qo'ydum qatiqrog'ig'a yuz.
 * * *

Ey, o'lukni tirguzur chog'da surub durbor lafz,
 Dam-badam zohir qilib lutfung Masih osor lafz,
 Qadding ul naxlik, bori gavhari alfoz erur,
 Olloh-Oolloh, ne qad ra'novu gavharbor lafz.
 La'li har lafzida ma'ni ko'pturur, yo'q tifldek,
 Bir adoye ma'ni aylarda degay bisyor lafz.
 Orazing vasfida ko'p so'rsam quyosh lafzin, ne tong,
 Ajz esa ma'ni adosida topar takror lafz.
 Hajr aro andoq topibdu noladin bo'g'zum xirosh
 Kim, bo'lur dardi dilim aytur zamon afgor lafz.
 Bemalohat xo'bkiem debo kiyor bor uylakim,
 Ma'ni o'lg'ay choshnisizlik anga pargor lafz.
 Ey Navoiy, ko'nglungga bersang safo, yor ollida
 Fosh o'lur sirring, ne hojat aylamak izhor lafz.
 * * *

Ko'nglum oldi yor, chun yuziga boqib turdi ko'z,
 Vahki, oldurdi ko'ngul, har kimsakim oldurdi ko'z.
 Boq'ach ul qotilg'a, soldi boshima tig' uzra tig',
 Olloh-olloh, ne balolar boshima kelturdi ko'z.
 Hajr shomi ko'z yoshim boshimdin oshti, uylakim
 Su yo'lin har sari aylab raxnalar, bilgurdi ko'z.
 Oh o'tidin ayladi zohir ko'ngul barqi balo,
 Nechakim ko'nglumga ofat yomg'urin yog'durdi ko'z.
 Ko'hi dard o'ldum menu telegramda sabru xush elin,
 Yog'durub yoshini, sayli ashk birla surdi ko'z.
 Hajr kojidin ko'zunga har zamon o't choqilur,
 Bu choqinlarg'a tanim xoshokini kuydurdi ko'z.
 Oh o'tidin bori qutqardi bukim ashkim aro,
 Su kishisi yanglig' o'z mardumlarin yoshurdi ko'z.
 Nahs yulduzdek ko'zi chun tushti, barham bo'ldi bazm,
 Muhtasib mayxona ahli bazmig'a yetkurdy ko'z.
 Ey Navoiy, istama mendin ko'ngulkim, yog'durub
 Jolai ashkin, ko'ngulning shishasin sindurdi ko'z.
 * * *

Yopilmas gar menga qonlig' sudin ko'z,
 Senga lekin ochilmas uyqudin ko'z.
 Yuzung lavhida vajhulloh ayondur,
 Ne tong gar olmasam ul ko'zgudin ko'z.
 Boqa olman yuzung ollimg'a kelsa,
 Qamashur mehr ko'rgach o'trudin ko'z.
 Ko'zung el qoni to'kkandin hasad yeb,
 Ne qonlarkim to'kar ul qayg'udin ko'z.
 Emassen holima xandonu giryon
 Qi, yosharmish senga ko'p kulgudin ko'z.

Qadah charxida may mehrini, soqiy,
Solib yorut manga ul yog'dudin ko'z.
Navoiy mast ko'nglin ashk oqizdi,
Gum etdi oxir aning bexudin ko'z.

To'kti qonimni - mening sari chu ochti yor ko'z,
To'kmayin qon naylasun ul qotili xunxor ko'z.
Ko'zu ko'nglumdin balolarg'a yo'luctum, koshki
Itsa besomon ko'ngul, ko'r o'lsa yig'lab zor ko'z.
Hajr tig'i birla urma onchakim, ko'rsun seni,
Har ne qilsang qil, chu topti davlati diydor ko'z.
Vah, nelar bo'lg'ay yana tushsa ko'zum ul ko'zgakim
Ul biri xunrez ko'zdur, bu biri xunbor ko'z.
Ko'z uchidin va'dai vasl aylab imo oldi jon,
Go'yijo bozi berib jon oldi ul ayyor ko'z.
Bir yuz ochib, chok etib ko'nglumni, ko'zung urdi nish,
Bo'ldi bu ishtin ko'ngul mammunu minnatdor ko'z.
Istasangkim, surmai maqsud ila ko'z yorug'ay,
Surma kun tunlarda hijron shomi tut bedor ko'z.
Ko'zu ko'nglungga desang ul yetkach ofat yetmasun,
Sa'y etib to'xtat ko'ngulni, asrag'il zinhor ko'z.
Ey Navoiy, to'tiyoyi vaslg'a qobil bo'lur,
G'am yema, gar bo'lsa hijron xoridin afgor ko'z.

Ey yuzung bog'i nasimida havoyi navro'z,
La'li tojing bo'lub ul bog'da bo'stonafro'z.
Zulfa ruxsor ila komimg'a meni yetkursang,
Har tunung qadr o'lubon, har kunung o'lsun navro'z.
Ko'nglum ul lu'bat iligida giriftor o'l mish,
Qushni ul nav'iki la'b ahli qilur dastomuz.
Dardi hajringda kuyar ko'nglumu o'z holimg'a
Kishisizlikdin o'zumdurmen o'zumga dilso'z.
Dahr zolig'a ko'ngul bermaki, Rustamlarni
Makr ila ayladi ojiz bu sitamgora ajuz.
Ko'k jafosidin o'lur xobgahing bo'z tufrog',
Bo'lsa ostingda sipehr ashhabi yanglng' ko'k bo'z.
Ey Navoiy, senu Xusrav bila Jomiy tavri
San'atu rangni qo'y, so'zda kerak dard ila so'z.

Manga ul ko'zi qora dedi chuchuk chandin so'z,
Ne ajab ani qorako'z desamu shirin so'z.
Labi yuz va'dani andoq manga yolg'on qildi
Ki, dey olmas kishi yuz yilda bir andoq chin so'z
Hajring afsonasidin so'z der esam vasl tuni,
Topmag'ay tongg'acha tun yilcha esa taskin so'z.
Beliyu la'li labi ollida lol o'ldi xirad
Kim, erur biri daqiqu biri bas rangin so'z.
Har fasohatki, labing qildi, Masiho eshitib,
Jon topib, kelmadi og'zi aro juz tahsin so'z.
Husni vasfida so'zum tutti bari olamni
Murshidi ishq manga aylagali talqin so'z.
Bazmi aysh ichra Navoiy, ne ajab urmasa dam,
Ayta olmas chu nishot ahli aro g'amgin so'z.

Emdi g'ami yo'q, soldi chu ko'nglum ar ming so'z,
Ohim o'tidin o'chsa hamul sham'i dilafro'z.
Ko'nglum yarosin tiki va lekin o'qi birla,
Jonimg'a alifdek durur ul novaki dildo'z.
Vasli aro, ko'r dum, teng emish bo'yiyu sochi,
Tun-kun teng ekan zohir o'lur bo'ldi chu navro'z.
Ishq ayladi rasvo meni, emdi boshing ol, ket
Yuz xijlat ila, ey, xiradi maslahatomuz.
Jonim evida oncha g'amning naqdini yig'dim
Kim, bo'ldi ko'ngul mahzani bu joni g'amando'z.

Bir subh angakim tole' o'lur boda quyoshi,
 Xush baxti humoyun bila xush tolei feruz.
 Derlarki, Navoymu ekin dashti fanoda,
 Chun sarsari hijron sovurur bir soridin to'z.
 * * *

Kiyik charmi zaif egnimga majnunlug' nishoni bas,
 Junun toshi sinuq boshim uza qush oshyoni bas
 Damingni asra, ey Isoki, ranjim daf'ig'a har kun
 G'izo ul oy qilichi zaxmining bir qatra qoni bas.
 Senu hayvon suyi, ey Xizr, tutqil tarki jonomkim,
 Manga yor ollida o'lmak hayoti jovidoniy bas.
 Shahu izzat saririkim, agar budur jahon johi,
 Manga idbor ko'yida mazallat xokdoni bas.
 G'aniyu ko'nglida pinhon diram fikriyu ishq o'ti
 Mening ko'nglumda kuydurgan necha dog'i nihoniy bas
 Sanga kavasar suiyu lahni Dovudiyki, dayr ichra
 Mug'anniy nag'masi birla manga jomi mug'oniy bas.
 Havodis daf'ig'a shah ko'k hisori uzra gar chiqsun
 Ki, faqr ahli uchun dayri fano dor-ul-amoni bas
 Fig'onkim, lutfu qahrig'a tafovut yo'jni ham anglab,
 Fano ahlig'a javrin qilmadi bu dayri fonyi bas.
 Navoiydek o'lar holimda demang huru jannatdin,
 Sezing barchaki, bu ovorag'a bir ko'rmaq ani bas.
 * * *

Xo'blarg'a meng ul oyning toza qulluq dog'i bas,
 Ko'zlariga surma ko'yining qaro tufrog'i bas.
 Besutun sayrini naylaykim, manga egnimdag'i
 Ko'k ravoqig'a sutun bo'lg'an malomat tog'i bas.
 Chun tanim zog'u zag'ang'a tu'ma bo'ldi, ey sipehr,
 Yuz balo qullobin olg'ilkim, alar tirmog'i bas.
 Shohu toju xil'atikim, men tamosho qilg'ali
 O'zbagim boshida qalpoq, egnida shirdog'i bas.
 Go'shayi mayxonadin gulshang'a bormankim, manga
 Gul uza nasrin - mayi gulrang uza kup yog'i, bas.
 Yoshing ellik bo'ldi, yuz qo'yg'il fano tufrog'ig'a
 Kim, shabob ayyomi ayshu beadablig' chog'i bas.
 Gar Navoiy holig'a ul sho'x boqmas rahm ila,
 Goh ibrat birla ham ul yon nazar solmog'i bas.
 * * *

Bizga olam bog'idin ul sarvi gulruxsor bas,
 Goh andin jilva, gohe davlati diydor bas.
 Yog'lig'in zaxmimg'a bog'larg'a ne haddim istamak,
 Qilsa lutf andin muni tikmak uchun bir tor bas.
 Men kimu zulfung tamannosi, agar kufr istasam,
 Itlaring bo'yni tanobidin manga zunnor bas.
 Hajr o'tidin sindi ko'nglum istaman qasring panoh,
 Soya bir ko'ngli buzulg'ang'a buzug' devor bas.
 Ko'zda bir uyquni ko'rsam, uyquda ko'rsam seni,
 To ajal uyqusi ushbu davlati diydor bas.
 Voizo, men osiy erman huru jannat loyiqi
 Mug'bacha soqiy, maqomim kulbayi xammor bas.
 O'zlugungdin o'zni salb etsang g'araz bir gomdur,
 Ey Navoiy, qilmag'il bu shevani zinhor bas.
 * * *

Dayr aro bizga vatan sarmanzili xammor bas,
 Qibla - but, sarrishtai faqru fano - zunnor bas.
 Dam-badam bir mug'bacha la'li labi hijronidin,
 La'lgun sog'ar qadahdek, didai xunbor bas.
 Devsiyratlardin, ey gardun, meni og'ritmakim,
 Yuz alarcha og'riturg'a ul pariy ruxsor bas.
 Yor zulm etgan sayi ag'yor so'rmoq zulm erur,
 Vahki, shoyad qilmag'ay hargiz jafosin yor bas.
 Jomi minoyini soqiy gar bas etmas, bok emas,
 Garchi javrin qilmag'ay bu toqi mnnokor bas.

Charxdin ne kelsa, xush bo'lkim, sening ko'nglung uchung
 Aylamas davrini hargiz gunbadi davor bas.
 Ey Navoiy, rishtai davrong'a chekkil durn nazm
 Kim, zamon avroqig'a sendin so'z-o'q osor bas.
 * * *

Yo'q manga had aylamak boshingg'a evrulmak havas,
 Itlariki boshig'a evrulmak tuyassar bo'lsa bas.
 Chun haddim yo'q etkali javru jafosin iltimos,
 Qayda mumknn aylamak mehru vafosin multamas.
 Ey Masihim, chun o'larmen - bir vasiyat aylagum,
 Xalqdin maxfiy qulq og'zimg'a qo'yg'il bir nafas.
 Kechalar hajringda faryodim o'tar aflokdin,
 Mahvashim, faryodkim, bo'lmas manga faryodras.
 Gulmudur qo'yg'on qafas ustida, ey bulbul, sanga
 Yoxud afg'oning o'tidinmu tutashibtur qafas.
 Gulshani ishq ila oliyshon erukim, anda bor
 Sidra shoxi birla to'bi bir-iki xoshoku xas
 Gar Navoiy yorning vaslin tamanno qilsa bor,
 Uylakim, bo'lg'ay gado ko'nglida shoh o'lmoq havas.
 * * *

Yo'q damekim, furqati jonimg'a bedod aylamas,
 G'ayrni shod etkali ko'nglumni noshod aylamas.
 O'lmakimni bilmayin go'yo der ermish ul pariy
 Kim, necha tundurukim, ul devona faryod aylamas.
 Ulcha bag'rimg'a qilur g'am nishidin hijron g'ami,
 Tog'ning bag'rig'a metin birla Farhod aylamas.
 Soldi ko'nglum o'tig'a paykonlarin hijron, ajab
 Kim, maning qatlimg'a boshtin tig'i po'lod aylamas.
 Qaysi bir damdurki solmon sabr avroqig'a ko'z
 Kim, borin ohim yeli bir damda barbod aylamas.
 Bevaafolar rag'mig'a sevdim parini, ey ko'ngul
 Kim, vafo izhori jinsi odamizod aylamas.
 Oqibat chun ayruluqdur, ul kishi aylar g'alat,
 Kim visol ichra o'zin hijrong'a mu'tod aylamas.
 Mug'bacha qurboni bo'lsa yo'q ajabkim, piri dayr
 Bizga oyini fanodin o'zga irshod aylamas.
 Ey Navoiy, bo'lma aning yodidin g'ofil dame,
 Sen kim o'ldung degalikim, ul meni yod aylamas.
 * * *

Har niyoz etsam ayon, juz noz oyin aylamas,
 Necha achchig' yig'lasam, bir labni shirin aylamas.
 Istasa har kimni o'lтурmak uchun jallodi dahr,
 Vahki, mendin o'zgani ul g'amza ta'yin aylamas.
 Kimgakim bir orazu ruxsoru xattu zulfning
 Shavqi bo'lsa, xotiri mayli rayohin aylamas.
 Jilvakim qonlig' ko'ngulda aylar ul qad birla yuz,
 Sohati gulzor aro shamshodu nasrin aylamas.
 Ashk o'tkuncha yuzumdin qahrabo rangi tutar,
 Suni hargiz za'faron bu nav' rangin aylamas.
 Vah, ne holatdurki, ul husn aylasa har kimni shod,
 Ishq mendin o'zgani bu ishda g'amgin aylamas.
 Ey Navoiy, so'z dekim, davronni gardundek qazo
 Juz bu durri kavkab oyin birla tazyin aylamas.
 * * *

Har necha kuysam ul oy ko'nglumni paydo aylamas,
 Aylasa ham o'lsam ani oshkor aylamas,
 Ishvasidin iltifot ahvolima zohir bo'lur,
 Zorlig' ko'rguzsam andoq ishva paydo aylamas.
 Jong'a bir kuymoqchadur har kimga parvo qilmog'i,
 Yana yuz o'lmakchakim qatlimg'a parvo aylamas.
 Sho'xlug'lar birla sabrim xirmanig'a o't solur,
 Husn ila yolg'uz meni-bedilni shaydo aylamas.
 Qayda yuzlansam junun hangomasidur xalq aro,
 Ul chu yetti ko'z uchi birla tamoshlo aylamas.

Aylamas to husni bir sendekni olam ofati,
 Ishq bir mendekni ham olamda rasvo aylamas.
 Men ayog'i tufrog'ig'a naqdi jon aylay nisor,
 Ne ishimkim, ul qabul aylar ani yo aylamas.
 Naqdi islomim olib bir jur'a tut, ey mug'bacha,
 Bo'l ravonkim hech kofir buyyla savdo aylamas.
 Muddatedurkim, Navoiydur ayog'ing tufrog'i,
 Poybo'sung gar topar, ortuq tamanno aylamas.
 * * *

Holima yor tarahhum qilmas,
 Yig'lasam zor, tabassum qilmas.
 Ko'ngluma vahm erur hijrondin,
 Qatldin hech tavahhum qilmas.
 G'uncha og'zing so'zida qaysi zamon
 Kim, hazin ko'nglum o'zin gum qilmas.
 Javrlarkim qilur ul oy manga,
 Yetti aflok aro anjum qilmas.
 Qaysi bir zulmki qilmas ul sho'x,
 Garchi bu zor tazallum qilmas.
 Yuz kalom el bila aytur har dam,
 Bizga bir nukta takallum qilmas.
 Ey Navoiy, qiya boqti demakim,
 Ko'ngluma yor tarahhum qilmas.
 * * *

G'ammingdin, ey pariy, devoia bo'lmas,
 Kishikim hush topqoch, yona bo'lmas.
 Jamoling sham'ig'a ko'nglum qushidek
 Maloyik xayli ham parvona bo'lmas.
 Anga yo'q ishq birla oshnoliq
 Ki, aqlu hushtin begona bo'lmas.
 Kishiga vasl iqibili ne mumkin,
 Agar hijron aro mardona bo'lmas.
 Kerakmas may, agar xud jon bag'ishlar,
 Manga soqiy agar jonona bo'lmas.
 Xirad mug' dayri sari istamangkim,
 Bu yo'lda oqilu farzona bo'lmas.
 Navoiyg'a buzuq, bulbulg'a gulshan
 Ki, huznu aysh eli hamxona bo'lmas.
 * * *

Dame ermaksi, la'lingdin ko'ngul yuz lاخت qon ermas,
 Dag'i har lاخت qon yoshim bila ko'zdin ravon ermas.
 Yuzung mehri ichinda ko'z solib og'zingni ko'rmasmen,
 Agarchi zarra xurshid ollida ko'zdin nihon ermas.
 Ushalg'an har so'ngak jismimda go'yo ka'bataynedur,
 Nihoniy dag'i zoid nuqtasidurkim ayon ermas.
 Erur dardimg'a taskin bu kecha lekin to'shuk ko'ksum,
 Ajab gar novaki ko'nglumga kirgandin nishon ermas.
 Meni olturgali g'amzang o'qi umredurur, lekin
 Tirig la'ling xayoli birlamen, jismimda jon ermas.
 Lahad kunjin vatan aylab tiniptur umridin Majnun,
 Ne bo'lsa, men kebi ovorayi bexonomon ermas.
 Bu davr ichra qachon jomi farog'e yetgay, ey soqiy,
 Chu bir dam dardu mehnat zahri chekmakdin amon ermas,
 Agarchi qon yutar bulbul, vale ne g'am anga chunkim
 Navola g'unchadin ayruyu guldin o'zga xon ermas.
 Navoiy o'ldi, gar parvona kuydi, bulbul un chekti,
 Bular gar yaxshidurlar, ishq aro ul ham yomon ermas.
 * * *

Ey ko'ngul, holimg'a ul oy rahm qilg'udek emas,
 Zorlig' birla ishim andin ochilg'udek emas.
 Ishqida rasvolig'im ul nav' bo'ldi foshkim,
 Zuhdu ismat pardasi birla yopilg'udek emas.
 Jomi ishqidin ko'ngul ul nav' erur masti xarob
 Kim, qiyomat bazmig'a tegru ayirg'udek emas.

Uyla ishqil dashtida majnun ko'ngul ovoradur
 Kim, pariylar istagan birla topilg'udek emas.
 Soqiy, la'ling mayidin gar iloje qilmasang,
 Bu xumorim la'lil may birla yozilg'udek emas.
 Dard o'tin qilg'an havas avval ko'ngulni o'rtadik
 Kim, ul o't har xom ko'ngliga yoqilg'udek emas.
 Ey Navoiy, ul pariyashdin vafo ko'z tutmag'il
 Kim, junun ahlini aslo ko'zga ilg'udek emas.
 * * *

Labingdin ayru bag'ir laxt-laxt qonmu emas,
 Bu qon nazar yo'lidan dam-badam ravonmu emas.
 Yuzungni pardada desam, pariy, tongirg'omog'il,
 Menimu qilmadi majnun, o'zi nihonmu emas.
 Jahonu jon hazar etsa, ne ayb g'amzangdin,
 Baloyi jonmu emas, ofati jahonmu emas.
 Ko'ngulga ko'yung aro rahm nevchun aylamading,
 G'arib telbamu yo zori notavonmu emas.
 Ne ayb, la'li labing hasratida jon bersam,
 Hayot chashmasi yo umri jovidonmu emas.
 Qadahni yaxshi to'la aylamaysen, ey soqiy,
 Xumor mehnatidin holatim yomonmu emas.
 Qadam Navoiy mahzun boshig'a qo'ymas yor,
 G'ubori rahmu emas, xoki ostonmu emas.
 * * *

Dam-badam la'ling xayolidin ichim qonmu emas,
 Qatra-qatra ko'z yo'lidan yuzga g'altonmu emas?!
 Gah o'lub, gohe tirilsam, tong emas, vah, g'amzasi
 Qotil ermasturmu yo no'shi labi jonmu emas?!
 Ne ajab, ishq ofatidin chiqsa jon tan mulkidin,
 Shah na zolimmu emas, yo mulk vayronmu emas?!
 Novaki zulm urmog'ingdin tonmag'il, ey qoshi yo,
 Tanda zaxm ermasmu, yo ko'nglumda paykonmu emas?!
 Telba ko'nglummi dema ko'p vola ermas ishq aro,
 Shuhrayi ofoq, yo rasvoyi davronmu emas?!
 Dahr sho'xig'a ko'ngul gar bermadim, ayb etmangiz,
 Ishvasi chinmu emas, yo ahdi yolg'onmu emas?!
 Dash aro ko'rsang Navoiyni emas majnun dema
 Toshmu urmas ko'ksiga, yo jismi uryonmu emas?!
 * * *

Sunbulin Laylo ochiptur, yel abirosi emas,
 Dog'ini Majnun qonatmis, lolayi hamro emas.
 Nastaran ko'zgusida bir sari men, bir sari yor
 Chehra aksin ko'rguzupturbiz gul ra'nem emas.
 Gulni o'xshatqan uchun yorimg'a go'yo bog' aro,
 Muztarib ko'nglum qushidur, bulbuli shaydo emas.
 Sunbul ustidin nasim eskach, nigorim turrasin
 Yod qildimkim, dimog' oshuftadur, savdo emas.
 Nargis oltun joming ollida kofuriy harir
 Pardayi jonimdurur marhun, qadahpolo emas.
 Dema, afg'onimda bulbul nolasidek yo'q nishot,
 Bu ham anduhzo emas, gar ul nishotafzo emas.
 Gulni sarv uzra xayol ettim ko'ngul bo'stonida,
 Rost aytay: sarvi gulro'yum kebi zebo emas.
 Bo'lmanziz mag'ruri husn, ey sho'xlarkim, bog' aro
 Siz kebi bilturg'i gullardin biri paydo emas
 Manga gulrux soqiyu bulbulg'a gul tutti qadah,
 Mast erur ul ham Navoiydek, vale rasvo emas.
 * * *

Bizga ishq anduhidin ish zorlig'larmu emas,
 Holi hajr oshubidin dushvorlig'larmu emas.
 G'unchadek yuz pora ko'nglum holi bir gul hajridin,
 Xorlig'larmu emas, afgorlig'larmu emas.
 Tong emas hijron sahabin desalar yog'durdi qon,
 Ko'zlarim da'bi kecha xunborlig'larmu emas.

Ey ajal, hijronda o'lmaqdin meni qo'rqiymag'il,
 Ish manga bu so'zda minnatdorlig'larmu emas.
 Emin o'lma, mehr ko'rguzgan bila, aflokdin
 Kim, bu kajravlar ishi g'addorlig'larmu emas.
 Mahvashekem pokrav oshiqni qilg'ay bahravar,
 Husnidin oyini barxurdorlig'larmu emas.
 Ey Navoiy, yor ko'y'i itlaring holinga
 Kecha tutmoq qopmog'idin yorlig'larmu emas.
 * * *

Kimgakim bo'lsa nasib ul ofati jondek anis,
 Beba bo'lg'ay qoshinda mohi Kan'ondek anis.
 Qayda bu gulshanda uns o'lg'ay mangakim, istaram
 Orazi gul, qomati sarvi xiromondek anis.
 Kofirekim naqdi dinim oldiyu yoshurdi yuz,
 Topmog'um yuz sa'y ila ul nomusulmondek anis.
 Uns tutqoch, va'dai vasl ettiyu qildi xilof,
 Hech kimga bo'lmasun ul ahdi yolg'ondek anis.
 Ul pari men telba birla uns agar tutmas, ne tong,
 Dasht aro Majnung'a bas g'uli biyobondek anis.
 Ne ajab davron aro oshub tushmak har zamon,
 Menki istar bo'lsam ul oshubi davrondek anis.
 Qilg'ay insoniyat ar ko'z mardumig'a tutsa uns,
 Ey Navoiy, yaxshidur insong'a insondek anis.
 * * *

Mening jununuma gar ul pariy erur bois,
 Halokima qad ila paykari erur bois.
 Dema nedin kuyasenkim, aning yuzu labidin
 Bu ishga shu'la bila ahgari erur bois.
 Ko'ngul qushi tunu kun mulki boxtar sari
 Havo qilurg'a mahi xovariy erur bois.
 Mangaki, g'amzasidin o'l misham, hayoti abad
 Xayolig'a labi jonparvari erur bois.
 Chamanda bulbul etar shavq nuktasin takror
 Ki, gul varaqlarining daftari erur bois.
 Ul oy firoqida ashkim oqarg'a shomu sahar,
 Tulu'i Zuhra bila Mushtariy erur bois.
 Ko'ngulni choku bag'irni shikof istarima
 Aning qilichi bila xanjari erur bois.
 Hamesha dayr ichida bo'l mog'img'a mug'bachalar
 Karashmasiyu fano sog'ari erur bois.
 Navoiy o'lmasig'a ozimi Iroqu Hijoz
 Magar nazohati mulki Hiriy erur bois.
 * * *

Jon yetib og'zimg'a topmon dardi hijrondin xalos,
 Jonni hijrondin xalos et yo meni jondin xalos.
 Andoq ochti sunbulin gul uzra yelkim, bo'l mag'ay
 Bir ko'ngul olamda ul zulfi parishondin xalos.
 Dema, nolangdin o'char har shom eldin uyqukim,
 Tunning ul boshida el ermas bu afg'on din xalos.
 Garchi yer topting ko'ngulda vahm et ohu ashkdin
 Kim, kirib vayrong'a bo'lmas kimsa to'fondin xalos.
 Yog'sa majnun ko'nglum uzra sho'xlar dardi ne tong,
 Telba atfol ichra bo'lmas sangborondin xalos.
 Istamas bir-birni sensiz jonus tan, tengri uchun
 Kim ani mundin xalos etgil, muni andin xalos.
 Hajr uyi ichra qobolmish yor hajridin ko'ngul,
 Vah, qachon bo'lg'ay bizing tutqun bu zindondin xalos.
 Jom davridin xalos o'lmoqni zinhor istama,
 Eyki, bo'lmoq istading anduhi davrondin xalos.
 Bandi zulfungdin Navoiyni xalos etqil desam,
 Derki, bo'lmas, bo'l mag'uncha hukm sultondin, xalos.
 * * *

Gar manga bor ersa ul dildori zebo birla uns,
 Ul muhiqdur, tutmasa men zori shaydo birla uns.

Olam ahli muttafiqdurlar meni o'lburgali,
 To tutubmen ul jamoli olamoro birla uns.
 La'li ma'nusumdurur, o'ltursa o'ltursun ko'zi,
 Ne g'ami jalloddin tutqay Masiho birla uns.
 Men kimu ul xo'blar shohi bila ulfat, magar
 Vahsh tutqay dasht aro Majnuni shaydo birla uns.
 To'lg'anib zulfung bu majnung'a ne sarkashlik qilur,
 Chunki savdo ahlig'a bor ahli savdo birla uns.
 Ey musulmonlar, chu bir kofir asirimen, ne tong,
 Bor esa ko'nglumga zunnoru chalipo birla uns.
 Sarvi nozim kiygali sariq, qizil bo'l mish manga
 Ham guli ra'no bila, ham sarvi zebo birla uns.
 Gar desang dunyoda har dam yuz baliyat ko'mayin,
 Ey ko'ngul, zinhor tutma ahli dunyo birla uns.
 Ey Navoiy, gar desang soqiylig' etsun mug'bacha,
 Tut kirib mug' dayri ichra jomi sahbo birla uns.
 * * *

Ne ajab gar bor esam devonavashlig' birla xush
 Kim, ko'ngul olg'an pariyo'yum erur devonavash.
 Man' etarsiz hushi yo'q ko'nglumga la'li bodasin,
 Aytin, ey hush ahli, kelgaymu bu so'z usrukka xush.
 Sofi vasli bo'lmasa gar barcha zahri hajridur,
 Soqyo, bir jur'a tutkim, oldi jonimni atash.
 Soldi ko'nglumni g'ami hijron gudozi ichra yor,
 Go'iyokim ishq aro ul qalbda bor erdi g'ash.
 Vah, ne yanglig' sog' o'lay men telba bu holatdakim,
 Ul pariy ham bordurur devonavash, ham jur'akash.
 Shayx boshig'a balo erkandurur dastorkim,
 Ishq asrorin eshitmaklikka moni' bo'ldi fash.
 Demakim, bir yaxshi so'z birla Navoiy jonini
 Olsam, ul bo'lg'aymu roziy yaxshi so'zga ne kengash.
 * * *

Ohkim, ul sho'x erur ham mohvash, ham shohvash,
 Balki ham quldur anga yuz shohvash, ming mohvash.
 Gar quyosh ermas yuzung, nevchun nishotim mazrann
 Tobidin aylab quruq, rangimni qildi kohvash.
 Ko'nglum olib budurur maqsud angakim o'rtagay,
 Bukim o'zni dilsitonim ko'rguzur dilxohvash.
 Vasl aro o'zni xayol aylab nishotim bordur,
 Soyil andoqkim yasag'ay o'zni ahli johvash.
 Ey quyosh, ohim ne tong olamg'a solsa rustavez,
 Har damim gardung'a chunkim shu'la tortar ohvash.
 O'zdin ogah ermon, ogohe kerak sarvaqtima,
 To ul ogah davlatidin bo'lg'amen ogohvash.
 Ey Navoiy, gar hidoyat yetsa yo'lg'a kirgamen,
 Garchi mug' dayrida holo bor esam gumrohvash.
 * * *

Tun ham kechu yo'l dag'i yiroq, sen dag'i sarxash,
 O'l turki dame o'l turrali, ey buti mahvash.
 Yillar chekibon hajr dame vaslingga yettuk,
 Sen dag'i dame zorlaring ko'nglini tut xash.
 Manzil dag'i amnu ko'ngul ashobdin emin,
 May dag'i erur beg'ashu ruh andin yetib g'ash.
 Ma'lum emas tongla kim o'lg'usiyu kim yo'q,
 Tinsun qadamingda nafasi necha balokash.
 Hayhot bu xilvatda kishi bo'lsa o'larmen,
 G'ayr o'tsa xayolimg'a qilur meni mushavvash.
 Bir naqsh bu yanglig' menga ko'rguzmadi gardun,
 Chehramni qilib qon ila yuz nav' munaqqash.
 Qilmadi Navoiyg'a bu iqbolni ro'zi,
 Ulkim varaqi qismat uza bo'ldi raqamkash.
 * * *

Ne abrashdurki, sekrimish yana maydong'a ul mahvash,
 Qizil, oq gul bila yeldin magar xalq o'ldi ul abrash.

Jahon maydonida to sho'x chobuklar qilur javlon,
 Kishi ko'rmaydur andoq abrash uzra ul sifat mahvash.
 Emas abrash, sipehredur shafaqdin ko'rguzub anjum,
 Quyoshturki anga rokib, tong ermas gar erur sarkash.
 Nechuk o'lmay ul abrash uzra ul mahvashni ko'rgachkim,
 Hamul abrash erur sarkash, hamul mahvash erur sarxush.
 Meni majnun yiqilsam ko'rgach-o'q, hayrat yeri ermas
 Ki, aqli kulga har soat erur nazzorasidin g'ash.
 Pariyvash raxsh uza sarxush pariy javlon qilur, netsun
 Junun jomig'a qilmay bodapolo ahli taqvo fash.
 Quyun yanglig' egarsa abrashin ul sho'x, dam urman
 Navoiydek, nedinkim ushbu so'z bor asru ko'p chirmash.
 * * *

Ulki bizni zoru ani asru zebo aylamish,
 Ani noparvoyu bizni noshikebo aylamish.
 Ishqida har kimki sodiqroq, jafosi sa'broq,
 Ahli husn ichra ul oy xush rasm paydo aylamish.
 Dayr aro yuz mug'bacha ta'lism olurg'a qo'ydi yuz,
 To labing ehyoyi anfosi Masiho aylamish.
 Gar itingning poybo'sin topmasa ko'nglum, ne tong,
 Ne uchunkim, haddidin ortuq tamanno aylamish.
 Ishq aro o'lmay netaykim, ko'k meni aylab gado,
 Husni iqboli mening mohimni mirzo aylamish.
 Tog' aro Farhodu dasht ichra solib Majnunni ishq,
 Kimni mendek jumlai olamda rasvo aylamish.
 Yig'lamish gohi kavokibdin kulub, gah subhdin,
 Charxkim, holimni g'am shomi tamoshlo aylamish.
 Jon berib, davron elidin istamang mehru vafo
 Kim, base topmish ziyon, har kim bu savdo aylamish.
 Gar Navoiy, ko'ngli mulki bo'lsa vayron, ayb emas,
 Turktozi ishqqi ul kishvarki yag'mo aylamish.
 * * *

Surma bilanmu ul oy ko'zni qora aylamish,
 Yo'qsa Xo'tan jayrani mushk ichida ag'namish.
 Ko'yida men za'fdin uylaki, har yon meni
 It demayin, balki mo'r tu'ma uchun sudramish.
 G'amzang o'qi kasrati ko'nglum aromu ekin,
 Yo'qsa bu qush parlarin hajring o'ti churkamish.
 Hullayi zarbaftdin qildimu ul oy sepech,
 Yo'qsa shuoiy xatin boshqa quyosh chirmamish.
 Olam aro bir kishi telbaramay qolmag'ay,
 Buylaki yetkach nasim zulfung aro butramish.
 Vodiyi hajr ichrakim bo'ldi so'ngak ahli ishq,
 Budur o'tunkim, ani g'am sipahi o'rtamish.
 Lam'ayi ruxsor ila o'rtadi ushshoqini,
 G'ayrati husni magar zorlarin tergamish.
 Tegmasa bazmingda may, basdurur ul su manga
 Kim, sen ichar jomni suchi olib yoyqamish.
 Naylagamen bog'lamax mug'bacha zunnorini
 Kim, bu kuhan dayr aro Iso ani bog'lamish.
 Mehru vafo aybidin pokdur abnoyi dahr,
 Pok nazardurkim ul sari nazar solmamish.
 Tutti Navoiy aziz ko'yida ul toshnikim,
 Goh ani boshig'a, goh boshin anga yastamish.
 * * *

Donai xoli Donai xoli labing ko'nglum qushin rom aylamish
 Kim, ani tutqanda jonim rishtasin dom aylamish
 Anbarin xattingg'akim, andin kelur bo'yи vafo,
 Jon fido garchi umidim subhini shom aylamish.
 Lablaringdin ruhparvar nutq zohirdur magar,
 Ruh qudsi obi hayvoi ichra orom aylamish.
 Humrat etmish oshkor ul usruku xunxora ko'z,
 Qon ila mamzuj may go'yoki oshom aylamish.
 Sarvu gulga bog' aro dermenki aylay jon fido,
 Toki jonim qasdi bir sarvi gulandom aylamish.

Chiqtı, vah, usruk yana ul kofiri bebokkim,
 Har qachon chiqqonda qatli ahli islom aylamish.
 Dayrni qilmish ko'zumga gulsiton, ey mug'bacha,
 Ul mayi gulgunki ruxsoringni gulfom aylamish.
 Kom vaqtı tarki dunyo aylagan topmish hayot,
 Yo'qsa yetkanda ajal xudkomu nokom aylamish.
 Qani rasvoye Navoiydek agarchi ani ishq,
 Neknom eldindurur deb, buyla badnom aylamish.

Menmudurmenkim quyosh kulbamni ravshan aylamish,
 Obi hayvon zulmatobodimni gulshan aylamish.
 Yuz falakcha topsa rif'at bayti vayronim, ne tong,
 Yuz quyosh chunkim bu vayronimni maskan aylamish.
 Ko'z tegurmang, ey parilarkim, ko'zum sarchashmasin,
 Ul pariyu huri rizvon rashki ma'man aylamish.
 Mundin o'tmas do'stluq garduni dushman shevadin
 Kim, o'zin dushmanlarim qasdig'a dushman aylamish.
 Mehrni bilmas edi nomehribonim, shukr erur,
 Gar bu fan ta'lif anga davroni purfan aylamish.
 Shevan erdi qismatim hijron tunidin go'yiyo
 Kim, qora kiymish mening rashkimga, shevan aylamish,
 Ey ko'ngul, faryod ila ram berma, gar vayronima,
 Chug'z yanglig' toyiri davlat nishiman aylamish.
 Baxti jovid ushbu bo'lga'ykim ko'zum surtarga charx,
 Itlarining yo'li tufrog'in muayyan aylamish.
 Ey Navoiy, yo'q ajab, gar charx o'z davronida
 Mehr birla bir qorarg'on ko'zni ravshan aylamish.

Nevchun yuzida qahr ila chin zohir aylamish,
 Xurshid chashmasida kishi mavj ko'rmmamish.
 Vasling so'zin eshitkach etar ko'nglum iztirob,
 Sog'inmag'il aniki, firoqingda to'xtamish.
 La'lingni istamonki og'izdin chiqarg'amen,
 Bir xastadekki, jonini og'zinda asramish.
 Bo'ldim halokb Ҷ"chun beliga bog'ladi kamar,
 Qatlimg'a go'yiyo belin ul sho'x bog'lamish.
 Bemorlig'da jon itiga qilmisham nisor,
 Ko'yi sari kelibki so'ngakimni sudramish.
 Soqiy, ketur qadahki, chu g'am aylamish hujum,
 Bu yetmayin ko'nguldin alar barcha butramish.
 Yuz pora ko'ngliniki Navoiy yig'ib edi,
 Ul sho'x kirmishu yana borini qo'zg'amish.

Mehr emas, gardun yuzung hijronidin dog' o'rtamish,
 Oy emas, marham uchun momuq mudavvar aylamish.
 Ko'nglum andoq chok-chok o'l mishki, go'yo to'ma deb,
 Hajr tig'i itlaringga bir-bir ani to'g'ramish.
 Bismil etmish zori ko'nglum saydini qilg'och shikor,
 Ul shikor afkan hazin ko'nglum bu yanglig' ovlamish.
 Lola ro'yum asramay ko'nglumni gar azm ayladi,
 Yodgor andin tunganlar chok ko'nglum asramish.
 Yer yuzin tutqan bahor ayyomi ermas lolazor
 Kim, yuzung hijronidin giryon ko'zum qon yig'lamish.
 Dema, soqiy ilgidin sofiyumu xushdur yo'qsa durd?
 Har ne andin keldi, ul xushturkim ani tolg'amish.
 Gar Navoiy yoridek yo'q olam ichra, ne ajab
 Kim, kezib olamni mahvashlardin ani tanlamish.

Menga emdi sarv ila gul muddaosi qolmamish,
 Sarv bo'yluq guljabinlarning havosi qolmamish.
 Uyla buzmish mehnatu g'am xayli ko'nglum kishvarin
 Kim, nashot anda sig'ing'uncha fazosi qolmamish.
 Men baliyat ichramen, el shod, go'yo charxning
 Emdi dard ahlig'a yetkuncha balosi qolmamish.

Yorkim qilmas jafozu javr ermas rahmdin
 Kim, manga ko'rguzmagan javru jafosi qolmamish.
 Baski har torin balo atfoli uzdilar chekib,
 Vahki, uryon jism uza mehnat palosi qolmamish.
 Gul chog'i bog'ingg'akim yo'l bermading, ey bog'bon,
 Chinmudur day bo'lg'ali derlar safosi qolmamish.
 Ey Navoiy, gar vafosi qolmamish aning sanga,
 G'am yemakim, anga ham husni vafosi qolmamish.

* * *

Ilgiga moviy katon ul sho'x nevchun chirmamish,
 Go'yivo ko'p tiyg'i zulm urmoqtin og'rib bog'lamish.
 Oltururda kosh ul yog'lig' bilan-o'q bog'lasa
 Ko'zlarimnikim, ani ilgiga holo chirmamish.
 Ko'rguzur erdi yadi bayzo urarda tiyg'i qatl,
 Bog'lamish chun ilgin, el ko'zin qorong'u aylamish.
 Anglag'uncha ko'ngluma yuz dog'i anduh o'rtadi,
 Ulki ko'rgach panjasin bog'lig', dedim dog' o'rtamish.
 Kosh jonim rishtasidin bo'lsa erdi yog'lig'i
 Kim, ul oyning dastbo'si davlatig'a uchramish.
 Soqiyo, maykim, aning ilgida yog'lig' toridek
 Dardu g'am xayli buzulg'an xotirimi qopsamish.
 Olturur ilgida gar tiyg' o'lsa aning gar harir,
 Hech bilmonkim, Navoiy ne balog'a uchramish.

* * *

Borg'oningdin jon talashmoq erdi men mahzung'a ish,
 Keldingu jonioymi olding, ul borishqa bu kelish.
 Vasl oshiq joniur men jon talashim hajr aro
 Hajr borib vasl yetkach, o'lmaq erur turfa ish.
 Tiyg'i to ko'ksumni yordi nola qilman za'fdin
 Rost andoqkim, qo'yar afg'omni chok o'lg'an qamish.
 Kiyamish ul sarv gulgun to'nni, tong ermas bu rang,
 Naxlkim, ko'z bog'ida qon birla topti parvarish.
 E'tidoledur havoyiy ishq arokim, xush kechar
 Sovug' ohim birla yozu ko'nglum o'ti birla qish.
 Jismim uzra bor yangi butgan ko'kumtul dog'dek
 So'zi hajringdinki urdum g'ussadin har yerga nesh.
 Kishu sinjobin ne tong gar kiysa muziy bozgun
 Kim, chiqarmishtur kishilikdin ani sinjobu kish.
 Tuz bul o'qtek gar tilarsen avj, yokim, egridur,
 Davr har bir go'shadin bo'g'zig'a soliptur kerish.
 Ey Navoiy, har dam ul oy mehri ortar ko'ngluma,
 Garchi yillardurkim, ul tarki muhabbat aylamish.

* * *

Yuz balo boshimg'a yog'durg'an dedim aflok emish,
 Chunki tahqiq ayladim, ul kofiri bebok emish.
 Husn avjida tulu' aylab yorutg'an dahrni,
 Men quyosh sog'indim, ul ruxsori otashnok emish.
 Notavon jismimni sayli ashk uza qildim qiyos,
 Olami ishq ichra daryo uzra bir xoshok emish.
 G'am tuni bemehr ekandin yo'qli ko'ksum chok erur,
 Subhning pirohani dog'i bu g'amdin chok emish.
 Ko'ngulu ko'z qonidin orig' bo'lur ermish yuzi,
 Oshiqekim, har g'arazdin ko'zu ko'ngli pok emish.
 Yo'q shafaq, mazlum qonig'a qolib erdi sipehr,
 Ani yug'an bahri ashkim mavjidin ko'lok emish.
 Yetsa muhlik g'am, tilarmen bodano'she negakim,
 Dof'i ul zahrning, bildimki, bu taryok emish.
 Xurda sochqandin chaman mulkida sulton bo'ldi gul,
 G'uncha qonlig' ko'ngliga solg'an girih imsok emish.
 Eyki dersenkim, mening husnummu ortuq yo quyosh,
 Sog'inurseskim, Navoiy buyyla beidrok emish.

* * *

Meni ishq ichra degan oqilu farzona emish,
 Degay ulkim, so'zin eshitsaki, devona emish.

Yopsa yuz har kecha ko'nglum qushidin, tong yo'qkim,
 Malak ul sham'i jahontobqa parvona emish.
 Qasri ul husn shahining erur andoq oliv
 Ki, falak kungurasi qasrig'a dandona emish.
 Ko'zlarim andin emish qonu ramad aynidakim,
 Durd hamkosa munga, hajr anga hamxona emish.
 Zaxmi ko'p tanda jununluq ko'ngul oromidin
 Telbalar maskani fahm o'ldiki, vayrona emish.
 Jannatu kavasar umidi bila o'ldung, ey shayx,
 Bilki, naqd ushbu fano dayrida mayxona emish.
 Zuhd ila eyki Navoiyni o'karsen, ko'rduk
 Ishi usruklik emish, hamdamni paymona emish.
 * * *

Har pariy paykarga bir devonayekim zor emish,
 Kunda ming zulm o'lsa, bir ham rahm gohe bor emish.
 Qaysi majnuni balokashga pariy ruxsoridin
 To abad zulm uzra zulm, ozor uza ozor emish.
 Sen bu oyini jafo solding orag'a, yo'qsa xalq
 Ko'rsa shiddat lutf birla, yo'qsa barxurdor emish.
 Olloh-olloh. bu ne so'z bo'lg'ay menu hijron tuni,
 Vasl subhi qay qachan beyorlarg'a yor emish.
 Hajr shomi shiddatidin ishq tarkin har kecha
 Jazm etibmen, lek doim subh istig'for emish.
 Davr jomi birla taskin topmas ermish, soqiyo,
 Kimnikim sargashta qilg'an bu to'quz pargor emish.
 Deb emishsen: Jonni bergaymu Navoiy istasam,
 Bilmagansenkim, bu xud jon birla minnatdor emish.
 * * *

Hushi yo'q ko'nglum junun dashtida bir shaydo emish
 Kim, aning qoshida Majnun asru-ko'p dono emish.
 Tutti sarig' lolalar ruxsori ashkim birla rang,
 Dema, ey ra'noi gulruxkim, guli ra'no emish.
 Har bir ohim dudining maddu savodin ko'rgan el
 Zulfi hajrinda, sog'ing'aylarki, bir yaldo emish.
 Telba ko'nglum holini bilmak tamanno ayladim,
 Yillar ermishkim, junun dashtida nopaydo emish.
 Dedim: islay anbarin zulfungni ol, boshim evaz,
 Dedikim: sen telba boshinda ajab savdo emish.
 Ey g'aniy, ushshoqdin mustag'niy o'ldung, bilmading
 Kim, fano ahlig'a sultonlig'din istig'no emish.
 Anglamas erdim Navoiy holin ul oy ko'yida,
 Har kecha to subh ishi faryodu voyaylo emish.
 * * *

Sarvi ra'no qaddidin ra'no qading cholok emish,
 Otashin guldin guli ruxsoring otashnok emish.
 Ulki aytur ko'nglaking ul gul g'amidin chok emas,
 Anglamaydur beg'ami g'ofilki, ko'ksum chok emish.
 Bazmdin usruk chiqib to'kti ulusning qonini,
 Ahli din, qochingkim, ul kofir ajab bebok emish.
 Ishqim o'tin shoxai to'bi urub past istagan,
 Bilmading, ul shox bu o't ollida xoshok emish.
 Tushta Majnunni hazinu zor ko'rdum, angladim
 Kim, bir oy hajridin ul ham men kebi g'amnok emish.
 Bir quyosh hajri meni holimg'a qo'yimas zarraye,
 Demangiz bu ishga bois anjumu aflok emish.
 Voiz aytur hur ummidi birla ul oy tarkin et,
 Ey Navoiy, ko'rki, ul purgo'yi beidrok emish.
 * * *

Avji husn uzra yuzung xurshidi farruhbol emish,
 Xoling ul hindui muqbil, kavkabi iqbol emish.
 Dedim: aytay husni vasfi birla ishqim hirqatin,
 Bilmadimkim, til bular vasfin demakta lol emish,
 Husn xattin par chiqarib uchmog'i ermish sazo,
 Ishq ila dard ahlidin xo'beki forig'bol emish.

This is not registered version of TotalDocConverter

Mahisqa yana hikroqilanga, ko'ralni nomi,

Shiddati shavq iztirobidin base badhol emish.

Ko'z yumub ochquncha yuz qon aylar ermish g'amzası,

Men yomon baxtiga yetkanda ishi ihmol emish.

Ul parivash suvratin sizg'ach musavvir, angladim

Kim, xiradni aylagan devona bu timsol emish.

Xonaqah shayxi qoshinda qoldi ko'p mubham ishim,

Buyla mushkillarga piri maykada hallol emish.

Soqijo, jomi visoling no'shidin turguz meni

Kim, xumori sog'ari hijron ajab qattol emish.

Gar Navoiy pirlarg'a murshid erdi, kirgali

Ishqu savdo ko'yiga bozichai atfol emish.

* * *

Seni ko'rgach der edim, bir mehribonim bor emish,

Oolloh-Oolloh, ne balo botil gumonim bor emish.

Orazing mohiyyatu og'zing so'zin sharh aylaram,

Vah, ne tab'i poku zehni xurdardonim bor emish.

Chok qil ko'ksumni, ey badmehr, tokim bilgasen,

Tiyg'i hajringdin ne nav' ozurda jomim bor emish.

Ne hayot erdi, o'lar holimdakim, ko'rgach meni,

Noz ila dedi hanuz ul notavonim bor emish.

Javhari ishqin olurq'a xalq maxfiy naqdidek

Jon ichinda bir necha dog'i nihonim bor emish.

Yuz g'amim bor erdi, mug' ko'yiga kirkach bo'ldi daf,

Vahki, men g'ofil ajab dor-ul-amonim bor emish.

Derki, yolqibmen Navoiy unidin, vah, yaxshidur

Kim, tiriglikdin nishondek bir fig'onim bor emish.

* * *

Qading niholiki bog'i hayot tarfini tutmish,

Magarki Xizru Masiho suyu havosida butmish.

Ko'ngulnn gavhari ishqingki ravshan ayladi, gardun

Magar bu upni durri shabcharog' birla yorutmish.

Ko'ngulni qon yoshu gohi yuzum bila ovuturmen.

Sarig'-qizil bila andoqki xalq tiflin ovutmish.

Dedingki, hajr aro ber ishq so'zu tobig'a taskin,

Kishi tamug'da qachon ko'nglining o'tini sovutmish.

Ko'ngulga har necha sabru qaror pandi berurmen,

Birini, voyki, bishqarmayin, birini unutmish.

Umnd naxlini ashkim bila ne toza qilaykim,

Samumi hajr ani kul aylamish demanki, qurutmish.

Navoiy, emgak ila dema tarki ishqim etibdur,

Qachon zamiri uyi girdig'a bu ishni yovutmish.

AvvalgiI- qismB Keyingi